

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Yuldashev Ulmasbek Abdubanapovich

KOMPYUTER GRAFIKASI VA WEB DIZAYN

O‘quv qo‘llanma

(5110100 – Matematika va informatika ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun)



Guliston – 2022

UDK: 004.7
КБК: 32.973
Yu- 31

Yuldashev U.A. Kompyuter grafikasi va Web dizayn / o'quv qo'llanma. - Guliston, 2022. - 291 b.

O'quv qo'llanma amaldagi "Kompyuter grafikasi va Web dizayn" fani bo'yicha (BD-5110100-3.07, 14.08.2020-yil) Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan dastur asosida tayyorlangan bo'lib, 5110100 – Matematika va informatika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Unda Kompyuter grafikasi va Web dizayn fani bo'yicha nazariy materiallar, topshiriqlar, bilimlarni nazorat qilish uchun savollar majmuasi kabilar keltirilgan. Ushbu o'quv qo'llanma ham bugungi kunning zamonaviy bilimlari bilan yangilangan va qayta ishlangan bo'lib, unda fanning nazariy va amaliy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Учебное пособие подготовлено на основе программы, разработанной в Ташкентском государственном педагогическом университете имени Низами по актуальной дисциплине «Компьютерная графика и веб-дизайн» (БД-5110100-3.07, 14.08.2020). Предназначен для студентов бакалавриата изучающих математику и информатику. Учебное пособие содержит теоретические материалы по Компьютерная графика и веб-дизайну, задания и набор вопросов для контроля знаний. Это учебное пособие также было обновлено и переработано с учетом современных знаний, с особым акцентом на теоретические и практические аспекты науки.

The textbook was prepared on the basis of the program developed at the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami on the current discipline "Computer graphics and web design" (BD-5110100-3.07, 08/14/2020). Designed for undergraduate students. It includes theoretical materials on Computer graphics and web design, assignments and a set of questions to control knowledge. This tutorial has also been updated and revised to reflect current knowledge, with a particular focus on the theoretical and practical aspects of science.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsifiya etilgan.

Taqrizchilar: **Mamarajabov M.E.** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Informatika kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Toshtemirov D.E., Guliston davlat universiteti Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

© GulDU, 2022.

KIRISH

Bugungi kunda Internet olamiga faqatgina kompyuterlar bilan emas, balki uyali telefon aloqa texnologiyalari yordamida ham kirish oddiy holga aylandi. Shuningdek, hozirgi globallashtirilgan davrda har tomonlama takomillashtirilgan vositalar va kashfiyotlar ham sinovdan o'tkazilmoqda. Global kompyuter tarmog'i bugungi kungacha ma'lum bo'lgan barcha axborot manbalaridan (telefon, pochta, televidenie, radio, matbuot nashrlari va boshqalar) farqli holda, o'z foydalanuvchilariga har qanday ma'lumotni istalgan shakl va ko'rinishda, ularning qiziqish va xohishlariga qarab, alohida tanlov asosida uzatish va olish uchun qulay imkoniyat yaratib kelmoqda.

Kompyuter grafikasi va Web dizayn fani 5110100 – Matematika va informatika ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, fanni o'qitish natijasida bo'lajak informatika o'qituvchilari web-saytlar yaratishda qo'yiladigan talablar, dasturiy vositalar va ularning tasnifi, ulardan foydalangan holda web-saytlar yaratishga oid bugungi kunning zamonaviy bilimlari bilan qurollantirishga e'tibor qaratiladi.

Kompyuter grafikasi va Web dizayn fanini o'qitishdan maqsad - informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim web-dizaynga oid bo'lgan bilimlar va amalda qo'tlash uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo'lgan tayanch nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kompyuter grafikasi va Web dizayn fanining vazifasi:

- kompyuter grafikasi haqida umumiy ma'lumot berish;
- web texnologiyalar asoslari bilan tanishtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari orqali olinayotgan ma'lumotlarning qanday hosil qilinishi va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlarni berish;
- web saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari bilimlari bilan tanishtirish;
- Flash muhitida oddiy va interfaol animasiyalar, flash saytlar yaratishga o'rgatishdan iborat.

I BOB. KOMPYUTER GRAFIKASI VA DIZAYN

1.1. KOMPYUTER GRAFIKASI HAQIDA TUSHUNCHA

Asosiy savollar:

1. Kompyuter grafikasining asosiy tushunchalari.
2. Kompyuter grafikasi turlari.
3. Kompyuter grafikasi turlarining xususiyatlari.

Tayanch soʻzlar: Kompyuter grafikasi tushunchasi. Kompyuter grafikasining rivojlanish tarixi. Kompyuter grafikasi turlari. Kompyuter grafikasining dasturiy taʼminotlari haqida. Grafik fayllarining formatlari va ularning xossalari: BMP, WMF, GIF, PNG, TGA, GPEG, TIFF, PSD, CDR. Ranglarning sxemalari. Rang modellari: RGB, HSB, CMYK, HSL.

Grafik ifodalashning namunalari – geografik xaritalar, iqtisodiy analizning tizim diagrammalari, struktura chizmalari, korxonalar va shu kabi qandaydir fikrlar toʻplamini ifodalovchi jarayonni tuzish va grafiklashtirish **grafika** deyiladi. Grafikada ikki asosiy element farqlanadi – **grafik qiyofa va eksplikatsiya**. **Grafik qiyofa** chizmalar toʻplami boʻlib, oʻzaro bogʻlanishlari bilan tushuniladi. **Eksplikatsiya** - grafik qiyofaning maʼnosini ochib beradigan maʼlumotlar toʻplami.

Shartli belgilar yordamida tuzilgan, maʼnosi uning geometrik shakliga bogʻlanmagan boʻlib, sharoitga bogʻliq holda tushuniladigan obrazlar simvolik obrazlardir. Shartli belgilar qandaydir tushunchalar (simvollar) bilan puxta bogʻlangan boʻlishi, aniq bir belgilar toʻplami esa simvolikani tashkil etadi. **Grafik obraz** koordinata tizimi yordamida masshtablashgan shkala, oʻlchov birligi, nomlangan toʻr, grafika umumiy sarlavhasi, umumiy va xususiy tushuntirish usuli, sonlar chizigʻi, toʻldiruvchi va qaytariluvchi sonlar sifatida tushuniladi. **Geometrik eksplikatsiya** - bular koordinat oʻqlari, toʻr, shkalalar va masshtablardir. Ular yordamida grafik obrazlar geometrik xususiyatlarga ega boʻladi, chunki bu vositalar yordamida geometrik yuzalar xossalariidan foydalaniladi. **Ideografik**

eksplikatsiya - shartli belgilarni ma'nosini tushuntiradi figurali, chiziqli, fonli va boshqalar (agar bu belgilar standartlashtirilmagan bo'lsa), bu shartli belgilar grafika elementlariga aniq bir ma'no bag'ishlaydi. **Xususiyatlashgan eksplikatsiya** - sarlavhalar, tushuntirishlar (chiqish sonlari va belgilar). Bu tushuntirishlar grafikaning ushbu bilimlar doirasida qanday joy egallaganini ko'rsatib til nuqtai nazaridan grafikaning eng zaruriy elementi hisoblanadi, chunki usiz grafika hech qanday ma'noga ega bo'lmaydi. **Zonal turi** - berilgan maydonni bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakka maxsus qiymatni biriktirib qo'yish. Har bir zona gorizontal yoki vertikal polosa shaklida bo'lib, o'z sarlavhasiga ega bo'ladi. **Jadval turi** - bu o'zaro kesishuvchi zonalarining kombinatsiyasidan iborat, Masalan, shaxmat doskasi ko'rinishida yoki Excel jadval protsessorining ishchi zonalariga o'xshash.

Kompyuter grafikasi tushunchasi hozirda keng qamrovli sohalarni o'zida mujassamlashtirib, bunda oddiy grafik chizishdan to real borliqdagi turli tasvirlari hosil qilish, ularga zeb berish, programma vositasi yordamida xatto tasvirga oid yangi loyihalarni yaratish ko'zda tutiladi. U multimedia muhitida ishlash imkoniyatini beradi.

Kompyuter grafikasi – bu avvalo keng tarqalib borayotgan programma ta'minotidir, ya'ni kompyuter grafikasi mavjud va yangi yaratilayotgan programmalarga tayanadi. U hatto programmalarning o'ziga zeb berishda ham juda keng qo'llaniladi. Uning rivojlanishi jarayonlarning real uch o'lchovli fazoda qanday kechishini aniq tasvirlash (hatto harakatdagi) imkoniyatini yaratdi. Shuning uchun xozirda shunday amaliy programmalar paketlari mavjudki, ular yordamida ko'rilayotgan masalaning asosiy parametrlarinigina bergan holda uning yechimi natijasi grafik shaklda olinishi mumkin.

Kompyuter grafikasi uch turga bo'linadi: rastrli grafika, vektorli grafika va fraktal grafika. Dastlabki ikki tur orasidagi farq grafik tasvirni yaratish texnologiyasi, aks ettirish uslubi, tahrirlash va saqlashda bilinadi. Qisqacha qilib bu farqni shunday tushuntirish mumkin: nuqtali grafikada tasvirning minimal elementi nuqta hisoblanadi, vektorli grafikada esa - egri chiziq. Fraktal grafikada esa tasvirlarni matematik hisoblashlar yordamida avtomatik o'zgartirib ko'paytirish yo'li bilan chiroyli manzaralar hosil qilinadi. Fraktal kompozitsiya yaratish –

chizish yoki shakl berish emas, balki dasturlashga asoslanadi. Teleko`rsatuvlar va reklamalarni badiiy bezashda ishlatiladi.

Rastrli grafika. Rastrli grafika nuqtalar (qog'ozda) va piksellar yordamida (nuqgalar ekranda shunday deb ataladi) hosil qilinadi. Tabiiyki, nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa (ular zich qilib joylashtirilsa) unga asoslangan rasm, shakl, grafik va xokazolar shuncha aniq ko'rinib turadi. Shu munosabat bilan ekranning hal qilish qobiliyati kiritilgan bo'lib, unda gorizontaal va vertikal yo'nalishlardagi nuqtalar soni muhim rol o'ynaydi va u ekranning hal qilish imkoniyati deyiladi,

Odatda bunday ko'rsatkich 640x480, 800x600, 1024x768 yoki bulardan yuqori piksellarda beriladi. Tasvir o'lchovi hal qilish qobiliyati bilan bog'liqdir. Bu parametr dpi (**dots per inch** – nuqtalar soni zichligi) bilan o'lchanadi. 15 dyumli (1 dyum = 2,54 sm) monitorda ekranda tasvir o'lchovi 28x21 sm.ni tashkil qiladi. Buni hisobga olsak 800x600 pikselli monitorda ekranni tasvirlash qobiliyati 72 dpi.ga teng bo'ladi. Buni hisobga olsak, kompyuter xotirasida rangli tasvir ko'p joy olishini tushunish qiyin emas. Misol uchun 10x15 sm.li rasm taxminan 1000x1500 piksellardan iborat bo'ladi.

Agar xar bir rangli nuqgani tasvirlash uchun 3 bayt ketsa, bitta rasmning o'zi xotirada taxminan 4 mln bayt joyni egallaydi. Bunday ma'lumot xususan Internet sahifalarini yaratishda e'tiborga olinishi zarur. Shuning uchun ham hozirda yaxshi multimedia programmalarini, videorolikni yaratish uchun 128 Mbaytdan kam bo'lmagan va mos ravishda tezligi katta bo'lgan kompyuterlardan foydalanish lozim.

Demak, rasimli grafika bilan ishlash uchun yuqori unumli kompyuter talab qilinadi.

Rasimli grafikaning kamchiligi sifatida shuni aytish mumkinki, tasvirni mashtablashtirish (kattalashtirish, kichiklashtirish) jarayoni natijasida nuqtalar o'lchovi kattalashishi bilan tasvir aniqligi yomonlashishi mumkin va hatto tasvir tanib bo'lmaydigan darajaga borishi mumkin.

Rastrli grafika elektron (multimedia) va poligrafik nashrlarda keng qo'llaniladi. Nashrlardan turli illyustrasiyalarni yaratishda, odatda skaner orqali olingan raqamli foto yoki videokamera (hozirda bunday fotoapparat va

videokameralap keng tarqalmoqda, ammo ularning baholari xozircha ancha qimmat) yoki rassom, loyixachi tomonidan tayyorlangan tasvirlardan foydalaniladi. Shuning uchun ham rastrli grafikada taxrirlovchi programma vositalaridan keng foydalaniladi. Bu programmalar, odatla tasvirlarning aniqroq, ko‘rinishda bo‘lishini ta‘minlaydi.

Mashina grafikasi passiv va interaktiv bo‘laklarga bo‘linadi.

Bundan 30 yil avval ulug‘ olimlarni, san‘at ustalarini, sportchilarni, multiplikatsion filmlar qahramonlarini (masalan: bo‘ri, quyon A.Eynshteyn rasmi) alfavit-raqamli chop etuvchi qurilmalardan chiqarilishi keng tarqalgan edi. Bunda rasm ma‘lum nuqtalarga bir xil belgilarni tushirish orqali, rang tafovuti esa, ba‘zi joylarda shu belgilarni bir necha marta ko‘rib (to‘q rang uchun), ba‘zi bir joylarda bir marta tushirib (och rang uchun) mashina qog‘ozi sathida hosil qilinardi. Tasvirni bunday usulda hosil qilish **passiv mashina grafikasiga tegishlidir. Vektorli kompyuter grafikasi** - bu usulda vektorli displeylardan foydalaniladi. Vektorli qurilmalarda xotirlovchi elektron nurli trubka qo‘llanilib, nur ekran bo‘ylab berilgan traektoriya bo‘yicha bir marta yugurib o‘tadi va shu holat ikkinchi buyruq kelmaguncha, trubka xotira qurilmasida saqlanib qoladi. **Rastrli qurilmalarda** - tasvir uni hosil qiluvchi nuqtalarning yig‘indisi sifatida paydo bo‘ladi (piksel va pellar yig‘indisi). Rastr deb gorizontaal qatorlarning vaqt birligidagi yig‘indisiga aytiladi. Bunda har bir qator alohida pellardan tashkil topadi. Bitta pel matritsasi ekranning hamma maydonini qoplaydi. Nur ketma-ket bo‘lib har bir qator bo‘ylab yugurib o‘tadi va u pellardan o‘tayotganda nurning yorqinlik darajasi o‘zgaradi. Agar tasvir ekranda bo‘lsa, u holda bu nuqta **piksel** deyiladi.

Rastrli grafikaning ikki asosiy kamchiligi ma‘lum: a) berilganlar massivining hajmini kattaligi va ularni qayta ishlash hamda saqlashning zaruriyligi; b) sifatini buzmasdan tasvirning masshtablashtirishning mumkin emasligi. **Vektorli grafika.** Ushbu ikki kamchilikni yo‘qotadi, lekin tasviriy polotnolarni yaratish jarayoni juda murakkabdir. Amaliyotda vektor grafikasi vositalarini bezatish, chizmachilik va loyihalash - konstruktorlik ishlarida qo‘llaniladi. Vektorli grafikada har qanday murakkab ob‘ektni tasvirlash va uni

xotirada saqlash uchun operativ xotiraning 20-30 baytli maydoni etarli hisoblanadi. Vektorli grafikada masshtablash masalalari engil hal qilinadi. Masalan, agar chiziqning qalinligi, aytaylik, 0,15 mm bo'lsa, rasmni qanchalik kattalashtirmaylik yoki kichiklashtirmaylik, chiziq qalinligi o'zgarishsiz qoladi. Bu xususiyat vektor grafikasining ajoyib xususiyatidir. **Fraktal grafika**, vektor grafikasiga o'xshab hisoblanadigan grafikadir, lekin undan farqi shundaki, hech qanday ob'ekt kompyuterning xotirasida saqlanmaydi. Tasvir tenglamalar asosida quriladi, shu sababli tenglama koeffitsienti qiymati doimo o'zgarib turadi. O'zgargan koeffitsientlar asosida mutlaqo boshqa tasvir hosil bo'lishi mumkin.

Qo'llanish sohasiga ko'ra kompyuter grafikasi quyidagi turlarga bo'linadi: tijoratga oid; namoyishlarga oid; muhandislikka oid; ilmiy, ko'rgazmaliy, animatsion.

Nazorat uchun savollar::

1. Kompyuter grafikasining asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Grafik ifodalashning qanday usullarini bilasiz?
3. Grafik qiyofa tushunchasi nima degani?
4. Eksplikatsiya tushunchasining ma'nosi nima?
5. Grafik obraz qanday shakllarda bo'lishi mumkin?
6. Geometrik grafika deganda nima tushuniladi?
7. Grafik obraz qanday axborotlar bilan to'ldirilgan holda bo'ladi va u qanday ifodalanadi?
8. Geometrik eksplikatsiya qanday shaklda tasvirlanadi?
9. Ideografik eksplikatsiya degani nima?
10. Xususiylashgan eksplikatsiyaning tom ma'nosi nima?
11. SHartli belgilar qanday belgilardan iborat?
12. Zonal to'ri deganda nimani tushunsiz?
13. Pikel tushunchasining mohiyati nima?
14. Vektorli grafikaning ma'nosi qanday?
15. Rastrli grafika iborasi qanday tushuniladi?

1.2. KOMPYUTER GRAFIKASIDA RANGLARNING SXEMALARI.

Asosiy savollar:

1. Elektron rang palitrasi.
2. CIE Lab rang moduli.
3. RGB rang moduli.
4. HSB rang moduli.
5. CMYK rang moduli.

Tayanch soʻzlar: Rang palitrasi, Profil, Kalibrovka, Rangni boshqarish sistemalari, Grossmanning birinchi qonuni, Grossmanning ikkinchi qonuni Grossmanning uchinchi qonuni CIE Lab rang moduli, RGB rang moduli, HSB rang moduli, CMYK rang moduli

Rang palitrasi. Elektron rang palitrasi kompyuter grafikasida qoʻllanilishi boʻyicha rassom palitrasiga oʻxshash, yaʼni u oʻzida koʻp ranglarni saqlaydi.

Elektron palitra tarkibi bir rangni oʻzida saqlaydigan yacheykalardan iborat. Palitra aniq bir rang modelini qoʻllaydi. Uning ranglari esa bu modul asosida yaratilgan ranglardan iborat boʻladi.

Internet tarmogʻi uchun yaratilayotgan tasvirlarda xavfsiz palitalardan foydalaniladi. Chunki yaratilayotgan grafik maʼlumot minimal hajmda va tarmoqdagi qurilmalarda tasvir oʻz aslini yoʻqotmasligi zarur. Shuning uchun xavfsiz palitra 216 rangni oʻzida saqlaydi. Rangni inson, miyasida yorugʻlik oqimini tahlil qilish natijasida anglaydi.

Yorugʻlik oqimi 3 spektral ranglar (Q, Y, K — qizil, yashil, koʻk) kombinatsiyalarining tarqalishidan hosil boʻladi.

Kompyuter grafikasida rang maʼlumot tushunarligini oshirish uchun vositadir.

Rangni boshqarish sistemalari. Kompyuter grafikasining elementlarini yaratish va qayta ishlashda grafik maʼlumotlarning har xil qurilmalarda asl holatda

bo'lishligi talab etiladi. Kompyuter grafikasining qayta ishlash pog'onalarida ranglarning mos tushishini rangni boshqarish sistemalari nazorat qiladi. Bunday tizimlardan biri *CMS (Color Management System)*dir.

Profil. Har bir qurilma o'zining ichki imkoniyatlariga qarab o'z usulida rang chiqaradi. Turli xil qurilmalarda ranglarning mosligini ta'minlash uchun ular o'zining profiliga ega bo'lishi kerak.

Kalibrovka. Har xil platforma, qurilma va dasturlarda rangni bir xilda boshqarish sistemasi mavjud emas. Lekin bu turdagi sistemalarga *CMS* yaqin hisoblanadi. Ilk bor *Solerunc* nomi ostida *CMS* ni *Apple* firmasi operatsion sistemaga kiritdi. U *Macintosh* kompyuterlari sferasida nashrga tayyorlash, nashr qilish va poligrafiyada muvaffaqiyatli xizmat qildi. Windows 95G'98 operatsion sistemalarida *Kodak* firmasining *Color Matchung Module* nomi ostida *CMS* tizimlari ishlatiladi.

Kompyuter grafikasida rangli ruxsat etish tushunchasi qabul qilingan (rang chuqurligi). Monitor ekranida uni hosil qilish uchun rangli informatsiyani kodlashtirish usulidan foydalaniladi. Oq-qora tasvirni aks ettirish uchun ikki bit razryad yetarli. Sakkiz razryadli kodlashtirish 256 turdagi ranglar jilosini aks ettirishga imkoniyat beradi. Ikki bayt (16 bit) 65536 turdagi ranglar jilosini ifodalaydi (bunday rejim — *High Color*). Yigirma to'rt razryadli kodlashtirish usulida 16 777 216 ta rangni ifodalash mumkin.

Amaliy nuqtayi nazardan monitoring rangli ruxsat etish tushunchasi rangli qamrab olishni anglatadi. Bu o'z navbatida chiqarish qurilma (monitor, printer va hokazo)larida ranglar diapazonini hosil qilishni belgilaydi. Rangli modul deb additiv va subtraktiv metodlar yordamida ishlangan ranglar jilosi tarkibiy komponentlarining bo'linish usullariga aytiladi. Kompyuter grafikasida asosan *RGB*, *HSB* va *CMYK* rang modullari qo'llaniladi. Rangli modullar uch o'lchovli koordinatalar sistemasida joylashadi va ranglar fazosini tashkil qilib, Grossman qonunlariga binoan rangni uch o'lchovli fazodagi nuqta sifatida ifodalashi mumkin.

Grossmanning birinchi qonuni. Chiziqli bog‘liq bo‘lmagan har qanday rangni uchta tashkil etuvchi orqali bir qiymatli ifodalash mumkin. Chiziqli bog‘liq bo‘lmaslik — bu ixtiyoriy uch rangdan ikkitasini qo‘shish orqali uchinchisini hosil qilish imkoniyati mavjud emas.


Grossmanning ikkinchi qonuni. Agar ranglar uzluksiz o‘zgarsa, ranglar aralashmasining nurlanishi ham uzluksiz o‘zgaradi. Hech qanday rang yo‘qki, unga yaqin bo‘lgan rangni tanlash imkoniyati mavjud bo‘lmasa.

Grossmanning uchinchi qonuni. Ranglar aralashmasining nurlanishi ularning rangiga bog‘liq, biroq uning spektr tarkibiga bog‘liq emas. **Rang modullari**

CIE Lab rang moduli. 1920-yilda *CIE Lab* {Communication Internationale de l’Eclairage — xalqaro komissiya, L,a,b — bu sistemada koordinata o‘qlarining ifodalanishi) rang fazoviy moduli ishlab chiqildi. Sistema apparatga bog‘liq bo‘lmaganligi uchun ko‘p hollarda qurilmalar orasida ma’lumotni o‘tkazish uchun qo‘llaniladi. *CIE Lab* modulida ixtiyoriy rang quyidagicha aniqlanadi; yorug‘lik (L) va uning xromatik komponentlari: a — parametri yashil rangdan qizil ranggacha o‘zgarish diapazonini, b — parametri ko‘k rangdan sariq ranggacha o‘zgarish diapazonini tashkil qiladi. *CIE Lab* modulida ranglarni qamrab olish imkoniyati texnik qurilmalar (monitor, printer) imkoniyatlaridan yuqori bo‘lganligi sababli tasvirni chiqarishdan oldin uni o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi. Bu modul rangli fotokimyoviy va poligrafik jarayonlarni bir-biriga bog‘lash uchun ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda bu modul *Adobe Photoshop* dasturida standart sifatida qabul qilindan.

RGB rang moduli. *RGB* (*Red, Green, Blue* — qizil, yashil, ko‘k) rang moduli tasvirni ekranda tahrir qilish nuqtayi na-zaridan kelib chiqqan holda juda qulay va u birbiriga bog‘liq bo‘lmagan uchta qiymatdan foydalanadi. Buni uch o‘lchamli koordinata sistemasi ko‘rinishida ifodalash mumkin. Har bir koordinatalar o‘qida 0 dan 255 gacha diapazondagi bitta rang joylashtiriladi. Natijada rangli kub hosil bo‘ladi va uning ichida *RGB* modulning barcha ranglari joylashadi. Bu kubning hajmini hisoblash natijasida *RGB* modulning ranglar soni 16 777 216 ta bo‘lishi mumkinligini aniqlaymiz, ularni 24 razryadli ranglar platosi

yordamida monitorda aks ettirish mumkin. *RGB* ranglar majmuasi bilan ishlangan barcha tasvirlarni xohlagan formatda diskka yozish mumkin. *RGB* ranglar majmuasidagi ayrim ranglar tabiatda uchramaydi. *RGB* rang moduli additiv bo‘lib, har qanday rang uch asosiy (qizil, yashil va ko‘k) ranglarning turli miqdorlari birikmasidan hosil qilinadi. Bu esa kompyuter grafikasini hosil qilish va qayta ishlashda asos bo‘lib, elektron aks ettirish (monitor, televizor) uchun xizmat qiladi. Agar asosiy rangning bir komponentini ikkinchisiga qo‘shsak, nurlanishlar yig‘indisining yorug‘ligi ortadi. *RGB* ranglar majmuasida oq rang uchala ranglarning maksimal aralashmasidan hosil qilinadi, qora rang esa buning aksi o‘laroq minimal aralashmasidan hosil qilinadi.



Asosiy ranglarning joylashuvi

Ushbu rang moduli apparat-qurilmalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, rangli monitorlarda, televizorlarda keng ishlatiladi. Bunda asosiy ranglar qizil, yashil, ko‘k ranglar bo‘lib, qolganlari shularning qo‘shilishidan hosil qilinadi.

HSB rang moduli. *HSB* rang moduli insonning ranglarni maksimal qabul qilish xususiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. U rassom A.N.Mansellning ranglar aylanasi asosida yaratilgan. Rang uch komponent yordamida ifodalanadi: turi (Hue) — yorug‘lik to‘lqini uzunligi; to‘yintirilganligi

(Saturation) — yorug‘lik to‘lqini chastotasi yoki intensivligi; yoritilganligi (Brigfitness) — yorug‘lik to‘lqini soni yoki rangning to‘q yoki ochligi. Yorug‘lik to‘lqinining amplitudasi bu yerda ishtirok etmaydi. Umumiy holda *HSB*

modulining ixtiyoriy rangi oq va qora bo'yoqlardan aniq foizda qo'shilgan spektrial rangdan hosil qilinadi. Bu modul uch o'lchamli koordinatalar sistemasida quyidagicha joylashadi — birinchi o'q konus asosi aylanasining chizig'i, ikkinchi o'q konus diametri bo'lib aylana-ning ixtiyoriy nuqtasini uning markazi bilan tutashtiradi, uchinchi o'q konus balandligi. Bundan foydalanib moduldagi ranglar sonini hisoblash mumkin. Konus asosi bo'lgan aylanani 359 ta sektorga spektral ranglar bo'yicha bo'lamiz, har bir sektor 100 darajali yorug'lik to'lqini chastotasi, 100 darajali yorug'lik to'lqinini saqlaydi. Konus sirtining yuzasini hisoblash formulasidan bitta sektorda 5000 rang hosil bo'ladi, agar uni sektorlar soni 359 ga ko'paytirsak, *HSB* rangli modulidagi 1795 000 ta ranglar soni kelib chiqadi. Rangning qiymati aylana markazidan yo'nalgan vektor sifatida qabul qilinadi. Markazdagi nuqta oq rangga, aylana chegarasining nuqtalari esa spektral ranglarga mos keladi. Vektorning yo'nalishi graduslarda berilib ranglar farqini ko'rsatadi. Vektorning uzunligi ranglar to'qligini ko'rsatadi. Bunda boshlang'ich nuqta qora rangga to'g'ri keladi. *HSB* rang moduli qamrovi barcha mavjud ranglarning qiymatini o'z tarkibiga oladi. Rang yorug'ligining pasayishi uning qorayishini bildiradi. Rangga qancha ko'p miqdorda qora bo'yoq qo'shilgan bo'lsa uning yorug'ligi shuncha past bo'ladi. Rang yorug'ligi hosil qilish spektral rangga aniq foizdagi qora bo'yoqni qo'shish bilan xarakterlanadi.

CMYK rang moduli. *CMYK* rang moduli subtraktiv modulga tegishli bo'lib, u nashrni chop etishga tayyorlashda qo'llaniladi. *CMYK* rang komponentlari sifatida, asosan oq rangdan ayirish natijasida hosil bo'lgan quyidagi ranglar xizmat qiladi:

— havorang (cyan) = oq — qizil = yashil + ko'k; — to'q qizil {magenta} = oq — yashil = qizil + ko'k; — sariq (yellow) = oq — ko'k = qizil + yashil.

Bu metod original tasvirni chop etishda ranglarning tabiiy qabul qilinishiga mos keladi. Havorang, to'q qizil va sariq ranglar qo'shimcha hisoblanadi, chunki ular asosiy ranglarni to'ldiradi. Amalda qo'shimcha ranglarni bir-biriga qo'shgan bilan qora rangni bermaydi. Shuning uchun rangli modulga yana bir komponent — qora rang kiritilgan.

Natijada rangli modul abbreviaturasida to‘rtinchi harf paydo bo‘ldi: *CMYK* (*Cyan, Magenta, Yellow, Black*). Kompyuter tasvirini poligrafik uskunada chop etish uchun ranglarni *CMYK* moduli komponentlariga mos keluvchi tarkiblarga ajratish kerak. Bu jarayon ranglarni ajratish deyiladi. Oqibatda har bir komponentning original to‘rtta tasviri hosil qilinadi.

Nazorat uchun savollar::

1. Elektron rang palitrasi nima?
2. CIE Lab rang moduli qanday aniqlanadi?
3. RGB rang moduli turlari?
4. HSB rang moduli?
5. CMYK rang moduli ko‘proq qaysi soxada ishlatilati?
6. Grossmanning qonunlari?

1.3. GRAFIK AXBOROTLAR BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI

Asosiy savollar:

1. Kompyuter grafikasidan foydalanishning asosiy qoidalari va qo‘llash sohalari.
2. Grafik formatlar.
3. Zamonaviy ShK asosida elektron grafiklar qurishning asosiy elementlari va usullari.
4. Elektron grafiklar qurishning texnologik asoslari. Kompyuter grafikasining turlari, uning turkumlari va har xil ko‘rinishlari.
5. Kompyuter grafikasining texnik-dasturiy va informatsion asoslari hamda uning turkumlari.

Tayanch so‘zlar: Grafik formatlarda ixchamlash, Grafik formatlar, Zamonaviy ShK asosida elektron grafiklar qurishning asosiy elementlari va usullar, Grafik qiyofa, Eksplikatsiya, Kompyuter grafikasining turlari, uning turkumlari va har xil ko‘rinishlari

Kompyuter grafikasidan foydalanishning asosiy qoidalari va qo‘llash sohalari.

Kompyuter grafikasi qo‘llaniladigan asosiy sohalarni ko‘rsatib o‘tamiz:

- Grafiklarni chizish;
- Kartografiya-geografik, tabiiy yoki iqtisodiy hodisalarni o‘zaro chegaradosh mamlakatlar, viloyatlar, o‘lkalarining aniq xaritasini tasvirlash;
- Chizmachilik va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirish;
- Modellashtirish va multiplikatsiya;
- Turli texnologik jarayonlarni boshqarish – hayotiy masalalarni interaktiv rejimda namoyish etish. Texnologik jarayonni eng kerakli nuqtalariga o‘rnatilgan dastlabki axborot manbai bo‘lgan o‘lchagichlardan kelayotgan axborotlar qiymatini vizual idrok qilish;
- Kantcelyariya ishlarini avtomatlashtirish va chop etishni elektron usuli;
- Reklama va san`at - qandaydir fikrni ifodalash va estetik yoqimli tasvirlar orqali jamoani diqqatini tortish.

Grafik formatlarda ixchamlash.

Web-sahifalar yaratishda turli xildagi illyustratsiyalar ishlatib turiladi. Ularga quyidagilar kiradi: logotip, tugma, banner, harakatlanuvchi tasvir, fototasvir, diagramma va grafiklar.

Odatda grafik fayllar katta o‘lchamga ega bo‘ladi. Masalan, BMP, TIFF yoki PCX formatlaridagi grafik fayllar samarasiz kodlanadi va tasvirni to‘g‘ri etkazishga kerakli o‘lchamdan ham katta o‘lchamga ega bo‘lishi mumkin.

Foydalanuvchilarning katta qismi tarmoqqa modemlar orqali ulanadi. Foydalanuvchi modemlarining provayderlar bilan ulanish tezligi 56 Kbit/sek dan oshmasligini hisobga olgan holda, bunday grafik fayllardan foydalanish maqsadga muvoffiq emas, chunki sahifalar yuklanish vaqti cho‘zilib ketadi.

Bunday holatda sahifalarni tarmoqda nashr qilishga tayyorlashda asosiy maqsad - illyustratsiyalar hajmini maksimal darajada kamaytirishdir, chunki grafik fayllar hajmi sahifaning umumiy hajmini belgilaydi, bu esa o‘z navbatida uning yuklanish tezligiga ta`sir qiladi.

Tarmoqdagi grafikning yuklanish vaqtini qisqartirish uchun grafik fayllarni siquvchi juda ko'p sonli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Grafik ma'lumotlarni siquvchi texnologiyalar ikki xilga bo'linadi: tasvir sifatining yo'qolishiga olib keladigan va tasvir sifatini saqlab qoluvchi. Ixchamlash texnologiyasining birinchi tipi bu jarayon vaqtida grafik fayllarning ba'zi ma'lumotlarini yo'qotadi, bu bilan u tasvir sifatiga zarar etkazadi; ikkinchi xilda esa tasvir sifatiga ta'sir ko'rsatmagan holda grafik fayllarni siqadi. Format va grafik fayllarni ixchamlash texnologiyasini to'g'ri tanlab, boshlang'ich tasvir sifatini buzmaganda 10-50 martagacha kichraytirish mumkin, ya'ni, siqilgan va siqilmagan tasvirlar orasidagi farqni inson ko'zi bilan aniqlab bo'lmaydi.

Hozirgi kunda tarmoqlarda ikki asosiy grafik format qo'llanadi: GIF va JPEG (yoki JPG). Bu grafik formatlarda illyustratsiyalangan sahifalarni barcha keng tarqalgan brauzerlar tushunadi va to'g'ri tasvirlaydi. Bu formatlarning har biri o'z ustunliklari va kamchiliklariga ega, bu ularning qo'llanish sohasini aniqlaydi, ular orasidagi farqni tushunish o'z navbatida sayt sahifalarini grafik bezash ishlarini osonlashtiradi.

Grafik formatlar.

GIF (Graphics Interchange Format) grafik formati - tarmoqdagi eng keng tarqalgan grafik format, u tarmoqda birinchi bo'lib paydo bo'lgan. Tarmoqdagi rangli tasvirlar va fonlarning ko'p qismi GIF formati fayllaridir.

GIF tasvirni ixchamlashga imkon beradi, tasvirlarning rang palitrasi 256, yoki undan kamroq rangni saqlaydi. Bu ixchamlash jarayoni sifatga ta'sir qilmaydi, ya'ni, ixchamlashdan keyin olingan tasvir boshlang'ichi kabi bo'ladi. Agar tasvir 256 dan ortiq rangga ega bo'lsa, ularning soni chegaralangan qiymatgacha qisqartiriladi. Shuni aytib o'tish kerakki, ranglar sonini qisqartirish bosqichida tasvir sifatiga zarar yetkazilishi mumkin.

GIF da boshlang'ich tasvirni ixchamlashda faylning o'lchamini faqatgina palitradagi ranglar sonini 2 dan 256 gacha chegaralagan holda kichraytirish mumkin. Shunday qilib, GIF chegaralangan sonli ranglardan tarkib topgan grafik fayllarni ixchamlashda qo'llanilsa, juda yaxshi natijalarga erishiladi. Bu grafik

format tarmoqda logotip, matn, diagramma, grafik va chizmalarning tasvirini taqdim qilishda juda katta imkoniyatga ega.

GIF formatining ikki varianti mavjud: GIF87a va GIF89a. U ishlab chiqaruvchilar Lempel, Ziv, Welch familiyalarining birinchi harflari bilan nomlangan LWZ ixchamlash usulini qoʻllaydi.

GIF89a formati GIF87a formati standartiga toʻgʻri keladi. Bundan tashqari, rangning tiniqligi (transparency), satrlararo yuklanish (interlaced) va animatsiya kabi yangi imkoniyatlar bilan toʻldirilgan.

Rangning tiniqligi orqali har qanday fonga qoʻyib boʻladigan ixtiyoriy tasvirlar yaratish mumkin. GIF89a da oddiy animatsiyaning qoʻllanilishi tasvirlar ketmaketligini berilgan vaqt oraligʻida siklik qaytarishi mumkin.

JPEG (Joint Photographic Experts Group) grafik formati (qisqartirilgan holda JPG) koʻp rangli tasvir fayllarini tarmoqda ishlatish uchun moʻljallangan boʻlib, foydalanish darajasi boʻyicha ikkinchi oʻrinda turuvchi grafik format hisoblanadi.

JPEG rang palitrasi 16 777 216 (True Color)tagacha boʻlgan rangni saqlaydigan tasvirlarni ixchamlash imkoniyatini beradi. Bunday ixchamlash tasvirning sifati yoʻqolishi (lossy compression) hisobidan sodir boʻladi.

JPEGda boshlangʻich tasvirni ixchamlashda “ixchamlash darajasi”ni juda keng chegaralarda boshqarish mumkin. Bu formatda “ixchamlash darajasi” tasvir sifatining yomonlashuviga olib kelishini yodda tutish kerak, ixchamlash darajasi qancha yuqori boʻlsa tasvirning koʻrinishi boshlangʻich tasvirga nisbatan shuncha koʻp yomonlashadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, JPEG juda koʻp ranglarni, mayda rangli detallarni saqlovchi fototasvirlarning sifatli grafik fayllarni ixchamlash uchun mos keladi. Bu format koʻp hollarda tarmoqda sifatli fototasvir va illyustratsiyalarni taqdim qilish uchun qulay hisoblanadi. Afsuski, JPEG ranglarning tiniqligini qoʻllamaydi, bu esa uning qoʻllanish sohasini kamaytiradi.

Tarmoqda keng tarqalgan bu ikkala grafik fayllar formati oʻzining rivojlanishini davom ettirmoqda, yaʼni grafikaning yuklash jarayonini osonlashtirish maqsadida yuklanish tugashiga qadar past ruxsatda boshlangʻich

tasvir variantlarini ko'rsatish imkoniyatini beruvchi texnologiyalar ishlab chiqilgan.

JPEG da bunday maqsadlarga erishish uchun bosqichma-bosqich algoritmi o'rnatilgan (progressive JPEG). Bu algoritimga asosan dastlab past sifatli tasvir, keyin esa uning ustiga to'liq asosiy tasvir yuklanadi.

PNG grafik formati Web – sahifalarda tasvir va grafiklarni joylashtirish uchun maxsus yaratilgan ixchamlash formati bo'lib Deflate ixchamlash algoritmidan foydalanadi. Bu format GIF va JPEG formatlarining afzallik tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan.

TIF grafik formati Aldus kompaniyasi tomonidan PhotoStyler dasturi uchun ishlab chiqilgan bo'lib “tegni tasvirlaydigan fayl” ma'nosini anglatadi. Bu grafik formati yetarlicha murakkab bo'lsa ham uning strukturasi ma'lumotlarni yozishning qulayligi va tasvirni kengaytirishda katta imkoniyat mavjud. Tasvirning raqamli ma'lumotlarni ifodalovchi barcha axborotlar boshqa ko'pgina format fayllari singari uning boshlang'ich qismida emas, balki maxsus bloklarda, tasvir parametrlarining ichki belgilashlarida saqlanadi.

Unda 45 dan ortiq turli teglar mavjud bo'lib ularning qo'llanilishi ko'pgina qo'shimcha funktsiyalarni tashkil etish imkoniyatini beradi.

PCX grafik formati Zsoft firmasi tomonidan ishlab chiqilgan va Paintbrush, hamda

PhotoFinish dasturlarida qo'llaniladi. Bu grafik faylning tuzilishi sodda va ranglar palitra hajmi bo'yicha chegaralangan bo'lishiga qaramasdan yaqin vaqtgacha ommabop sanalib kelingan.

BMP grafik formati Windows operatsion tizimi uchun Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan. U favqulotda sodda strukturani ifodalaydi va uncha katta bo'lmagan piktogrammasvirlarning namoyish etilishini izohlash uchun xizmat qiladi. U grafik interfeyslarda keng qo'llaniladi.

GIF va JPEG grafik formatlari bilan ishlashda quyidagilarni yodda tutish muhimdir:

- Natijalanuvchi GIF-fayl o'lchami palitradagi ranglar soniga bog'liq. Palitradagi ranglar qancha kam bo'lsa, ixchamlash darajasini shuncha katta berish mumkin va yakuniy fayl o'lchami ham shuncha kichik bo'ladi.

- Natijalanuvchi JPEG-fayl o'lchami tasvirning mayda detallar bilan to'ldirilganiga bog'liq bo'ladi. Ular qancha ko'p bo'lsa, ixchamlash darajasini shuncha katta berish mumkin, va yakuniy fayl o'lchami ham shuncha kichik bo'ladi.

- Hech qachon JPEGda tasvirning oraliq variantlarini saqlamang, nusxalarni boshqa formatlarda saqlang. Biror bir o'zgartirish kiritish kerak bo'lsa, o'sha nusxalarni ishlating.

- Hech qachon tasvirni GIF dan JPEGga va aksincha, o'tkazmang. Bunday harakatlarda to'g'ri ixchamlash imkoniyati kamayadi, tasvirning va rang berishning yomonlashuvi yuz beradi.

- Chekli sondagi ranglardan foydalanilgan, biroq bir xil rangli sohalarning kattaligi va bir rangdan ikkinchisiga o'tishda chegaralarning aniqligini saqlovchi tasvirlarni GIF texnologiyasi orqali ixchamlash (1-rasm) JPEG dagiga (2-rasm) qaraganda yaxshiroq bo'ladi va natijadagi fayllar esa kichik o'lchamda bo'ladi. Agar bunday tasvirlar JPEG da siqilsa, ranglar xira bo'ladi va natijadagi fayl o'lchami kattaroq bo'ladi.

- Ko'p sonli mayda detallardan tashkil topgan fototasvirlar va plutonli tasvirlarni JPEG texnologiyasi orqali ixchamlash (3-rasm) GIF dagiga (4-rasm) qaraganda yaxshiroq va natijadagi fayllar esa kichik o'lchamda bo'ladi. Agar bunday tasvirlar GIF da siqilsa, ranglar xira bo'ladi va natijadagi fayl o'lchami kattaroq bo'ladi.

Grafik fayllarni ixchamlashni osonlashtirish uchun maxsus ilovalar mavjud bo'lib, ular sifatni yo'qotmagan holda grafik fayllar hajmini kichraytirish imkonini beradi.

Zamonaviy ShK asosida elektron grafiklar qurishning asosiy elementlari va usullari

Elektron grafikni tuzish va uni tushunish uchun grafika elementlari ma'nosi va ularni turli holatlarda qo'shishni o'rganish muhim hisoblanadi.

Grafik yordamida ifodalanadigan voqeliklarni to'g'ri tushunish uchun uni tashkil etuvchi hamma elementlarining to'plami (shkala, sarlavhalar va boshqalar) mavjud bo'lishi lozim.

Tasvirlashning grafik usuli yoki grafik til — bu fikrni ifodalashning fazoviy tasvirlash yoki shartli ravishda tekislikda aks ettirish usullarining to'plamidir.

Grafik tasvirlashning namunalari — geometrik figuralar, turli xaritalar, iqtisodiy analiz diagrammalari, korxonalarining tashkiliy- strukturaviy sxemalari va boshqalar bo'lishi mumkin.

Aqliy tasavur va qiymatlar to'plamini ifodalovchi chizmalarni tuzish jarayoni grafiklashtirish deyiladi, uning natijasi esa — grafika deyiladi. Grafik shartli ravishda voqelikni yoki qandaydir jarayonni tasvirlaydi. Grafikada qo'llaniladigan hamma belgilar g'oyalarbelgisi bo'lib, uning o'zi yaxlit holatda g'oyalar to'plamini ifodalaydi.

Grafika ikki elementga bo'linadi: grafik qiyofa va eksplikatsiya.

Grafik qiyofa — chizmalar to'plami bo'lib, ular o'zaro bog'lanishlari bilan birgalikda tushuniladi.

Eksplikatsiya — grafik obraz mohiyatini ochib beruvchi shartli belgilar to'plami. Grafik obraz — simvol, geometrik shakl ko'rinishida bo'lishi mumkin. Shartli belgilar yordamida ifodalangan grafik obraz ma'nosi uning geometrik shakliga bog'liq emas, sharoitga bog'liq holda tushuniladigan obrazlar simvulli obrazlarga taalluqlidir. Shartli belgilar qandaydir tushunchalar (simvollar) bilan puxta bog'langan bo'lishi, aniq bir sohadagi belgilar to'plami esa maxsus simvollar bilan ifodalanishi mumkin. ...•.«;»**.* .|.«-, >m., rj;;^ r ! 9 Simvol ko'rinishdagi ikki o'lchovli grafik obrazlar grafikani tashkil etadi.

Geometrik ma'noga ega bo'lgan va shu shaklda biror funksiya yoki tengsizlikni ifodalovchi obraz geometrik grafika deyiladi.

Masalan, iqtisodiy inflatsiya o'sishini ko'rsatuvchi egri chiziq funksiya ko'rinishda emas, balki iqtisodiy masala sifatida qiziqarlidir.

Grafik obraz butun son ko‘rinishida ifodalanishi mumkin. Grafika eksplikatsiyasi uch qismga bo‘linadi: geometrik, ideografik va xususiylashgan.

Ideografik eksplikatsiya — shartli belgilar figurali, chiziqli, fonli va boshqalar (agar bu belgilar standartlashtirilmagan bo‘lsa) ma’nosini tushuntiradi, bu shartli belgilar grafika elementlariga aniq bir ma’no bag‘ishlaydi.

Geometrik eksplikatsiya — koordinata o‘qlari, shkalalar, masshtablar. Ular yordamida geometrik qiyofalar geometrik xususiyat-larga ega bo‘ladi, chunki bu vositalar yordamida geometrik yuzalar xossalariidan foydalaniladi.

Xususiylashgan eksplikatsiya — sarlavhalar, tushuntirishlar (sonlar va belgilar) bo‘lishi mumkin. Tushuntirishlar grafikaning ushbu bilimlar doirasida qanday joy egallaganligini ko‘rsatadi va til nuqtayi nazaridan grafikaning eng zaruriy elementi hisoblanadi, chunki usiz grafika hech qanday ma’no kasb etmaydi.

Eksplikatsiyadan tashqari grafikada qo‘shimcha ma’lumotlar ham bo‘lishi mumkin: raqamli ma’lumotlar, takrorlanuvchi qiymatlar va hokazo. Grafikani qandaydir belgisiga ko‘ra guruhlash esa butun bir axborot to‘pami to‘g‘risida hukm chiqarishga asos bo‘ladi.

Berilgan axborotlarni xronologik ketma-ketligi buzilgan taqdirda, grafikaning yaxlitlik taassuroti buziladi.

Shunday qilib grafika — bu maxsus, fikran yaxlit xayoliy g‘oyalarning (ansambllarning) ikki o‘lchovli (yoki uch o‘lchovli) tasvirda ifodalangan grafik qiyofasi va uning eksplikatsiyasidir.

Shartli belgilar grafik qurishning texnologik asosini tashkil etishi tufayli grafikada ishlatiladigan shartli belgilarni ko‘rib chiqamiz.

Shartli belgilar — bular shunday chizmalarki, ular berilgan sifat ko‘rsatkichlarini shartli belgilarda ifodalaydi. Bir xil tushunchalarni belgilashda — bir xil shartli belgilardan, turli tushunchalarni belgilashda turli belgilardan foydalaniladi. Natijada, to‘liq, shu bilan birga darajalangan qiyofalar vujudga keladi: • figurali (harflar, raqamlar, ochiq va yopiq figuralar sxematik va kartina ko‘rinishidagi tasvirlar);

- chiziq (nisbatlarni belgilash, aloqa chiziq, geometrik o'lchovlarni ko'rsatish, yo'nalishi, ko'rinishi va boshqalar);
- fon belgilari — maydon va yuzalarni rang bilan yoki shtrixlar bilan (ularning xususiyatlarini ko'rsatish uchun) qoplash.

Shartli belgilar chizma yuzasida ma'lum bir tartibda joylashtiriladi.

Masshtabsiz grafiklarda belgilar erkin montaj, zonali va jadval to'ri ko'rinishida beriladi. Bu yerda grafikni yorqinlashtiruvchi vosita sifatida rangdan foydalaniladi.

Zonali to'r — berilgan maydonni bo'laklarga bo'lib, har bir bo'lakka maxsus qiymatni biriktirib qo'yish. Har bir zona gorizontal yoki vertikal polosa shaklida bo'lib, o'z sarlavhasiga ega bo'ladi.

Jadvalli to'r — bu o'zaro kesishuvchi zonalarning kombinatsiyasidan iborat.

Grafiklar tuzishda, ya'ni uning texnologik asoslarini qurishda grafik muharrirda chiqariladigan chizmalar sonini ham nazarda tutish kerak. Bu yerda qo'yiladigan asosiy talab — grafik muharrir tomonidan ko'rsatiladigan kompleksning eng asosiy qism detallari va soyasi birinchi navbatda, ikkinchi navbatda ikkinchi darajali detallar, uchinchi navbatda yordamchi detallar ko'rsatiladi va hokazo.

Grafikning yuklamasini kamaytirish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

1. Ketma-ket detallashtirish usuli (bitta grafik o'rniga, dast-labkiga o'xshash grafiklar seriyasini chizish);
2. Ulanish usuli (umumiy tizimga birlashtirilgan va bir necha turli nuqtalardan olingan tasvir);
3. Asosiy kontur usuli (umumiy konturga ega bo'lgan grafiklar seriyasini tuzish va har bir grafikka o'z xarakteriga mos keluvchi chizmalar chizish);
4. Oddiy solishtirish usuli (bir-biriga bog'liq bo'lmagan, biroq bir xil qoidalar asosida tuzilgan grafiklarni to'plash).

Elektron grafiklar qurishning texnologik asoslari. Elektron grafik tasvirlar qurishning zamonaviy usullari

Grafikaning texnologik asoslarini qurishda uning ko‘rkamligini ham nazarda tutish zarur.

Grafikaning ko‘rkamligini oshiruvchi va uning yuklanish tezligini kamaytiruvchi vositalardan biri bu rang berish usulidir. Lekin rang grafikada aralash-quralashlikni keltirib chiqarmasligi kerak. Masalan, alohida regionlarda aholining zichligini yoki kasallik tarqalishi grafikasini ifodalash, go‘yoki bu regionlar orasida uzviy bog‘liqlikni ifodalagandek taassurot qoldiradi. Bunday holda ifodalanayotgan qiymatiga qarab bir xil rangni to‘q yoki och holatini ishlatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Amaliy dasturlar paketlarining (ADP) keng tarqalishi shu bilan asoslanadiki, tasvirni kommunikatsiya texnologiya vositasi sifatida qabul qilish inson uchun tabiiyroq bo‘lib, bu usulda ham yetarli aniqlikka erishish mumkin.

Mashina grafikasini passiv va interaktiv bo‘ektlarga ajratish mumkin. Bundan 20 yillar avval ulug‘ olimlar, san‘at ustalari, sportchilar, multiplikatsion filmlar qahramonlari (masalan, bo‘ri, quyon rasmlari), Albert Eynshteyn rasmlarini alfavit-raqamli zarbli chop etish qurilmalaridan chiqarish keng tarqalgan edi. Bunda rasm ma‘lum nuqtalarga bir xil belgilarni qog‘oz sathiga tushirish orqali, rang tafovuti esa ba‘zi joylarga shu belgilarni bir necha marta urib (to‘q rang), ba‘zi joylarda bir marta tushirib (och rang) hosil qilinardi. Tasvirni bunday usulda hosil qilish passiv mashina grafikasiga tegishlidir.

Interaktiv mashina grafikasi (IMG)da tasvirning holati, uning shakli, mazmuni, o‘lchamlari va rangi monitor ekranida interaktiv qurilmalar yordamida dinamik ravishda uzluksiz o‘zgartirilib, boshqarib turiladi.

Zamonaviy shaxsiy kompyuterlarda hosil qilinadigan grafikalarining barchasi amaliy jihatdan qaraganda interaktivdir.

Passiv mashina grafikasiga planshetli va barabanli grafik quruvchi qurilmalar, shuningdek printer, kino va videokameralar yor-damida hosil qilinadigan tasvirlar kiradi.

Bu qurilmalar yordamida hosil qilinadigan tasvirga bevosita ta'sir qilib bo'lmaydi. Monitor qurilmasida tasvir hosil qilish jarayonini sichqoncha, klaviatura, skaner qurilmalari yordamida istagancha boshqarish mumkin.

Yuqorida ko'rib o'tilgan hamma tasvir hosil qilish usullarining umumiy jihati shundaki, ularda tasvir raqamli protsessor yordamida hosil qilinadi.

Grafik tasvir hosil qilishning zamonaviy usullari bilan yaxshiroq tanishish maqsadida kompyuter grafikasining uch turi — rastrli (nuqtali yoki pikselli), vektorli (obyektli), fraktal hosil qilinishini ko'rib chiqamiz. Bu uch turning asosiy farqi ekran yuzasida yorug'lik nuri haraktlanishining turlichaligidadir. Learning to'la farqi keyingi mavzularda chuqurroq ko'rib o'tiladi.

Kompyuter grafikasining turlari, uning turkumlari va har xil ko'rinishlari

Kompyuter grafikasi uch turga bo'linadi: rastrli grafika, vektorli grafika va fraktal grafika. Ular bir-biridan monitor ekranida tasvirlanishi va qog'ozda bosib chiqarilishi bilan farqlanadi.

Rastrli grafika. Rastrli grafikada tasvir nuqtalar (qog'ozda), piksellar (nuqtalar ekranda shunday deb ataladi) yordamida hosil qilinadi. Tabiiyki, nuqtalar soni qancha ko'p bo'lsa (ular zich qilib joylashtirilsa), unga asoslangan rasm, shakl, grafik va hokazolar shuncha aniq ko'rinib turadi. Shu munosabat bilan ekranning ruxsat etish qobiliyati tushunchasi kiritilgan bo'lib, unda gorizonta va vertikal yo'nalishlardagi nuqtalar soni muhim ahamiyatga ega va u ekranning ruxsat etish imkoniyati deyiladi.

Odatda, bunday ko'rsatkich 640 x 480, 800 x 600, 1024 x 768 yoki bulardan yuqori piksellarda beriladi. Tasvir o'lchovi ruxsat etish qobiliyati bilan bog'liqdir. Bu parametr dpi (dots per inch — nuqtalar soni zichligi) bilan o'lchanadi. Ekran diagonali 15 duymli (1 duym 2,54 sm) monitorda tasvir o'lchovi 28x21 sm ni tashkil qiladi. Buni hisobga olsak, 800 x 600 pikselli monitor ekranining tasvirlash qobiliyati 72 dpi ga teng bo'ladi. Demak, kompyuter xotirasidagi rangli tasvir ko'p

joy olishini tushunish qiyin emas, Misol uchun 10x15 sm li rasm taxminan 1000 x 1500 piksellardan iborat bo'ladi.

Agar har bir rangli nuqtani tasvirlash uchun 3 bayt xotira ishlatilishini hisobga olsak, bitta o'rtacha kattalikdagi rasmning o'zi xotirada taxminan 4 mln bayt joyni egallaydi. Bunday ma'lumot, xususan, Internet sahifalarini yaratishda e'tiborga olinishi zarur. Shuning uchun ham hozirgi kunda yaxshi multimedia dasturlarini, videoroliklarni yaratish uchun operativ xotirasi 128 Mbaytdan kam bo'lmagan va, mos ravishda, tezligi katta bo'lgan kompyuterlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Demak, rastrli grafika bilan ishlash uchun yuqori unumli kompyuter talab qilinadi.

Rastrli grafikaning kamchiligi sifatida shuni aytish mumkinki, tasvirni mashtablashtirish (kattalashtirish, kichiklashtirish) jarayoni natijasida nuqtalar o'lchovi kattalashishi bilan tasvir aniqligi yomonlashishi mumkin va hatto, tasvir tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarishi mumkin. Rastrli grafika elektron (multimedia) va matbaa nashrlarida keng qo'llaniladi. Nashrlarda turli illustratsiyalarni yaratishda, odatda, skaner orqali olingan raqamli foto yoki videokamera (hozirda bunday fotoapparat va videokameralar keng tarqalgan) yoki rassom, loyihachi tomonidan tayyorlangan tasvirlardan foydalaniladi. Shuning uchun ham rastrli grafikada tahrir qiluvchi dastur vositalaridan keng foydalaniladi. Bu dasturlar, odatda, tasvirlaming aniqroq ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi.

Vektorli grafika. Vektorli grafikada tasviring asosiy elementi sifatida chiziq qaraladi. Chiziq sifatida to'g'ri chiziq yoki egri chiziq olinishi mumkin. Rastrli grafikada bunday chiziqlar nuqtalar (piksellar) yordamida yaratilsa, vektorli grafikada esa tasvirlarni yaratishda nuqtaga nisbatan umumiyroq bo'lgan chiziqlardan foydalaniladi va shuning hisobiga tasvirlar aniqroq ko'rinishga ega bo'ladi. Vektorli grafikaning afzallik tomoni tasvirining xotirada kamroq joy olishidir, chunki bu holda xotirada joy chiziq o'lchoviga bog'liq bo'lmagan ravishda bo'ladi. Buning sababi xotirada chiziqning o'zi emas balki uni ifodalovchi formula yoki parametrlar saqlarashidadir. Vektorli grafikaning ixtiyoriy tasviri

chiziqlardan tashkil topadi va oddiy chiziqlardan murakkablari hosil qilinadi. Ko'pincha vektorli grafikani obyektga mo'ljallangan grafika deyish mumkin. Chunki bunda, masalan, uchburchak hosil qilish uchun 3 ta chiziq (kesma)dan foydalanilsa, piramida hosil qilish uchun uni uchburchakdan foydalanibgina hosil qilish mumkin. Vektorli grafikani hisoblanadigan grafika deb ham atash mumkin, chunki tasvirni (obyekt)ni ekranga chiqarishdan avval uning koordinatalari hisoblanadi va mos nuqtalar hosil qilinadi.

Vektorli grafikaning matematik asosini geometrik figuralarning xossalarini o'rganish tashkil etadi. Ma'lumki, nuqta tekislikda 2 ta (x, y) koordinatasi bilan, to'g'ri chiziq kanonik ko'rinishida $y = kx + b$ (bunda k va b ixtiyoriy sonlar)da, kesma esa mos ravishda boshlang'ich va oxirgi nuqtasini berish bilan tasvirlanadi. Egri chiziqlar ham mos ravishda o'z tenglamalariga ega.

Vektorli grafika asosan illustratsiyalar yaratish uchun yo'naltirilgandir. Vektorli grafika reklama agentliklarida, loyihalash byurolarida, nashriyotlarda va boshqa joylarda keng qo'llaniladi. Vektorli grafika bilan ishlaydigan dasturlarga misol sifatida *Adobe Illustrator 7.0*, *Macromedia Freehand 8.0* va *Corel Draw 5.0* larni keltirish mumkin.

Fraktal grafika ham hisoblanuvchi grafika bo'lib, uning vektor grafikadan farqi shundaki, bunda hech qanday obyektlar kompyuter xotirasida saqlanmaydi. Chunki tasvirlar tenglamalar yoki ularning tizimlarida hosil qilinadi. Shuning uchun ham xotirada tenglamalargina saqlanadi. Tenglamalarga oid parametrlar o'zgartirilishi natijasida turli tasvirlar hosil qilinadi.

Fraktal grafika matematik hisoblashlar asosida tasvirlarni avtomatik yaratish uchun qo'llaniladi. Shuning uchun ham uning asosi sifatida rasm, shakl, tasvir hosil qilishning dasturlash usuli tanlangan.

Bu grafika, odatda, turli jarayonlarni modellashtirish, tahlil qilish, turli qiziqtiruvchi dasturlar yaratishda keng qo'llaniladi.

Kompyuter grafikasining quyidagi turkumlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- tijoratga oid;
- namoyishlarga oid;

- injenerlikka oid;
- ilmiy;
- ko‘rgazmaviy;
- animatsion;

Tijoratga oid grafika elektron jadvallarda yoki berilganlar bazasidagi axborotlarni aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu axborotlar ShKEHM monitor ekranida grafik, gistogramma, diagramma va xohlagan boshqa ko‘rinishlarda aks ettirilishi mumkin. Bunda grafiklar matn izohlari va ma’lum joylarda shartli belgili izohlar bilan ta’minlanadi.

Tijorat grafikasiga tegishli bo‘lgan amaliy dasturlar paketi tasvirni ekranda tezda va qulay ifodalashga qaratilgan, chunki tijoratchining asosiy maqsadi axborotlarni qayta ishlash jarayonidagi o‘zgarishlarni tezda muhokama qilib, tegishli qarorlar qabul qilishdan iboratdir. Tasavurni yanada oshirish uchun ushbu paketlarda tasvirni turli xildagi grafika shaklida tasvirlash imkoniyati kiritilgan. Bu esa, o‘z navbatida, barcha turdagi tasvirlarni ekranda birgalikda ko‘rib, tahlil qilish imkoniyatini oshiradi. Bu paketlarning eng ahamiyatli tomoni shundaki, ular tasvirlarni turli xil shaklda berishdan tashqari aks ettirilgan grafiklarni tahlil qilish imkoniyatini ham beradi. Shu sababli bu paketlarga turli xil matematik tahlil usullari, jumladan statistik tahlil, ehtimollar nazariyasi, iqtisodiy jarayonlar bashorati kabi usullar kiritilganki, ular berilgan axborot to‘plamini tahlil qilish imkonini beradi.

Namoyish qilish grafikasi — matn, sxema, eskiz kabi hujjatlarning mashinaviy tasvirini hosil qilib uni namoyish etishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Bu yerda eng asosiy vazifa — yuqori sifatli va chiroyli ko‘rinishdagi tasvirlar hosil qilishdan iborat.

Bu turdagi grafikaning eng afzal tomoni shundaki, undagi tasvirlar to‘plami va ko‘rinishini tezda o‘zgartirish mumkin.

Injenerlik grafikasi — bunday grafika chizmachilik, loyihalash va konstruktorlik ishlarini avtomatlashtirishda keng qo‘llaniladi. Injenerlik grafikasi

analiz, sintez, modellashtirish, chizmachilik, boshqarish va shu kabi loyihalash ishlarini avtomatlashtirishning hamma bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

Ilmiy grafika — ilmiy izlanishlar uchun xizmat qiladi va geografik, fizik, biologik va boshqa jarayonlarni tadqiq qilishda qo‘llaniladi. Ilmiy grafikaning eng asosiy maqsadi ilmiy izlanishlarda hosil bo‘ladigan axborotlarni vizuallashtirish — ko‘zga ko‘rinarli shaklda ifodalashdir. Ayniqsa bu yo‘nalish atom energiyasi manbalarini tadqiq qilishda, kosmonavtika, samolyotsozlikda, geografiya va okeanologiyada — xullas qamrovi katta bo‘lgan, tez kechadigan jarayonlarni o‘rganishda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini kerakli shaklda diagrammalar, xaritalar, jadvallar va turli matematik formulalar shaklida tasvirlashda ishlatilishi mumkin.

Ko‘rgazmaviy grafika — namoyish va tijorat grafikalarining rivoji bo‘lib, shu ikkala grafika imkoniyatlarining yig‘indisini tashkil etadi. Bu grafika ayrim grafikarni slaydlar ketma-ketligidan iborat slaydfilm qilib yaratib, so‘ngra uni ma’lum vaqt ichida ekranda ketma-ket ko‘rgazma shaklida slaydning ekrandagi tasviri ovoz va visual effektlar qo‘shib olib borilishi mumkin. Bundan tashqari, tayyor grafikni tahrir qilish imkoniyati ham mavjud.

Animatsion grafikada — rang bilan ishlashdagi muvaffaqiyatlar muhandislik grafikasidagi uch o‘chovli obyektlarni modellashtirishdagi yutuqlar bilan (masalan reklama e‘lonlari va teleko‘rsatuvdagi bir tasvirning ichiga ikkinchisini kiritish) qo‘shib uyg‘unlashtirilgan.

Mashina grafikasi — bu kompyuter yordamida obyekt shakllari, uning modelini yaratish va saqlash uchun xizmat qiluvchi kompyuter grafikasining bir bo‘limi. Kompyuterda turli grafik tasvirlarni hosil qilish mumkin, biroq ular bir-biridan farqlanadi, chunki hozirgi zamon kompyuterlari o‘tgan asrning 90-yillaridagi tizimlarga nisbatan shakllarni aniq tasvirlash imkoniyatiga va maxsus dasturlar bilan kengaytiriladigan tizimlarga ega. Interfaol grafika — bu mashina grafikasi sanaladi.

Interfaol grafika — kompyuter grafikasining eng asosiy bo‘limlaridan biri bo‘lib, unda foydalanuvchi tasvirni dinamik boshqarish imkoniga ega bo‘ladi,

ya'ni tasvirning shakli, o'lchamlari va monitor yuzasidagi ranglarini o'zaro ta'sir qiluvchi moslama (klaviatura yoki sichqon) yordamida boshqaradi.

Kompyuter grafikasida aniq va mavhum obektlar tasvirini yaratish va bu tasvirlarni ikki ko'rinishda kuzutish mumkin:

- kuzatuvchi qo'zg'almas bo'lib, oldidagi obektni xohlaganicha aylantirib kuzatishi mumkin — bu panorama effekti;
- obekt qo'zg'almas bo'lib, kuzatuvchi uning atrofida aylanib tomosha qilishi mumkin — bu kamera effekti.

Interfaol grafika yaratilgandan keyin u televideniya va fotografiyada tasvirni yaratish va tayyorlashdagi eng asosiy texnik moslamalardan biri bo'lib qoldi. Uning yutuqlaridan biri sintezlangan abstrakt obyektlarni, tasvirlarni EHM yordamida hosil qilishdir. Inson mashina grafikasidan foydalanish vaqtida juda ko'p zerikarli va har xil mayda ishlardan (juda ko'p miqdorda matnli varaqalar va sonli materiallarni ko'rib chiqishdan) qutildi.

Statik tasvirlar informatsiyalarni yetkazib berishda yaxshi bo'lishiga qaramay ko'p holatlarda dinamik o'zgaruvchi tasvirlar ulardan ustun turadi. Hayotda asosan jarayon vaqtida o'zgarib turuvchi tasvirlar—dinamik o'zgaruvchan tasvirlar (tovush tezligidan tez uchar samolyot qanotining egilishi yoki inson qiyofasining hayoti mobaynida o'zgarib turishi). Dinamik tasvirlar qo'zg'almay turgan tomoshabinga obyektlarning siljishi va harakatlanishini ko'rishga yordam beradi. Bunda obyekt qismlarni boshqa 18 obyektga yaqinlashtirish yoki uzoqlashtirish va obyekt detallarini kattalashtirib yoki kichraytirib ko'rish mumkin.

Kompyuter grafikasining texnik-dasturiy va informatsion asoslari hamda uning turkumlari

Umumiy holda grafikadagi tasvirlar ikki xil ko'rinishda: ikki o'lchovli yoki uch o'lchovli shaklda bo'ladi. Ikki o'lchovli grafikaning dasturiy ta'minoti (x, y) koordinata sistemasida yuza tasvirini hosil qilish imkoniyatini beradi. Bu 2D ko'rinishidagi tasvirdir.

Uch o'lchovli grafikaning dasturiy ta'minoti tekis ekranda (x,y,z) (3D) koordinatalari sistemasida tasvirlarni hosil qilish imkoniyatini beradi.

4D grafigi vaqt sistemasidagi uch o'lovli tasvirdir. Shuningdek 2,5D turidagi tasvir ham mavjuddir. Bu 2D ko'rinishli tasvir bo'lib, 3D tasvirining ba'zi xususiyatlari bilan to'ldirilgan (masalan, ustunli diagrammada har bir ustun yo'g'onligi ham ko'rinish turadi).

Grafik vositalarning asosiy (dasturiy, texnik, informatsion) xususiyatlarining kompyuter grafikasining har bir sinfiga tegishli bo'lgan xossalarini ma'lum bazaviy funksiyalar to'plamini ajratib olishga mo'ljallangan dasturiy ta'minotlarining alohida belgilari bilan tanishib chiqamiz.

Tijorat grafikasi dasturiy ta'minotining bazaviy funksiyalar to'plamiga quyidagilar kiradi:

- ikki yoki uch o'lovli berilgan sonlar massivi;
- har bir koordinata o'qidagi matn belgilari;
- aks ettiriladigan axborot uchun umumiy bo'lgan matn izohi;
- o'lov birligining nomi va shakli.

Ko'pchilik integrallashgan (yig'ma) amaliy dasturlar paketlari grafik vositalarning ushbu sinf funksiyalarini o'z ichiga olgan.

Berilgan ikki o'lovli koordinatalar sohasida x va y o'qlari bilan bog'langan holda yoki uch o'lovli x , y , z fazoviy koordinatalarda beriladi. 2D turidagi grafiklarning xillari: aylanma diagramma — *Pie*; chiziqli grafik — *Line*; ustunli gistogramma — *Bar*;

ustunli bo'lakli gistogramma — *Stacked Bar*, *min* va *max* qiymatli diagramma — *HI-LO*; zonali diagramma — *Area*; x va y li diagramma — $x-y$.

2D turidagi bunday grafiklarni jadval protcessorlarining eng sodda variantlarida ham hosil qilish mumkin: SC3, SC4, MS Excel, LOTUS 1G'2G'3, FW-1G'2G'3 va hokazo.

3D turidagi grafika amaliy dasturlar paketining eng oxirgi versiyalarida amalga oshirilgan. (masala, SC5.6; FW-4; FaxGraph, Statgraphics - 3.5; QuattroPro 4.0 va hokazo).

Mukamallashtirilgan grafik imkoniyatlarga ega bo'lgan dasturiy vositalar nafaqat ekranda berilganlarni aks ettirish usulini tanlashga, shuningdek tasvirning ekrandagi elementlar o'lchamlarini, holatini o'zgartiradi, bir joydan ikkinchi joyga ko'chiradi va shunga o'xshash ishlarni ham bajaradi.

Ammo bu qo'shimcha imkoniyatlar, foydalanuvchiga ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi hamda grafika tuzish vaqtini uzaytirib yuboradi.

Ko'rgazmaviy grafika amaliy dasturlar paketini ko'pincha grafik tahrirchi bilan almashtiradilar. Aslida grafik tahrirchi shu sinfga oid amaliy dasturlar paketining bir bo'lagi, xolos.

Masalan, Story board Plus amaliy dasturlar paketida grafik tahrirchi - Picture Maker, undan tashqari scenariy tahrirchisi - Story Editor, tayyor slayd-filmlarni qo'yishga mo'ljallangan tahrirchi - Story teller va amaliy dasturlar paketidan kerakli bo'laklarni ko'chiruvchi dastur Pictyre Taker ham mavjud.

Ushbu sinfga mansub bo'lgan dasturiy vositalar qatoriga 2D grafikasida ishlay oladigan dasturlarni ham kiritish mumkin. Ular hosil qilgan tasvir va matnlardan slaydfilmlar yaratishga va uni turli-tuman effektlardan foydalangan holda namoyish qilishga imkoniyat yaratadi: diagonal bo'yicha, ekranning markaziy nuqtasidan uning chetlariga yo'nalgan holda, bir - birini qoplovchi ikki to'siq shaklida va boshqacha effektlar bilan namoyish eta oladi.

Bu sinfga oid bo'lgan dasturlar vositasida quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur:

- shrift tanlash;
- rangning jilolarini tanlash; chiziq qalinligini tanlash;
- ilgari hosil qilingan va grafika kutubxonasidagi tasvirlarga murojaat hamda ularni tanlash;
- hosil qilingan tasvirni saqlash va uni kutubxonaga joylashtirish;
- tasvirga matnni joylashtirish;
- tasvirni qirqish, ulash va o'chirish;
- tasvirlarni slayd rejimida maxsus effektlar bilan birgalikda tomosha qilish;
- tasvirlarni sharhlash vositalari;

- ish grafikasi vositalarining mavjudligi.

Ushbu sinfga tegishli bo'lgan keng tarqalgan amaliy dasturlar paketi quyidagilar:

Adobe Photoshop, Adobe Illustrator, PC Paint Brush, PC Storybord, PC Storybord Plus, Dr.Hallo Fantavision, Buku, Bgraf, Bukount.

Yuqorida keltirilgan amaliy dasturlar paketlarning eng keyingi versiyalari, masalan, Corel Draw

8.0 va 10.0 lar 3D grafikasi bilan ishlaydi, ularda "rasm chizish asboblari" kengaytirilgan: retush vositalari, maxsus filtrlar, fon uchun tayyor tasvirlar kutubxonasi va hokazolar mavjud. Bu dasturlarning ko'pchiligi multiplikatsiya vositalarini ham o'z ichiga oladi va imkoniyatlari bo'yicha animatsion grafika sinfiga o'tib ketadi. Injenerlik grafikasini ikki asosiy funksiyasi mavjuddir:

- ob`ektni konstruksiyalash;
- ob`ekt yordamida turli xil harakatlar hosil qilish.

Bunday bo'linish ikki va uch o'lchamli koordinatali sistema kontsepsiyasiga olib keladi.

Injenerlik grafikasida ilk bor haqiqiy ob`ektlarini uch o'lchovli koordinatada modellashtirish imkoniyati tug'ildi. Injenerlik grafikasi tasvirlarni avvalo o'zaro tutashtirilgan karkas shaklidagi rasmlardan boshlab zamonaviy murakkab ob`ektlarni ekranda turli ranglarda va turli ko'rinishdagi tasvirlarini olishgacha bo'lgan rivojlanish bosqichini bosib o'tdi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, ko'rgazma grafika tijorat va namoyish grafikasining yig'indisidan iborat. Shunday qilib ko'rgazma grafigi tijorat va namoyish grafikalarini bazaviy funksiyalari to'plamidan iborat va u quyidagi uch xil masalani echishga imkon beradi:

- grafika va diagrammalar bilan ishlash;
- tasvirlarni taxrirlash va saqlab qo'yish;
- kurgazma materiallarini Asosiy savollarlashtirish va tayyorlash.

Bunday sinfdagi dasturiy ta`minotiga quyidagilarni kiritish mumkin:

HarvardGraphics, FreelancePlus, Hollywood, Microsoft Power Point for Windows va xokazo. Animatsion grafika quyidagi masalalarni hal etadi:

- karkasli 3D ob`ektini modellashtiradi va konstruksiyalaydi, uni murakkablashtirilgan holda har xil sharoitda ishlatib ko`radi;
- yaratilgan karkasli ob`ektning yuzasini qoplash uchun kutubxonadan tayyor materialni olish yoki uni o`zi yaratish (teksturani) imkoniyatini tug`diradi;
- ilgari yaratilgan modellarni fazoda joylashtirish, boshqacha aytganda, yaratilgan ob`ektlar uchun sahna, ish joyini hosil qilish;
- ob`ektlarni matnlar bilan bog`lab chiqish;
- yoritish xarakterini aniqlash, yorug`lik manbalarini joy-joyiga qo`yish, kamerani sahnaga joylashtirish;
- kadrlar ketma-ketligini aniqlash va kadrda kadrda siljishini ta`minlash;
- yakka kadrni yoki bir necha kadrlarning ranglar jilosini, yorug`ligini, soyalarini, qarash burchagini, ob`ektlarning o`zaro joylashishini va kadrda kadrda o`zgarishi – renderingi (rendering)ni nazarda tutgan holda namoyish etish;
- yakka tasvirni yoki olingan kadrlar ketma-ketligini ekranga film sifatida namoyish etish.

3D animatsion grafikasi amaliy dastur paketlaridan tashqari (3D Studio Topas va boshqalar) 2D amaliy dastur paketlari ham mavjud (Flash 5, Limena, Animator PRO). Bular tasvir hosil qilish uchun mo`ljallangan tasvirning dastlabki va oxirgi kadrlarini hosil qiladi, qolgan oraliq kadrlar esa avtomatik ravishda hosil qilinadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Grafik formatlarda ixchamlash
2. Ko`rgazmaviy grafika
3. Animatsion grafikada
4. Mashina grafikasi
5. Namoyish qilish grafikasi
6. Injenerlik grafikasi
7. Ilmiy grafika

8. Tijoratga oid grafika
9. Kompyuter grafikasining texnik-dasturiy va informatsion asoslari hamda uning turkumlari?
10. CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash qanday amalga oshiriladi?

1.4. CORELDRAW DASTURIY PAKETI. CORELDRAW DASDTURIGA KIRISH.

Asosiy savollar:

1. CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash.
2. Hujjatli oynani kontekstli menyu yordamida yaratilgan tasvir masshtabi hosil qilish.
3. Chizg'ichni joylashtirish va ulardan foydalanish.
4. Coreldraw 15 dasturining ishchi muhiti.
5. CorelDraw grafik muxarriri [interfeysi](#).

Tayanch soʻzlar: CorelDRAW dasturida xotiraga saqlash, SRT CDR, TIFF, JPEG, PICT, Chizg'ichni joylashtirish va ulardan foydalanish, Coreldraw muharririning ishchi oynasi elementlari, Orep GRAPHIC, COREL TUROR, Status Var

CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash.

CorelDRAW dasturida hujjatlarni xotiraga bir-nechta usul bilan saqlash mumkin. Menyuning Fayl (File) va Saqlash (Save) buyrug'i yordamida joriy hujjatni joriy jildga saqlaydi. Bu amal asboblar panelidagi maxsus tugma yordamida ham amalga oshiriladi. Soxranit kak ... (Save As) buyrug'i esa joriy hujjatni boshqa nom va boshqa jildga va boshqacha formatda saqlash imkoniyatini beradi. Bu amalni bajarilganda va yangi hujjatni xotiraga saqlaganda ekranga Tasvirni saqlash (Save Drawing) ni beradi.

Versiya (Version) ro'yxatidan CorelDRAW dasturining avvalgi variantlaridan birini yoki yangi variantini tanlab hujjatni mos formatda xotiraga saqlaydi.

Faqat dasturning eski variantlarida hujjatlarni saqlaganda bir nechta parametrlar yo'qolib ketishini esta tutish lozim.



Thumbnail ro'yxatida xotiraga saqlashning bir-nechta variantlarini beradi:

- hujjatlarni o'lchamini bir qancha kichik qilib berish ham mumkin, faqat keyinchalik fayllarni qidirganda qiyinchilik tug'diradi. 1K (mono), 2K (mono),

4K (color), 8K (color) oq-qora yoki rangli tasvirlarni har xil sifatda xotiraga saqlasa bo'ladi. Agarda hech biri tanlanmagan bo'lsa, u holda maksimal sifatli tasvirli hujjat xotiraga saqlanadi.

- Selected only (Faqat tanlangan obyektlar) tanlanganda yangi faylga ajratilgan obyektlar saqlanadi, shu bilan birga boshqa faylga obyektning alohida qismini ham saqlash mumkin.

- ICC profile (ICC profilini joylashtirish) hujjatdagi ranglarni boshqarish. Dastur faqat SRT CDR, TIFF, JPEG, PICT va EPS formatli fayllar bilan ishlaganda ishlaydi.

- No white spaces, special characters (Bosh joy va maxsus belgilersiz) belgisi hujjatni xotiraga saqlaganda bo'sh joy tagini chizish bilan, maxsus belgilarni Web standartidagi belgilar bilan almashtiradi.

- Embed Fonts using TrueDoc (Shriftlarni TrueDocdan foydalanib yozish) hujjatda TrueDoc texnologiyasini foydalangani haqida malumot beriladi.


- Keywords (kalit soʻzlar) i Notes (Tuchunsha berish) hujjatlarni tez topish uchun ularga tuchintirish soʻzlari yoziladi.

- Advanced tugmasi... (Quchimcha) ekranga Save (saqlash) dialog oynasini va

Options

(parametrlar), parametrlari oʻrnatilgan boʻladi.

- Save presentation exchange (Boshqa redaktorlar formatlida saqlash) CMX formatda ishlaydigan boshqa redaktorlarda faylni ochich. Buni ishga tushirganda faylning oʻlchami katta boʻladi.



- Use current thumbnail (Ispolzovat suhestvuyuhuyu miniatyuru) birinchi saqlaganda rastrlangan hujjatni miniatyura yordamida saqlashni tʻaminlayda. Bu faylni saqlashga moʻljanlangan vaqtni mʻalum miqdorida kamaytiradi, ammo xatolikka olib kelishi mumkin, agarda hujjat koʻp qayta ishlangan boʻlsa.

- File optimization maydonida (faylni optimallashtirish) ikki xil turdagi fayllarni saqlaydi, rastr tasvirli (Use bitmap compression) va vektor tasvirli (flajok Use graphic object compression) faylning oʻlchamini kichik qiladi.

- Textures maydoni (Teksturnoʻe zalivki) va Blends and extrudes («Poshagovoʻy perexod» i «Ekstrudirovaniye») tarkibiga qaraganda bir xil:


➤ Save ... with the file (fayl bilan saqlash) fayl o‘lchami katta bo‘ladi faqat hujjat o‘qilganda tez vaqtda ochiladi;

➤ Rebuild ... when opening the file (Postroit ... pri otkro‘tii fayla) — yuqaridagiga teskari faylni o‘qishda ko‘p vaqt talab etadi, o‘lchami katta bo‘ladi.

Hujjatli oynani kontekstli menyu yordamida yaratilgan tasvir masshtabi hosil qilish.


Vektor grafikasi muharrirlarida ekranda (ishchi maydonda) qanday tasvirlar bo‘lsa bosmadan shu ko‘rinishda chiqariladi. Ekrandagi ishchi oynada tayyor bo‘lgan tasvirlarni ko‘rish uchun menyuning Ko‘rish (View) dan foydalaniladi. Dasturda besh xilda ko‘rinishda ko‘rish mumkin.: Oddiy konturli (Simple Wireframe), Konturli (Wireframe), Chernovoy (Draft), Normal (Normal), Yaxsh (Enhanced). Agarda hech biri tanlanmasa u holda normal (Normal) holatini komputer uzi tanlaydi.

Ekran
masshtablash



Ekstrandagi tayyor bo‘lgan rasmlarni katta va kichik hollarda ko‘rish funktsyalari mavjud. Uning uchun asboblar panelidagi (Toolbox) Mashtab (Zoom) tanlanib kattalashtirish yoki kichiklashtirish parametri ko‘rsatiladi.

Standart asboblar panelida masshtablash parametrlari berilgan va ular quyidagilar: Ajratilgan obyektlar (To Selected), hamma obyektlar (To Fit), Sahifa (To Page), Sahifa eni boyicha (To Width), Sahifa boyi boyicha (To Height), 10%, 25%, 50%, 75%, 100%, 200%, 400% ga masshtablashga bo‘ladi.



Ekrandagi tasvirlar kattalashtirilganda hujjatdagi ko‘rinmaydigan ob`ektlar bilan ishlashga to‘g‘ri kelib qoladi u holda shu ob`ektlarni siljitishga to‘g‘ri keladi. Buning uchun quyidagi ikkita imkoniyatlardan foydalanilsa bo‘ladi:

1. vertikal va gorizontaal siljitgishlardan.
2. Maxsus asbob Panoramadan (Pan). Bu holda

ekrandagi kursor qo‘l shaklini oladi va obyektни xohlagan tomonga siljitish mumkin.


Chizg‘ichni joylashtirish va ulardan foydalanish.

Chizg‘ich ekranda ko‘rinib turadi agarda u yoq bo‘lsa menuning Ko‘rish (View) tanlanib Chizgich (Rulers) buyrug‘i ishga tushirish kerak bo‘ladi, ikkinchi marta bu amal bajarilsa ekrandan chizgish olib tashlanadi.


Chizgichni ekranning hoqlagan joyoga qo‘yish mumkin. Bu uchun <Shift> tugmasi bilan birgalikda sichqoncha bilan olib hoqlagan joyga qoysa bu‘ladi. Agarda <Shift> tugmasi bilan birgalikda chizgishga ikki marta sichqoncha bilan chertilsa avvalgi holiga qaytariladi.

Agarda <Shift> tugmasisiz ikki marta chertilsa u holda chizgishning (Rulers) Parametrlari (Options) ekranda nomayon bo‘ladi.

CorelDRAW dasturidagi chizgish har xil ulchob birliklarida beriladi O‘lchov birliklari (Units) qoyidagilar iborat:



- inches (dyumlar), 1 (ingliz) dyumi 24,5 mm teng;
- millimeters (millimetrlar);
- picas; points (pikalar), 1 pika 12 punktga teng;
- points (punktlar), 1 punkt 1G‘72 engiz dyumiga teng (24,5 mm);
- pixels (pixellar), nisbiy ulchov birlik (absolyut qiymatga ega emas);
- ciceros; didots (tsitsero), 1 tsitsero 12 punktga teng;
- didots (Dido punktlari), 1 Dido punkti 1G‘72 farang dyumiga teng (27,06 mm);
- feet (futlar), 1 fut 304,8 mm ga teng;
- yards (yardlar), 1 yard 914,4 mm ga teng;
- miles (milar), 1 mil 1609 m ga teng;
- centimeters (santimetrlar);
- meters (metrlar);
- kilometers (kilometrlar). hujjatning umumiy ish maydoni 45 x 45 metrga teng. Bu esa dasturdan




ko'rgazmalar va katta hajmli ob'ektlar bilan ishlaganda juda qo'l keladi Sahifalarning parametrlari

Ekrandagi hujjatning sahifa formati to'g'riturtburchak shaklidagi ko'rinishda bo'ladi. Agarda sahifa formatini o'zgartirmoqchi bo'lsangiz Svoystva (Property Bar) foydalansa bo'ladi.

Agarda Kitob (Portrait) tanlansangiz hujjatning bo'yi buyicha ko'rinishda , Albom (Landscape)ni tanlansangiz hujjatning eni buyicha ko'rinishda sahifalaydi.


Yuqoridagi sahifalashning o'lchamlarni bosmadan chiqariladigan paytdagi bilan chalkashtirmaslik kerak.



Agar tayor bo‘lgan hujjatni bosmadan chiqarmoqchi bo‘lsangiz menuning Ko‘rish (View) tanlanib bosmaga chiqishi kerak bo‘lgan maydon tanlanadi (Printable Area), va ekranda shtrix chiziqlar bilan bosmaga chiqadigan maydon chegaralangan bo‘ladi.

Coreldraw muharririning ishchi oynasi elementlari.

Kodlashtirishning vektorli usulida geometrik shakllar, egri va to‘g‘ri chiziqlar, aylana, kvadrat, ellips, qism tasvirlar kompyuter xotirasida matematik formula kabi geometrik abstraksiyalar ko‘rinishda saqlanadi. Masalan, aylana shaklini kodlashtirish uchun, u alohida piksellar ko‘rinishida bo‘lishi shart emas. Uning radiusi, markaziy nuqta koordinatalari va rangining xotirada saqlanishi yetarli bo‘ladi. To‘rtburchak uchun esa uning tomonlari uzunligi, joylashuv o‘rni va rangini xotirada saqlash lozim. Matematik formulalar yordamida turli xildagi shakllarni izohlash mumkin. Murakkab shakllarni chizishda bir nechta oddiy shakllardan foydalaniladi. Masalan, burchaklari yoysimon bo‘lgan to‘rtburchak shaklni qora rangda bo‘yaymiz, unga uchta oqdag to‘rtburchak va birta qora rangdagi to‘rtburchak shaklni qo‘shib uch dyumli disketa rasmini hosil qilish mumkin.



Bir necha qismdan iborat vektor tasvir.

Vektor formatdagi barcha ko‘rinishlar bir necha qismlardan iborat bo‘lib, ularni bir-biriga bog‘liqsiz holda o‘zgartirish mumkin. Ushbu qismlar ob`ekt deb nomlanib, bir necha ob`ektlar yordamida yangi ob`ekt yaratiladi. Buning natijasida ob`ektlar yanada murakkab ko‘rinishga ega bo‘lish holati kuzatiladi. Har bir ob`ektda ularning kattaligi, egriligi va joylashuv o‘rnining qiymatlari orqali beriladi. Shu sababli, tasvir ko‘rinishlarini oddiy matematik amallar yordamida o‘zgartirish imkoniyati yaratiladi. Vektorli grafikani qo‘llaganda, ob`ekt hajmining juda ham kichik yoki aksincha, juda ham katta kenglikda bo‘lishi inobatga olinmaydi. Ikki holda ham rasm bilan ishlash bir xil kechadi. Xohlagan paytda

tasvir sifatini o'zgartirmay turib, uni kattalashtirish yoki kichraytirish imkoniyati mavjud. Vektorli usulda kodlashtirishning muhim ahamiyati grafik faylning hajmi rastrli grafiklar fayllari hajmiga nisbatan sezilarli darajada kichikligidir. Biroq, vektorli grafikaning kamchilik tomonlari ham mavjud. Birinchidan, hosil qilinayotgan tasvirning shartliligi, ya'ni tasvirlar formulalar yordamida qurilgan egri chiziqlardan iborat bo'lganligi sababli, haqiqiy tasvirni hosil qilish juda mushkuldir.


Shuning uchun vektorli grafikani tasvirlarni kodlashtirishda qo'llab bo'lmaydi. Agar tasvirni izohlash lozim bo'lsa, olingan fayl hajmi rastrli grafika fayli hajmiga nisbatan ancha katta bo'ladi. Vektorli grafika fayllarini qurishga bag'ishlangan dasturiy vosita sifatida juda keng tarqalgan CorelDRAW dasturini keltiramiz.

CorelDRAW dasturining ishchi oynasi boshqa grafik muharrirlar oynasiga o'xshashdir. CorelDRAW dasturi ishga tushirilganda ekranda dasturning boshlang'ich muloqot oynasi hosil bo'ladi. Bu rejimni oldindan bekor qilish ham mumkin. Buning uchun Show this Welcome Screen at startup (Ishga tushganda oynani ko'rsatish) satridan bayroqchani olib tashlash orqali amalga oshiriladi.

Dastlab dastur ishini sozlab chiqish amalarini ko'rib o'tamiz. Agar ishchi oyna to'liq ekranni egallamagan bo'lsa, dastur sarlavhasida yoyish tugmasini bosib. Natijada ishchi oyna to'liq ekranda hosil bo'lib CorelDRAW 15 dasturi bilan ishlash yanada qulaylashadi.


Yaratilayotgan tasvir aniq ko'rinishi, boshqariluvchi elementlar ekranda joylanishi uchun ekranning ruxsat etilgan kattaligini 1024x768 nuqtalarda, eng yaxshisi 1280x1024 ni qo'llanilishi tavsiya etiladi.

CorelDRAW 15 vektor grafikasi muharririning ishchi oynasidagi asosiy elementlari bilan tanishib chiqamiz. Windows muhitida ishlovchi boshqa dasturlar kabi oynaning yuqori qismida oyna sarlavhasi va menyusi joylashgan. CorelDRAW 15 dasturida o'z interfeysini o'zgartirish imkoniyatlari kengaytirilgan.



Dasturning ishchi oynasi

Dastur oynasining markazida varaq rasmi joylashgan, u ishchi soha deb yuritiladi. Ishchi sohada va undan tashqarida tasvir chizish imkoniyati mavjud, biroq chop qilinayotganda faqat ishchi sohada chizilgan tasvir chiqariladi. Ranglarni boshqarish uchun oynaning o'ng qismida joylashgan ranglar majmuasidan foydalaniladi. Holat satrida esa muharrir bilan ishlashni engillashtiruvchi turli xildagi ma'lumotlar hosil bo'ladi. Tasvir chizishda qo'llaniladigan asosiy vositalar uskunalar panelida joylashgan. Unda joylashgan tugmalar muharrirda bajariluvchi amallarni tez bajarilishini ta'minlaydi. Xususan, Property Bar (Xususiyatlar paneli) alohida ajralib turadi. Undagi tugmalar bajarayotgan amallaringizga bog'liq holda paydo bo'ladi yoki ko'rinmaydi. Xohlagan paytda joriy holatga mos bo'lgan tugmaning xususiyatlarini uskunalar panelida topishingiz va ishchi oynaning xohlagan tomonida joylashtirish mumkin. Shu bilan birga menyu satrining ham o'rnini o'zgartirish imkoniyati mavjud. Uskunalar panelining bo'sh qismida sichqonchani o'ng tugmasini bosib, natijada yordamchi menyu (kontekst) paydo bo'ladi. Yordamchi oynadagi o'rnatilgan bayroqcha orqali uskunalar panelida qaysi bo'limlar joylashtirilganligini ko'rsatadi.




Yordamchi menyuu

Foydalanuvchi panelida joylashgan turli xildagi uskunalardan foydalanishi mumkin. Panelidagi uskunalarni birma-bir sichqoncha orqali tanlab, uning Property Bar (Xususiyat paneli)ga e'tibor bering, ularning ko'rinishi har bir uskunaga mos ravishda o'zgaradi. Shu bilan birga holat satridagi ma'lumotlar ko'rinishi ham o'zgaradi. Muharrir sozlangandan so'ng tasvir bilan ishlashingiz va turli xildagi vektor ob'ektlar yaratishingiz mumkin.

Yangi hujjatni yaratish uchun menuning Fayl

(File) va Yangi hujjat buyrug'i (New) yoki instrumentlar panelidagi maxsus tugma bosiladi. Hujjatni ochish uchun, menuning Fayl (File) va Ochish (Open) buyruglari yoki instrumentlar panelidagi maxsus tugmalar yordamida amalga oshiriladi.

CorelDRAW dasturida bir vaqtning uzida bir nechta hujjatlar bilan ishlash imkoniyatlari bor, shu bilan birga kerak bo'lmagan hujjatlarni yopib qo'ysa ham bo'ladi. Bu esa menuning Fayl Yopish(Close) buyrug'i erdamida amalga oshiriladi.



CorelDraw grafik muxarriri interfeysi.

CorelDraw vektorli grafikaning Windows amaliyot tizimida ishlaydigan taxirlovchi dasturlaridan biridir. Uning yordamida turli grafik ko‘rinishlarni loyixalash, foto, matn, tasvirlar ustida, ayniqsa badiiy ko‘rinishdagi kompozitsiyalarni taxirlash bilan bogliq amallarni bajarish mumkin. CorelDraw muxaririni ishga tushirish uchun CorelDraw ning belgisiga borib sichqonchani yoki Enter tugmasini bosish kerak.

CorelDraw boshqa grafik muxarrirlarga nisbatan matnlar bilan yaxshi ishlaydi, ya’ni nashriyot tizimlarida, masalan, yumoristik yoki boshqacha kitoblarni har xil turli o‘lchamdagi harflar bilan yozish mumkin. Siz o‘zingizning pasportdagi rasmingizni skanerdan o‘tkazib va CorelDraw yordamida shu rasmingizni chiroyli portretga aylantirishingiz mumkin. O‘z-o‘zidan ma’lumki bunday professional murakkab grafik muxarrirlarda, ya’ni CorelDraw ning boy uskunalari va ranglaridan foydalanib biz o‘zimiz rasm chizishimiz mumkin. CorelDraw muxaririda fayllarning kengaytmasi file.cdr ko‘rinishda bo‘ladi. Fayllarni import va eksport qilish eng yaxshi qulayliklaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yuklangandan so‘ng dastur ekranga «Xush kelibsiz COREL DRAW» muloqot oynasini chiqaradi va bir nechta variantlarni taqdim qiladi: yangi xujjat yaratish (GRAPHIC), oxirgi yaratilgan xujjatni ochish (Orep last edited), mavjud xujjatni ochish (Orep GRAPHIC), o‘qitish tizimi (COREL TUROR).

Yangi xujjatni yaratish uchun fayl (FILE) tafsiiyanomasida yangi (NEW) komandasini bajariladi. Mavjud xujjatni ochish uchun fayl tafsiiyanomasida ochish (Oren) komandasi bajariladi.


COREL DRAW dasturi bir necha xujjatlarni bir vaqtda ochish imkoniyatiga ega, u xolda shu paytda kerak bo'lmagan xujjatlarni yopish ko'zda tutilgan. Tafsiiyanoma Fayl (FILE) bo'limida yoping (Закрыт, Slose) komandasi bajarilganda aktiv xujjat yopiladi.

Dastur yuklangandan so'ng ekranda paydo dastur oynasiga foydalanuvchining interfeysi deyiladi. Interfeys inson va kompyuter orasida boglovchi bo'lib ishlash uchun panel, uskunalar, muloqot oynasi va x.k larni taklif etadi. Foydalanuvchi interfeysiga saxifa, bosh tafsiiyanoma, xujjatlarni aks ettiruvchi ishchi oynalari hamda tasvirlarni muxarrirlashni amalga oshiruvchi har xil panellar to'plami kiradi. Oynaning markazidagi katta oq maydon ishchi xudud bo'lib, u har bir xujjat uchun aloxida - aloxida ochiladi. Ekraning yuqori qismida joylashgan bosh tafsiiyanoma bo'limlari quyidagicha nomlanadi:

- Fayl (File)
- Taxrirlash (Redaktirovaniye, Edit)
- Ko'rinish (Prosmotr, View)
- Kompanovka (Layout)
- Boshqaruv (Upravleniya, Arrange)
- Effektlar (Effects)
- Nuqtaviy tasvir (Toch.izob, Vitmaps)
- Matn (Text)
- Servis (Tools)
- Oyna (Okno, Windows)
- Yordam (Pomox, Ne1r) Bu komandalarning har biri funksional jixatdan yaqin bo'lgan amallarni bajaradi, masalan: matn tafsiiyanomasi matn bilan ishlaydigan komandalardan iborat, effekt tafsiiyanomasi nuqtaviy va vektorli grafikani yaratadigan komandalar to'plamidan iborat.

Xossalar qatori (Property Var).

Xossalar qatoridagi (Property Var) maydonlar va tugmalar to'plami ishlatilayotgan asbob yoki belgilangan ob'ekt turiga bog'liq xolda



ko'rinishga ega bo'ladi, masalan, matn blokka olinganda xossalar qatorida matn parametrlari aks etadi.

SOREL DRAW ob'ektlar belgilanmagan xolatda xossalar qatorida (Property Var) xujjatning umumiy parametrlari beriladi, masalan: varaqning formati, joylashuvi va boshqalar.


Xolat qatori (Status Var).

Ishchi ekranning pastki qismida xolat qatori (Status Var) joylashgan bo'lib turli xil xizmat ma'lumotlarini aks ettiradi: parametrlar, obvodka va ranglar, harf parametrlari ajratilgan ob'ektlar xakida ma'lumot va faol uskunalar haqida ma'lumot. Bu qatorning, ko'rinishi holati va tarkibini o'zgartirish mumkin.

Dastur ishga tushirilgandan keyin ekranda dastur oynasi nomayen bo'ladi, bu oyna foydalanuvchi interfeysi (user interface) yoki ishchi joyi (workspace) deb ataladi.

Interfeys foydalanuvchi va komputer orasidagi mulaqotni o'rnatadi, ishlash uchun kerak bo'lgan barcha sharoitni yaratadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, interfeys foydalanuvshi tomonidan uzgartilgan bo'lib o'z ko'rinishidan o'zgacha bo'lishi ham mumkin.




Foydalanuvchi interfeysi quyidagilardan tashkil topadi: sarlavha, bosh menu, hujjarlarni ko‘rish ushun ishchi oynalar, tasvirlarni redaktorlash ushun bir nechta panellar yigindisidan.

Oynaning markazidagi katta bo‘sh joy *ish joyi* deb nomlanib har bir hujjat uchun yangi ochiladi.

Bosh menu Ekranning yuqorigi qismida bosh menu buyruqlari (menu bar) joylashgan bo‘lib u quyidagilardan tashkil topadi:

- **Fail (File)**
- **Rastrli tasvirlar(Bitmaps)**
- **Muharirlash (Edit)**
- **Matn (Text)**
- **Ko‘rish (View)**
- **Servis (Tools)**
- **Kompanovkalash (Layout)**
- **Oyna (Window)**
- **Boshqarish (Arrange)**
- **Yordam (Help)**
- **Effektlar (Effects)**



Har bir guruh bir–biriga yaqin amallarni bajaruvchi buyruqlar yigindisi, masalan, Menu Matn (Text) matnlar ustida amallar bajaradigan buyruqlar, Menu Effektlar (Effects) – vektorli va rastri grafikalar uchun har xil effektlar qilish va muharrirlashda foydalaniladigan buyruqlardan tashkil topgan.

Shu bilan birga qo‘shimcha menu (Context-sensitive menyu)da kiritilgan bu menyu vazifasi joriy bo‘lgan instrumentning ob`ektlari haqida malumot beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. CorelDRAW dasturida xotiraga saqlash usullari?
2. SRT CDR, TIFF, JPEG, PICT format turlari?
3. Chizg‘ichni joylashtirish va ulardan foydalanish qanday amalga oshiriladi?
4. Coreldraw muharririning ishchi oynasi elementlari?
5. Status Var - tushunchasi


1.5. CORELDRAW DASTURI O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI VA UNI IMKONIYATLARI

Asosiy savollar:


1. Xossalar paneli.
2. Ranglar palitrasi.
3. Instrumentlar qatori.
4. Konteksli menyu va dokerlar.
5. CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash.
6. Chizg‘ishni joylashtirish va ulardan foydalanish.
7. CorelDraw dasturida hujjatlarni xotiraga saqlashning bir nechta usullari.

Tayanch soʻzlar: Menyu satri tagida asboblar satri, Svoystva (Property Bar) vositalar satri, Asboblar paneli (Toolbox), Rang palitrasi, Docker tipidagi panel, CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash, Embed Fonts using TrueDoc.

Xossalar asboblar qatoridagi (Property Bar) maydonlar va tugmalar toʻplami, ishlatilayotgan asbob yoki belgilangan obʻekt turiga bogʻliq holda



Ekrandagi ishchi oynaning pastgi qismida holat satri (Status Bar) joylashgan, bu qatarda obyektlar haqida maʼlumotlar beriladi, yoki quyidagi parametrlar: obvodki i zalivki, parametrov shrift turi, tanlangan obyekt haqida maʼlumot va joriy asboblar haqida maʼlumotlar. Holat satrining koʻrinishi va tuzilishini oʻzgartirish ham mumkin.



Koʻrinishga ega boʻladi, masalan, matn blokka olinganda xossalar katorida matn parametrlari aks etadi. COREL DRAW Obʻektlar belgilanmagan holatda xossalar qatorida (Property Bar) xujjatning umumiy parametrlari beriladi, masalan: varaqning formati, joylashuvi va boshqalar. **Xolat qatori (Status Var)**

Ishchi ekranning pastki qismida xolat qatori (Status Var) joylashgan boʻlib turli xil



xizmat maʼlumotlarini aks

ettiradi: parametrlar, obvodka va ranglar, xarf parametrlari ajratilgan obʻektlar haqida maʼlumot va aktiv asboblar haqida maʼlumot. Bu qatorning, kurinishi holati va tarkibini oʻzgartirish mumkin.

Vositalar satrlari

Menyu satri tagida asboblar satri (Toolbars) joylashgan. Asboblar satrini ekranning xohlagan joyida va har xil koʻrinishda joylashtirish mumkin.

Ekranga kerakli oynalarni joriy qilish uchun menuning Oyna (Window) yordamida amalga oshiriladi va ular ustida quyidagi amallar bajariladi: Asboblar (Toolbars) satriga sichqonchani o'ng tononi bilan chertib muloqat oynasini paydo etamiz va Parametrlar (Options), Rostlash dan kerakli bo'lgan asboblar tanlanadi.

Svoystva (Property Bar) vositalar satri




Svoystva (Property Bar) asboblar satridagi maydonlar va tugmalar yig'indisi foydalanilayotgan asboblar yoki tanlangan obyektga bogliq bo'ladi, masalan, asboblar satridagi matn bloki tanlanganda matnning parametrlari ko'rsatiladi.

Svoystva (Property Bar) satridagi asboblardan birontasi tanlanmagan holda hujjatning umumiy parametrlari ko'rsatiladi, masalan, sahifa formati, uning orientatsiyasi va h. ko'rsatadi.



Asboblar paneli (Toolbox)

Asboblar paneli ishchi oynaning chap tomoniga joylashtirilgan bo'ladi. Asoblar panelida grafik obyekt ustida quyidagi amallar bajariladi – obyektlarni yaratish, obyektlarni ajratish, muharrirlash va ko'chrish asboblari joylashtirilgan. Asboblar bilan ishlash paytida kursor tanlangan obyektga qarab formasini o'zgartiradi. Shu bilan birga, asboblar panelidagi bazi bir asboblar guruhini «Suzuvchi» panel ko'rinishida yoki Flyout ko'rinishida sozlash mumkin.



Rang palitrasi

Elektron rang palitrasi kompyuter grafikasida qo'llanilishi bo'yicha rassom palitrasiga o'xshash, ya'ni u o'zida ko'p ranglarni saqlaydi. Elektron palitra tarkibi bir rangni o'zida saqlaydigan yacheykalardan iborat. Palitra aniq bir rang modulmi qo'llaydi. Uning ranglari esa bu modul asosida yaratilgan ranglardan iborat bo'ladi.

Internet tarmog'i uchun yaratilayotgan tasvirlarda xavfsiz palitralardan foydalaniladi. Chunki yaratilayotgan grafik ma'lumot minimal hajmda va tarmoqdagi qurilmalarda tasvir o'z aslini yo'qotmasligi zarur. Shuning uchun xavfsiz palitra 216 rangni o'zida saqlaydi.

Rangni inson, miyasida yorug'lik oqimini tahlil qilish natijasida anglaydi.

Yorug'lik oqimi 3 spektral ranglar (Q, Y, K — qizil, yashil, ko'k) kombinatsiyalarining tarqalishidan hosil bo'ladi.

Kompyuter grafikasida rang ma'lumot tushunarligini oshirish uchun vositadir. Rangni boshqarish sistemalari. Kompyuter grafikasining elementlarini yaratish va qayta ishlashda grafik ma'lumotlarning har xil qurilmalarda asl holatda bo'lishligi talab etiladi. Kompyuter grafikasining qayta ishlash pog'onalarida ranglarning mos tushishini rangni boshqarish sistemalari nazorat qiladi. Bunday tizimlardan biri CMS (Color Management System)dir.

Profil. Har bir qurilma o'zining ichki imkoniyatlariga qarab o'z usulida rang chiqaradi. Turli xil qurilmalarda ranglarning mosligini ta'minlash uchun ular o'zining profiliga ega bo'lishi kerak.

Kalibrovka. Har xil platforma, qurilma va dasturlarda rangni bir xilda boshqarish sistemasi mavjud emas. Lekin bu turdagi sistemalarga CMS yaqin hisoblanadi. Ilk bor Solerunc nomi ostida CMS ni Apple firmasi operatsion sistemaga kiritdi. U Macintosh kompyuterlari sferasida nashrga tayyorlash, nashr qilish va poligrafiyada muvaffaqiyatli xizmat qildi. Windows 95/98 operatsion sistemalarida Kodak firmasining Color Matchung Module nomi ostida CMS tizimlari ishlatiladi. Kompyuter grafikasida rangli ruxsat etish tushunchasi qabul qilingan (rang chuqurligi). Monitor ekranida uni hosil qilish uchun rangli

informatsiyani kodlashtirish usulidan foydalaniladi. Oq-qora tasvirni aks ettirish uchun ikki bit razryad yetarli. Sakkiz razryadli kodlashtirish 256 turdagi ranglar jilosini aks ettirishga imkoniyat beradi. Ikki bayt (16 bit) 65536 turdagi ranglar jilosini ifodalaydi (bunday rejim — High Color). Yigirma to‘rt razryadli kodlashtirish usulida 16 777 216 ta rangni ifodalash mumkin.

Amaliy nuqtayi nazardan monitoring rangli ruxsat etish tushunchasi rangli qamrab olishni anglatadi. Bu o‘z navbatida chiqarish qurilma (monitor, printer va hokazo)larida ranglar diapazonini hosil qilishni belgilaydi. Rangli modul deb additiv va subtraktiv metodlar yordamida ishlangan ranglar jilosi tarkibiy komponentlarining bo‘linish usullariga aytiladi. Kompyuter grafikasida asosan RGB, HSB va CMYK rang modullari qo‘llaniladi. Rangli modullar uch o‘lchovli koordinatalar sistemasida joylashadi va ranglar fazosini tashkil qilib, Grossman qonunlariga binoan rangni uch o‘lchovli fazodagi nuqta sifatida ifodalashi mumkin. Grossmanning birinchi qonuni. Chiziqli bog‘liq bo‘lmagan har qanday rangni uchta tashkil etuvchi orqali bir qiymatli ifodalash mumkin. Chiziqli bog‘liq bo‘lmaslik — bu ixtiyoriy uch rangdan ikkitasini qo‘shish orqali uchinchisini hosil qilish imkoniyati mavjud emas. Grossmanning ikkinchi qonuni. Agar ranglar uzluksiz o‘zgarsa, ranglar aralashmasining nurlanishi ham uzluksiz o‘zgaradi. Hech qanday rang yo‘qki, unga yaqin bo‘lgan rangni tanlash imkoniyati mavjud bo‘lmasa. Grossmanning uchinchi qonuni. Ranglar aralashmasining nurlanishi ularning rangiga bog‘liq, biroq uning spektr tarkibiga bog‘liq emas.

Docker tipidagi panel

Docker tipidagi panel mulohat oyna ko‘rinishida bo‘ladi. Bu panellar har doim ekranda mavjud bo‘ladi va ishchi oyna yonida joylashadi. Ekranga kerakli bo‘lgan panelni chaqirish uchun menuning Oyna (Window) va Docker (Dockers...) tipidagi panel buyrigi va ochilgan ruyxatdagi panellardan bittasi tanlanadi.


- Object Manager paneli (Dispatcher ob’ektov) — obyektning parametrlarini tasvirlaydi, obyekt erarhiya va qatlamlarini boshqaradi.

- View Manager paneli (Dispatcher vidov) — «tasvir ko‘rinshlari» tasvirlaydi va boshqaradi.
- Graphic and Text Styles paneli (Stili teksta i grafiki) — grafik va matnli stillarini yaratadi va o‘zgartiradi.
- Color Styles paneli (Svetovo‘e stili) — obyektlar bilan ishlashda ranglarni tanlaydi va ular ustida amallar bajaradi.
- Symbols and Special Characters paneli (Simvolov i spetsialno‘e znaki) - mavjud bo‘lmagan belgilarni tasvirlashda foydalaniladi.
- Internet Bookmark Manager paneli (Dispatcher zakladok Internet) — gipermatnlarni boshqarish va yaratishda ishlatiladi.
- HTML Object Conflict paneli (Analizator konfliktov ob‘ektov HTML) – Internetda nashr etishdan avval hujjatlarni to‘g‘riligi tekshiradi va noto‘g‘rilarini tuzatadi.
- Script and Preset Manager paneli (Dispatcher makrosov i gotovo‘x obrazsov) — makrodasturlarni oyzishda foydalaniladi.
- Object Data paneli (malumotlar jamgarmasi) — har bir obyektga jadvaldagi malumotlar berkitiladi, masalan, narhi, o‘lchami va h.malumotlar
- Object Properties paneli (Svoystva ob‘ektov) — hujjatdagi obyektlarning barcha parametrlarini haqida malumot beradi va uzgarish kiritadi.
- Link Manager paneli (Dispatcher svyazanno‘x izobrajeniy) — hujjatda mavjud emas faqat u bilan bog‘langan tasvirlarni boshqarish.
- Bitmap Color Mask paneli (Svetovaya maska tochechnogo izobrajeniya) – rastri tasvirlar bilan ishlashda ranglar maskasini yaratish.
- Lens paneli (Linza) — linza turini tanlash va uning parametrlarini o‘rnatish.
- Artistic Media paneli (Imitatsiya) — vektorli qalamning murakkab turlari bilan ishlash.
- Transformation paneli (Transformirovaniye) — obyektlarni siljitishning har xil turlari bilan ishlash.

- Shaping paneli (Izmeneniye formo‘) — bir nechta obyektlarni uch hil ko‘rinishda biriktirish.
- Color (Svet) va Color Palette Browser (Svetovo‘e palitro‘) panellari — ranglar bilan ishlash.
- Browse (Obzor) paneli — hujjatlarni boshqarish va ularni har hil ko‘rinishlarda ko‘rish.
- Cliparts (Vektorno‘e izobrajeniya), Photos (Fotografii), 3Dmodels (Trexmerno‘e modeli) panellari — dastur bilan birgalikda o‘rnatilgan kompakt disklar bilan ishlash (CD-ROM).
- FTP Sites (Sayto‘ FTP) paneli — FTP saytlarini saqlash va katta massivli malumotlarni ko‘chirish uchun ular bilan tez bog‘lanish.


Agarda yuqorida ko‘rsatilgan menuda qandaydir buyruq bo‘lmasa u holda menuning (Menu) Parametrlar (Options) yordamida qo‘shish mumkin.

Interfeysni saqlash va o‘zgartirish



CorelDRAW dasturi interfeysini foydalanuvchi o‘zi xohlaganday qilib rostdash va uni xotiraga saqlash imkoniyati bor.

Uning uchun quyidagi amallar bajariladi: Menuning (Tools) dan Optsii... (Options) buyruq tanlanadi va ochilgan dialog oynasidan Interfeys (Workspace) tanlanadi Yangi... (New) tugmasi ekranga Yangi interfiysni (New Workspace) chiqaradi. Yangi interfiysni (New Workspace)da interfeysning yangi parametrlarini kiritish uchun foydalaniladi; masalan, Nomi-maydonida-yangi




interfeys nomi (Name of new workspace). kiritiladi va yangi interfeysni joriy qilish uchun belgi (Set as current) qo'yiladi

CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash.

CorelDRAW dasturida hujjatlarni xotiraga bir-nechta usul bilan saqlash mumkin. Menyuning Fayl (File) va Saqlash (Save) buyrug'i yordamida joriy hujjatni joriy jildga saqlaydi. Bu amal asboblar panelidagi maxsus tugma yordamida ham amalga oshiriladi. Soxranit kak ... (Save As) buyrug'i esa joriy hujjatni boshqa nom va boshqa jildga va boshqacha formatda saqlash imkoniyatini beradi. Bu amalni bajarilganda va yangi hujjatni xotiraga saqlaganda ekranga Tasvirni saqlash (Save Drawing) ni beradi.

Versiya (Version) ro'yxatidan CorelDRAW dasturining avvalgi variantlaridan birini yoki yangi variantini tanlab hujjatni mos formatda xotiraga saqlaydi.

Faqat dasturning eski variantlarida hujjatlarni saqlaganda bir nechta parametrlar yo'qolib ketishini esda tutish lozim.



Thumbnail ro‘yxatida xotiraga saqlashning bir-nechta variantlarini beradi:

- hujjatlarni o‘lchamini bir qancha kichik qilib berish ham mumkin, faqat keyinchalik fayllarni qidirganda qiyinchilik tug‘diradi. 1K (mono), 2K (mono), 4K (color), 8K (color) oq-qora yoki rangli tasvirlarni har xil sifatda xotiraga saqlasa bo‘ladi. Agarda hech biri tanlanmagan bo‘lsa, u holda maksimal sifatli tasvirli hujjat xotiraga saqlanadi.

- Selected only (Faqat tanlangan obyektlar) tanlanganda yangi faylga ajratilgan obyektlar saqlanadi, shu bilan birga boshqa faylga obyektning alohida qismini ham saqlash mumkin.


- ICC profile (ICC profilini joylashtirish) hujjatdagi ranglarni boshqarish. Dastur faqat SRT CDR, TIFF, JPEG, PICT va EPS formatli fayllar bilan ishlaganda ishlaydi.

- No white spaces, special characters (Bosh joy va maxsus belgilarisiz) belgisi hujjatni xotiraga saqlaganda bo‘sh joy tagini chizish bilan, maxsus belgilarni Web standartidagi belgilar bilan almashtiradi.

- Embed Fonts using TrueDoc (Shriftlarni TrueDocdan foydalanib yozish) hujjatda TrueDoc texnologiyasini foydalangani haqida malumot beriladi.

- Keywords (kalit so‘zlar) i Notes (Tuchunsha berish) hujjatlarni tez topish uchun ularga tuchintirish so‘zlari yoziladi.

- Advanced tugmasi... (Quchimcha) ekranga Save (saqlash) dialog oynasini va Options (parametrlar), parametrlari o'rnatilgan bo'ladi.
- Save presentation exchange (Boshqa redaktorlar formatlida saqlash) CMX formatda ishlaydigan boshqa redaktorlarda faylni ochich. Buni ishga tushirganda faylning o'lchami katta bo'ladi.




- Use current thumbnail (Ispolzovat suhestvuyuhuyu miniatyuru) birinchi saqlaganda rastrlangan hujjatni miniatyura yordamida saqlashni t'aminlayda. Bu faylni saqlashga mo'ljlanlangan vaqtni m'alum miqdorida kamaytiradi, ammo xatolikka olib kelishi mumkin, agarda hujjat ko'p qayta ishlangan bo'lsa.
- File optimization maydonida (faylni optimallashtitish) ikki xil turdagi fayllarni saqlaydi, rastr tasvirli (Use bitmap compression) va vektor tasvirli (flajok Use graphic object compression) faylning o'lchamini kichik qiladi.
- Textures maydoni (Teksturno'e zalivki) va Blends and extrudes («Poshagovo'y perexod» i «Ekstrudirovaniye») tarkibiga qaraganda bir xil:
 - Save ... with the file (fayl bilan saqlash) fayl o'lchami katta bo'ladi faqat hujjat o'qilganda tez vaqtda ochiladi;
 - Rebuild ... when opening the file (Postroit ... pri otkro'tii fayla) — yuqaridagiga teskari faylni o'qishda ko'p vaqt talab etadi, o'lchami katta bo'ladi.

Hujjatli oynani kontekstli menyu yordamida yaratilgan tasvir masshtabi hosil qilish.

Vektor grafikasi muharrirlarida ekranda (ishchi maydonda) qanday tasvirlar bo'lsa bosmadan shu ko'rinishda chiqariladi. Ekrandagi ishchi oynada tayyor bo'lgan tasvirlarni ko'rish uchun menyuning Ko'rish (View) dan foydalaniladi. Dasturda besh xilda ko'rinishda ko'rish mumkin.: Oddiy konturli (Simple Wireframe), Konturli (Wireframe), Chernovoy (Draft), Normal (Normal), Yaxsh (Enhanced).

Agarda hech biri tanlanmasa u holda normal (Normal) holatini komputer uzi tanlaydi.

Ekranni masshtablash



krandagi tayyor bo'lgan rasmlarni katta va kichik hollarda ko'rish funktsyalari mavjud. Uning uchun asboblar panelidagi (Toolbox) Mashtab (Zoom) tanlanib kattalashtirish yoki kichiklashtirish parametri ko'rsatiladi.

Standart asboblar panelida masshtablash parametrlari berilgan va ular quyidagilar: Ajratilgan obyektlar (To

Selected), hamma obyektlar (To

Fit), Sahifa (To Page), Sahifa eni boyicha (To Width), Sahifa boyi boyicha

(To Height), 10%, 25%, 50%, 75%, 100%, 200%, 400% ga masshtablashga bo'ladi.

Ekrandagi tasvirlar kattalashtirilganda hujjatdagi ko‘rinmaydigan ob`ektlar bilan ishlashga to‘g‘ri kelib qoladi u holda shu ob`ektlarni siljitishga to‘g‘ri keladi. Buning uchun quyidagi ikkita imkoniyatlardan foydalanilsa bo‘ladi:

3. vertikal va gorizontal silzitgishlardan.


4. Maxsus asbob Panoramadan (Pan). Bu holda ekrandagi kursor qo‘l shaklini oladi va obyektни xohlagan tomonga siljitish mumkin. **Chizg‘ichni joylashtirish va ulardan foydalanish.**

Chizg‘ich ekranda ko‘rinib turadi agarda u yoq bo‘lsa menuning Ko‘rish (View) tanlanib Chizgich (Rulers) buyrug‘i ishga tushirish kerak bo‘ladi, ikkinchi marta bu amal bajarilsa ekrandan chizgish olib tashlanadi.

Chizgichni ekranning hoqlagan joyoga qo‘yish mumkin. Bu uchun <Shift> tugmasi bilan birgalikda sichqoncha bilan olib hoqlagan joyga qoysa bu‘ladi. Agarda <Shift> tugmasi bilan birgalikda chizgishga ikki marta sichqoncha bilan chertilsa avvalgi holiga qaytariladi.

Agarda <Shift> tugmasisiz ikki marta chertilsa u holda chizgishning (Rulers) Parametrlari (Options) ekranda nomayon bo‘ladi.


CorelDRAW dasturidagi chizgish har xil ulchob birliklarida beriladi O‘lchov birliklari (Units) qoyidagilar iborat:



- inches (dyumlar), 1 (ingliz) dyumi 24,5 mm teng;
- millimeters (millimetrlar);
- picas; points (pikalar), 1 pika 12 punktga teng;

- points (punktlar), 1 punkt 1G‘72 engiz dyumiga teng (24,5 mm);
- pixels (pixellar), nisbiy ulchov birlik (absolyut qiymatga ega emas);
- ciceros; didots (tsitsero), 1 tsitsero 12 punktga teng;
- didots (Dido punktlari), 1 Dido punkti 1G‘72 farang dyumiga teng (27,06 mm);
- feet (futlar), 1 fut 304,8 mm ga teng;
- yards (yardlar), 1 yard 914,4 mm ga teng;
- miles (milar), 1 mil 1609 m ga teng;
- centimeters (santimetrlar);
- meters (metrlar);
- kilometers (kilometrlar).

Hujjatning umumiy ish maydoni 45 x 45 metrga teng. Bu esa dasturdan ko‘rgazmalar va katta hajmli ob`ektlar bilan ishlaganda juda qo‘l keladi



Sahifalarning parametrlari

Ekrandagi hujjatning sahifa formati to‘griturtburchak shaklidagi ko‘rinishda bo‘ladi. Agarda sahifa formatini o‘zgartirmoqchi bo‘lsangiz Svoystva (Property Bar) foydalansa bo‘ladi.

Agarda Kitob (Portrait) tanlansangiz hujjatning bo‘yi buyicha ko‘rinishda , Albom (Landscape)ni tanlansangiz hujjatning eni buyicha ko‘rinishda sahifalaydi.

Yuqoridagi sahifalashning o'lchamlarni bosmadan chiqariladigan paytdagi bilan chalkashtirmaslik kerak.



Agar tayor bo'lgan hujjatni bosmadan chiqarmoqchi bo'lsangiz menuning Ko'rish (View) tanlanib bosmaga chiqishi kerak bo'lgan maydon tanlanadi (Printable Area), va ekranda shtrix chiziqlar bilan bosmaga chiqadigan maydon chegaralangan bo'ladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xossalar paneli tushunchasi?
2. Ranglar palitrasi?
3. Instrumentlar qatori va turlari?
4. Konteksli menyu va dokerlar?
5. CorelDraw grafik dasturida hujjatlar oynasi bilan ishlash usullari?
6. Chizg'ishni joylashtirish va ulardan foydalanish amllari?.
7. CorelDraw dasturida hujjatlarni xotiraga saqlashning usullari?.

1.6. 3DS-MAX DASTURIGA KIRISH.

Asosiy savollar:

1. 3D Studio MAX dasturi haqida tushuncha
2. Foydalanuvchi interfeysi haqida ma'lumot
3. 3D MAX dasturida ob'ektlar tushunchalari

4. Yoritishni tashkil etish

Tayanch soʻzlar: Foydalanuvchi interfeysi, *3D MAX dasturida ob'ektlar*, File (Файл), Edit (Правка)-tahrirlash, Tools (Сервис), Group, Views, Great (Создать)-yaratish, Modifiers, Animation, GrafEditor, Rendering (Визуализация)-vizuallash, Customize, MAXScript, Help(Помощь).

3D Studio MAX uch oʻlchovli modellashtirish va koʻrgazmali namoyish qilishning (vizualizasiya) yangicha bosqichi hisoblanadi. Bu dastur yordamida yuqori sifatli animasiya va uch oʻlchovli modellarni professional darajada yaratish mumkin. Bunda siz ikki oʻlchovli va uch oʻlchovli ob'ektlarni qoʻllashingiz mumkin. Bu dastur yordamida yuqori sifatli multiplikasion filmlar, maʼlum fanlar boʻyicha koʻrgazmali dasturlar tuzish mumkin.

3D Studio MAX da ob'ektlarni qurish maydoni (viewport)da yaratasiz. Buning uchun siz kerakli asbobni tanlab, kursorni qurish maydoniga keltirganingizda kursor shakli oʻzgaradi. Sichqoncha yordamida ob'ektning oʻlchovlarini berasiz.

Yaratilgan ob'ektlarda kino effektlar yaratish uchun maxsus kamera va yoritgich asboblarini qoʻllashingiz mumkin. Ob'ekt sirti uchun turli material tanlashingiz mumkin, ya'ni unga masalan shaffof yoki gʻadir-budir sirt berishingiz mumkin boʻladi. Qurish maydonida yaratilgan ob'ektlarni harakatlantirib, kichik animasiya hosil qilish mumkin. Buning uchun {Animasiya} tugmasini bosib, kadrlarni oʻzgartirgan holda ob'ektни harakatlantirish bilan oxirgi kadrğa kelinadi. Soʻngra animasiya panelidan {Play} tugmasi bosiladi. Natijada kadrlar almashinib, animasiya hosil boʻladi. Bu yaratilgan animasiyani fayl koʻrinishida komp'yuter xotirasida saqlash va istalgan video tasvirlarni oʻqiy oladigan dastur yordamida oʻqishimiz mumkin. Fayl *.avi kengaytmali formatda saqlanadi.

Foydalanuvchi interfeysi haqida maʼlumot

Birinchi navbatda siz 3DsMax dasturini ishga tushirganda uning asosiy ekraniga koʻzingiz tushishi mumkin. Agar siz yangi foydalanuvchi interfeysini

bilmaydigan bo'lsangiz, unda dastlab qurilmalarini ko'rib chiqishingiz hamda ular bilan atroflicha tanishishingiz lozim.

Siz interfeysning dastur elementlardan tashkil topganligini, ya'ni, bir xil turdagi buyruqlarni guruhlanganligini ko'ring va ishonch hosil qiling. Masalan, o'z vaqtida ob'yektlar holatini sozlash va boshqarishni amalga oshirish tugmachasi jamlanmasi yordamida animasiyani amalga oshirish jarayonini boshqarish vositasi. Dastur ekranini shartli tarzda beshta asosiy elementlarga ajratish mumkin:

Main menu (Bosh menyu). Dastur ekranining yuqori qismda joylashgan va bu menyu 3DsMax dasturiga asosiy buyruqlar bilan murojaat qilishni ta'minlaydi. Barcha buyruqlar menyusi toifalar bo'yicha birlashtirilgan. Dastur ishga tushirilganidan so'ng 3Ds Max grafik redaktorning ishchi oynasi ochiladi. Bosh menu quyidagi menyularidan iboratdir File (Файл), Edit (Правка)-tahrirlash, Tools (Сервис), Group, Views, Create (Создать)-yaratish, Modifiers, Animation, GrafEditor, Rendering (Визуализация)-vizuallash, Customize, MAXScript, Help(Помощь)-yordam.

Main Toolbar (Qurilmalar bosh paneli). Odatda u bosh menyu ostida joylashadi, ammo "suzuvchi" panel ko'rinishida aks ettirilishi yoki ekranning boshqa joyida joylashishi ham mumkin. Toifalar bo'yicha ajratilgan, to'plam bilan birga qurilmalar tarkibida joylashgan yoki yakka bo'lishi mumkin. Dastur amallari va qo'llanuvchi buyruqlar tezkor murojaatlar tugmachasidan tashkil topadi.


Viewports (proyeksiya ekrani) ekranning markazida joylashgan va uning katta qismini egallaydi. To'rtta ajratilgan ko'rinishda devor proyeksiyasi - yuqori Tor (yuqori), yonbosh Left (chap), to'g'risidan yo'naltirilgan Front (ro'parasidan) va kelajakda rivojlanishni ko'zda tutadigan Perspective (istiqbolli).

Command Panel (buyruqlar paneli). Odatda ekran proyeksiyasining o'ng tomonida joylashgan. Bu panel oltita to'plamdan tashkil topgan va devor ob'yektlarini modifikatsiyalash va tashkil etish bo'yicha amallarning bajarilishini ta'minlaydi. Har bir to'plam ob'yektlarni sozlovchi sivatmadan tashkil topgan.

Lower Interface Bar (Interfeysning quyi qatori) Dastur oynasining quyi qismida joylashgan. Turli maydon va tugmachalardan tashkil topgan, uning

tarkibiga maydonning aks etish holati va ma'lumotnoma (spravochnik) kiradi, shu bilan birga animasiyalarni qayta tiklash va boshqaruv oynasi proyeksiyasi uchun tugmalar to'plami ham mavjud.

Dastlab, ishni 3Ds Max dasturini atroflicha o'rganib chiqishdan boshlasak, avval dastur yordamida ob'jekt ko'rinishda asosiy maqbul ishlarni amalga oshirish: sodda primitivlarini tuzish, ob'yektlarni belgilash, ularning bir-biriga o'zaro tekislash, proyeksiya oynasidagi aks etish holati va joylashishi, ularni o'zgartirish, ma'lum masshtabga keltirish, o'zgartirish va aylantirish mumkin.



Bu oddiy amallar 3Ds Max dasturining keyingi asosiy faoliyatiga xizmat qiladi. Haqiqiy hayotda juda ko'p ob'yektlar o'zida oddiy uch o'lchovli qo'llanmalar amallarini o'zida aks ettirgan. Masalan, stol parallelepipeddan tashkil topgan, stol lampasi esa – silindr va yarim shakldan, avtomobil balloni esa – boshqa yuqoridagilarga o'xshamagan shakllardan tashkil topgan. Katta va kichik darajadagi barcha ko'rgazmalarda amalda uch o'lchovli virtual joylashuv shartlari qo'llanilib kelinmoqda. 3DsMax dasturi standart ob'yektlari o'zida “qurilish materiallar”ini tashkil etgani uchun ular yordamida turli ko'rinishlar tashkil etishga ko'maklashadi.

3D MAX dasturida ob'ektlar tushunchalari

Geometrik ob'ektlar. Geometrik ob'ektlarni ko'rishda juda kuchli va keng tarqalgan 3D paket Discreet kompaniyasi 3D Studio Max dasturini tanlab uning misolida ob'ektlarning asosiy turlari va modellashtirish texnologiyasini ko'rib o'tamiz. Bu dastur yordamida geometrik ob'ektlarning quyidagi turlari qurilishi mumkin. Splayn chiziqlar (Spline Curves) - boshqa sirt yoki shakllarni ko'rishda ishlatiladigan va shu tartibda qurilgan (Beze yoki Nurbs) chiziqlar. Ularni harakat troyektoriyalarini ifodalash uchun ham ishlatish mumkin.




Chiziq, muloqot chiziqlari.

Masalan, Beze chiziqlari uchun, xususiy holda, boshlang'ich shakl va chiziqlar to'plami aniqlangan bo'lib (masalan, tekst, aylana, ellips) ular keyinchalik aniq shakllar ko'rishda ishlatilishi mumkin.

Poligonal ob'ektlar (polugonal objects) - bular o'zgarib turuvchi parametrlar bilan ifodalanuvchi (masalan uzunlik, radius) poligonal boshlang'ich shakllar (polygonal primitives) yoki polugonal turlardir (polugonal meshes). Poligonal turlar juft-jufti bilan uchlarni tutashtiruvchi qirralar sifatida aniqlanadi. Boshlang'ich shakllar (primitiv) ni ishlatish dizaynerga (dasturga ham) ob'ekt shaklini o'zgartirishni ancha osonlashtiradi. Shunda 3D - boshlang'ich (primitiv) shakllarni (masalan sfera yoki silindr) namoyish etishda, ularning shakli qirralar yordamida berilgan aniqlikda almashtiriladi. Poligonal d ob'ekt sirti tekis yoqlardan iborat bo'lgani uchun, ularga namoyish silliqiligini berishda turli silliqlash algoritmlari foydalaniladi. Bu texnologiya asosan 3D o'yinlarni va virtual borliqni yaratishda keng qo'llanadi.

Poligonal ob'ektlar.




Beze sirti.

Beze sirlari (Bezier patches) - bu Beze cho'qqilarining joylashishi bilan silliq sirtlardir. Bu cho'qqilar sirtga urinma vektorlar (tangent) uchlarida joylashgan qo'shimcha boshqaruvchi nuqtalar (control points) yordamida sirtning egriligini aniqlaydi.

Bu sirtlar hisoblash tizimi uchun ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirishiga qaramay, ular yordamida murakkab egri chiziqli ob'ektlarni modellashtirish mumkin.

NURBS sirtlar - bir jinsli bo'lmagan egri chiziqli sirtlarni modellashtirishda ishlatiladigan eng universal va samarali vositadir. Bunday sirtlar maxsus to'rt o'lchovli bir jinsli fazoda ifodalanadi. Unda har bir boshqaruvchi cho'qqi, uchta X, Y, Z koordinatadan tashqari qo'shimcha vazn (weight) tavsifiga ham ega. Cho'qqining o'rnini va nisbiy vaznini o'zgartirish orqali ob'ekt shaklini aniq boshqarish mumkin.



NURBS sirti.


Murakkab ob'ektlar (compound objects) - oldindan tayyorlab qo'yilgan ikki yoki undan ko'p shakllardan tuziladi. Qanday jism qurilishiga qarab oldindan tuzilgan shakllar chiziq yoki sirt bo'lishi mumkin.

Dinamik ob'ektlar (dynamic objects) - ularga qo'yilgan tashqi kuchlar ta'sirida harakatga keluvchi ob'ektlar: prujina va amortizatorlar. Ular ob'ekt harakati dinamikasini modellashtirishda ishlatiladi. Boshqa dasturlarda geometrik ob'ektlarni qurish va muharrirlashning shunga o'xshash yoki ulardan farq qiluvchi usullari qo'llaniladi.

Nogeometrik ob'ektlar. Misol sifatida 3D Studio Max dasturini ko'rishni davom ettiramiz.

Quyidagi ob'ekt turlarini qarash e'tiborga loyiq.

Yoritish manbai (light objects) tashqi va ichki yoritishni ifodalashda ishlatiladi. Turli algoritmlar yorug'lik tarqatuvchi turli manbalarni yaratadi: bir nuqtadan barcha tomonga tarqaluvchi nur; projektordagi chiquvchi fokuslangan yorug'lik; yo'naltirilgan manbadan chiquvchi yo'naltirilgan nur. Bunda manbalardan chiquvchi nur turli rangda bo'lishi, ma'lum masofadan keyin pasayishi shuningdek ob'ektlarning soyalarini hosil qilishi mumkin.




Yoritishni tashkil etish

Kameralar (cameras) - kadr tekisligida ob'ekt aksini to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Uning eng asosiy tavsifi, ko'rish maydonini aniqlovchi kamera ob'ektivining foks masofasidir. Bu ikki parametr o'zaro bog'liq va mos ravishda

gradus va millimetrlarda o'lchanadi. Yana bir muhim tavsif bu qirqim tekisligidir. U sahna qismining ko'rinish masofasini aniqlaydi.

Fazoni bukuvchilar (space warps) ob'ektlarga tashqi kuchlar ta'sirini ifodalaydi, bu - ma'lum ob'ektlarga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlar maydoni deformasiyasi, yoki ob'ekt bo'laklarini sochib yuboruvchi zarbdor to'lqinlarni keltirish mumkin.



Tana a'zolariga ajratildi

Materiallar sirtning namoyishi xususiyatlarini, ya'ni sirtning sahna yoritilganligi bilan munosabatini aniqlaydi.

Sirtlarning quyidagi xususiyatlari materiallarning yorug'lik bilan munosabatini aniqlaydi:

- rang (color);
- shaffoflik (transparency);
- sillqlik (shiness)
- nurning sinish koeffisenti (refractive index)

Rang va shaffoflik nur sochilishni aniqlaydi. Sinish koeffisenti va sillqlik yordaraida sirtan shu'lalar va nurli oynaviy qaynatish aniqlanadi.

Material rangini tanlashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

- Materialni aniq rangini aniqlash.
- Rangning to'qliq darajasi.

- Rangning yorug‘lik darajasi.

Namoyish paytida fotorealistik sifatni olish uchun material xususiyatlarini juda aniq berish kerak. Shu maqsadda grafik dasturlarda turli fikr xususiyatli materiallar andoza (shablon) lari ishlatiladi. Andozalardan foydalanish dizayner ishini keskin osonlashtiradi. Sirt yuzasiga har xil bezaklarni (uzor) tushirish uchun dasturlarda teksturali xaritalar (dekorativ bezak — maps) ishlatiladi. (Masalan devorga terilgan g‘isht, timsoh terisidan tayyorlangan buyum) . Oldindan tayyorlangan teksturalar har xil turdagi fayllarda (HMP, TIF, JPG, EPS,..) saqlanishi yoki ularni tez qurish qoidalari ko‘rinishida saqlanishi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. 3D Studio MAX dasturi qanday dastur?
2. Foydalanuvchi interfeysi?
3. 3D MAX dasturida ob‘ektlar tushunchalari?
4. Yoritishni tashkil etish va turlari?

1.7. 3DS-MAX DASTURINING QO‘SHIMCHA IMKONIYATLARI

Asosiy savollar:

1. 3D MAX dasturi va undan foydalanish
2. Berilgan yo‘l bo‘yicha harakat
3. Obyektlar bilan ishlash
4. Masshtablashtirish

Tayanch so‘zlar: Autodesk 3ds Max versiyalari, Super Spray (Супер брызги), Snow (Снег), Blizzard (Метель), Parray yoki Particle Array (Массив частиц), PCloud yoki Particle Cloud (Облака частиц), FinalRender, Kompozitsiya filtrlari turlari, Plaginlar, Fade filtra, Image Alfa filtra, Highlight (Сверкание).

3D MAX dasturi va undan foydalanish imkoniyatlari O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, ularni tayyorlash borasidagi ilmiy-uslubiy, tashkiliy (Shu jumladan lotin alifbosiga o'tish) va moliyaviy masalalarni hal qilish, uzluksiz ta'lim tizimida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» maqsadlariga erishishni ta'minlashga qaratilgan choralarni ishlab chiqishni talab qiladi. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish oldiga quydagidek talablar qo'yilgan: kadrlar tayyorlash milliy modeliga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida o'quv adabiyotlari ta'lim turlari uchun tasdiqlangan davlat ta'lim standartlari (yoki davlat talablari) va fanlar bo'yicha uzviy bog'langan o'quv dasturlari asosida tayyorlanadi. Bunda muayyan fanning o'quv adabiyotlari mazkur ta'lim turida o'qitiladigan boshqa fanlar bilan bog'liqligini va boshqa ta'lim turlarida ushbu fanning o'quv dasturlaridagi uzviylikni ta'minlashi lozim.

O'quv adabiyotlar belgilangan tartibda har tomonlama ekspertizadan o'tkaziladi har bir ta'lim turi uchun yaratilgan o'quv adabiyotlariga psixologik-pedagogik, uslubiy didaktik, sanitariya-gigienik va boshqa talablar alohida belgilab qo'yiladi; uzluksiz ta'lim tizimining barcha turlarida fundamental bilimlar bo'yicha o'quv adabiyotlari asosan an'anaviy bosma Shaklda tayyorlanadi; o'quv adabiyotlarining mazmuni bilim oluvchilarda mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlardan izlab topish ko'nikmalarini hosil qilishni ta'minlashi kerak. Elektron o'quv adabiyotlari bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirishga va chuqurlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ko'proq chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratiladi. Uzluksiz ta'lim tizimida fan va texnologiyalarning rivojlanishi sari mazmuni tez o'zgaruvchan, chuqurlashtirib o'qitiladigan, kasbiy maxsus fanlar bo'yicha asosan kam adadli elektron o'quv adabiyotlari tayyorlanadi; Elektron o'quv adabiyotlari tayyorlashga xizmat qiluvchi qator dasturiy vositalar mavjud va ular ta'lim tizimining turli bosqichlarida o'quvchi va talabalarga o'rgatilib kelinadi. Ana Shunday dasturiy vositalardan biri Autodesk 3DS MAX dasturidir.

Autodesk 3ds Max (avvalgi 3D Studio MAX) — to‘liq funktsional professional dasturiy tizim bo‘lib, uch o‘lchamli grafika va animatsiya yaratish va tahrirlash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Autodesk kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Multimedia sohasidagi mutaxassislar va rassmolar uchun eng zamonaviy vositalardan tarkib topgan. Microsoft Windows va Windows NT operatsion tizimlarida ishlaydi (32 bitli va 64-bitli). Dasturning bir qancha versiyalari ishlab chiqilgan bo‘lib eski versiyalari yangilarini to‘ldirib boradi.

Version	Codename	Year	Operating system	Hardware platform	
3D Studio Prototype	THUD	1988	MS-DOS	16-bit x86 originally 32-bit x86 using DOS extender	
3D Studio	THUD	1990			
3D Studio 2		1992			
3D Studio 3		1993			
3D Studio 4		1994			
3D Studio MAX 1.0	Jaguar	1996	Windows NT 3.51, Windows NT 4.0	IA-32	
3D Studio MAX R2	Athena	1997 ^[1]	Windows 95 and Windows NT 4.0		
3D Studio MAX R3	Shiva	1999	Windows 98, Windows ME, Windows 2000 ^[5]		
Discreet 3dsmax 4	Magma	2000	Windows 98 (only 3dsmax 5) Windows 2000 and Windows XP		
Discreet 3dsmax 5	Luna	2002			
Discreet 3dsmax 6	Granite	2003			
Discreet 3dsmax 7	Catalyst	2004			
Autodesk 3ds Max 8	Vesper	2005	Windows XP and Windows Vista		IA-32 and x64
Autodesk 3ds Max 9	Makalu	2006			
Autodesk 3ds Max 2008	Gouda	2007			
Autodesk 3ds Max 2009	Johnson	2008			
Autodesk 3ds Max 2010	Renoir	2009			
Autodesk 3ds Max 2011	Zelda	2010			
Autodesk 3ds Max 2012	Excalibur / Rampage	2011			
Autodesk 3ds Max 2013	SimCity	2012	Windows XP and Windows 7	x64	
Autodesk 3ds Max 2014	Tekken	2013	Windows 7		
Autodesk 3ds Max 2015	Elwood	2014	Windows 7 and Windows 8		
Autodesk 3ds Max 2016	Phoenix	2015	Windows 7, Windows 8 and Windows 8.1		
Autodesk 3ds Max 2017	Kirin	2016	Windows 7, Windows 8, Windows 8.1 and Windows 10		
Autodesk 3ds Max 2018	Imoogi	2017			
Autodesk 3ds Max 2019	Neptune	2018			
Autodesk 3ds Max 2020	Athena	2019			
Autodesk 3ds Max 2021	Theseus	2020	Windows 10 and Windows 11		x64
Autodesk 3ds Max 2022	Heimdall	2021			x64
Autodesk 3ds Max 2023	Vesta	2022	Windows 10 and Windows 11	x64	

2022 yil aprelda bu mahsulotning yangi versiyasi ishlab chiqildi. U «Autodesk 3ds Max 2022» deb nom oldi. Dastur C# (WPF) tilida yozilgan va Shuningdek Developer Express (DevExpress) bibliotekasi qo‘llanilgan. Autodesk

3ds Max ikkita litsenziyali versiyada ishlab chiqilgan: talabalar uchun — tekin (Autodesk saytida ro'yxatdan o'tishni talab qiladi) dastur bo'lib, dasturni to'liq versiyasini taqdim qiladi (ammo, uni daromad olish maqsadlarida qo'llash mumkin emas) va to'liq (tijorat) versiyasi mavjud. Paketning birinchi versiyasi 3D Studio DOS nomi ostida 1990 yilda ishlab chiqilgan. Paketni ishlanmalari bilan mustaqil studiya Yost Group Shug'ullanib, dasturchi Gari Yost tomonidan yaratilgan; Autodesk birinchi paytlarda faqat paket nashri bilan Shug'ullandi. Autodesk ning yangi loyihasi direktori Erik Layons (Eric Lyons) bilan Gari Yost muzokara qilgandan so'ng o'zining avvalgi ish joyini tark etgani haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Dasturning birinchi to'rtta versiyasi 3D Studio DOS (1990-1994 yillar) nomini olgan. Keyin paket yana nomini "3D Studio MAX"ga o'zgartirdi (1996-1999 yillarda). Versiyalarni nomerlash yana boshlandi. 2000—2004 yillarda paket Discreet 3dsmax markasi ostida, 2005 yildan esa— Autodesk 3ds MAX deb nomlana boshladi. Hozirda dolzarb versiya Autodesk 3ds MAX 2022 nomini olgan.

Modellashtirish

3ds Max atrofimizni qamrab olgan real dunyo va fantastik ob'ektlarning turli tuman Shakl va murakkablikdagi uch o'lchamli kompyuter modellarini yaratish uchun keng ko'lamli vositalar bilan qurollangan bo'lib, ular o'z ichiga quyidagi texnik va mexanizmlarni qo'llaydi:

✓ Mashq maydonlarini modellashtirishga Editable mesh (редактируемая Поверхность) va Editable poly (редактируемый полигон) kirib — bu modellashtirishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi.

✓ Murakkab modellar va quyi mashq maydonlari modellarini yaratish uchun qo'llaniladi.

✓ Qoida bo'yicha murakkab ob'ektlarni modellashtirish Editable poly da navbatdagi shakl o'zgartirish bilan kechib, «Box» ob'ektlarini parametrik qurish bilan boshlanadi.


Shuning uchun ham modellashtirish usuli «Box modeling» deb nomlash umum qabul qilingan; bir jinsli bo'lmagan V-splaynlar (NURBS) asosida

modellashtirish (Shuni ta'kidlash kerakki, 3ds Maxda NURBS-modellashtirish Shunchalik soddaki bunday usuldan deyarli hech kim foydalanmaydi);

- «сеток кусков» asosida modellashtirish yoki qoplam Безье (Editable patch) — aylanish tanasini modellashtirish uchun mos keladi; standart parametrik ob'ektlar
- (primitivlar) va modifikatorlar ichki kutubxonasini qo'llagan holda modellashtirish.


Splaynlar (Spline) asosida modellashtirish navbatdagi galda Surface modifikatorini qo'llash bilan – avvalgi NURBS analogi, qulay, faqat murakkab kesishuvchi Shakllar bilan ob'ektlarni yaratish uchun mo'ljallangan. Qaysiki poligonal modellashtirish usullarida yaratish qiyinroq. Modellashtirish metodlari bir-biri bilan qo'shib, aralashib ketadi. Standart ob'ektlar asosida modellashtirish. Qoida bo'yicha asosiy modellashtirish usuli hisoblanadi va murakkab tuzilmali ob'ektlarni yaratish uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi. Chunki tarkibiy ob'ektning elementar qismlari sifatida bir-birlari bilan bog'langan primitivlar qo'llagan holda.

«Чайник» (Teapot) standart ob'ekti bu to'plamga kiradi. U materiallarni va sahna yoritgichlarini sinovdan o'tkazish uchun qo'llanilib, undan tashqari allaqachon uch o'lchamli grafikaning o'ziga xos simboliga aylangan.



Particle Systems (zarracha tizimlari)

Particle Systems (Система частиц) — bu kichik o‘lchamli ob’ektlar majmui bo‘lib, qator parametrlar bo‘yicha boshqariladi. Sahnaning turli holatlardagi zarur qismi bo‘lib xizmat qiladigan elementlar borki ularni modellashtirish talab qilinadi. Ular yomg‘ir, qor, tutun, olov, yulduzli osmon, fontanning sochilishi, uchqun va boshqalar. Dasturning 8-versiyasidan boshlab turli xil namoyishlaydigan holatlar parchalarining 7 asosiy manbalari:



PF Source (Источник Particle Flow) — voqea-hodisalarning ichki Particle Flow tizimida ta’sirga javob qaytaruvchi va programmallashtirishga imkon beruvchi zarralar oqimi. Zarralarning bunday oqimi nimani kerak bo‘lsa o‘shani o‘xshatib yasash imkonini beradi. Fontan sochilishidan tortib toki raketalar dvigatellaridagi tutun izigacha modellashtirish imkonini beradi;

Spray (Брызги) — yomg‘ir tomchisiga o‘xshash suv uchquni effektining soddalashgan varianti.

Zarra Shaklini, ularning o‘lchami va tushish xarakterlarini sozlash uchun bir qancha parametrlarga ega;

Super Spray (Супер брызги) — zarralarning standart tizimlari bilan taʼyioslaganda sezilarli darajada takomillashtirilgan. Oʻzida tomchining yaratilishi, harakati va shakli uchun koʻplab parametrlarga ega. Zarralarga turli hil obʼektlar shaklini berish mumkin. Yaʼni zarur shaklni hosil qilish uchun suv tomchilari kabi oʻzaro bogʻlanish imkonini beradi;

Snow (Снег) — tushayotgan qorning oddiy effektini yaratadi va zarra Shaklini, oʻlchamini va tushish xarakterlarini sozlash uchun koʻplab parametrlarga ega;

Blizzard (Метель) — bu Snow (снег) parchasining takomillashgan versiyasi. Parchalarga turli obʼektlar Shaklini berish mumkin;

Parray yoki Particle Array (Массив частиц) — har qanday tipdagi parchani modellashtirish uchun moʻljallangan. SHuningdek portlash imitatsiyasi effektlarini takomillashtirish uchun ham qoʻllaniladi;

PCloud yoki Particle Cloud (Облака частиц) — statik bulutlar yaratish va uch oʻlchamli yulduzlar maydoniga oʻxshatib yasash uchun qoʻllash mumkin.

Undan tashqari baliqlar tudasini yoki qushlar uyumini yaratishda ham foydalanish mumkin. Qismlarga turli xil obʼektlar Shaklini berish mumkin;

Reactor
3ds Max oʻz ichiga fizik hisoblashdagi hatolik aniqlash mexanizmi Reactor ni olib, u Havok kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Reactor qattiq tanalarni, yumshoq tanalarni, gazlamalarni ogʻirlik kuchi va boshqa taʼsirlarni hisobga olgan holda modellashtirish imkonini beradi. 2012 (14) versiyasidan boshlab Reactor roʻyxatdan chiqarilib uning oʻrniga MassFX moduli oʻrnatilgan.

Hair&Fur

Dasturning 7.5 versiyasidan boshlab 3ds Maxda Hair&Fur (sochlar va yunglarni) moduli qoʻshilgan boʻlib, sochlarni, yunglarni, oʻt-oʻlanlarni, xivchinlarni modellashtirish imkonini beradi.

Vizualizatsiya

Vizuallashtirish modellashtirilayotgan sahna bilan ishlashning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Sahna bilan ishlashning aksariyat holatlarida soddalashgan

ko‘rinishda amalga oshiriladi: tekstura o‘lchami kichik, soya va yorug‘lik manbai, materiallarning turli xil xususiyatlari (masalan, aks ettirish) o‘chirilgan, murakkab geometriya va turli xil effektlar aks etmaydi. Faqatgina vizuallashtirishdan keyin sahna tarkibiga kiritilgan ob‘ektlarning materiallari barcha xususiyatlari va tashqi muhit effektlari paydo bo‘ladi. So‘nggi tasvirni ekranga chiqarish uchun kerakli vizuallashtirish moduli tanlanadi. Bunda barcha talab qilingan effektlar bilan sahna tashqi ko‘rinishini matematik algoritmlar yordamida hisoblash amalga oshiriladi. Bunda vaqt hisobi qo‘yilgan vazifaning murakkabligiga bog‘liq ravishda sekundning ulushidan to bir necha oylargacha davom etadi. Aksariyat vizuallashtirish modellari alohida dasturlar hisoblanib, 3ds Maxga qo‘shimcha singari o‘rnatiladi.

Vizuallashtirish modullari ro‘yxati Scanline


3ds Max dasturining vizualizatorlaridan hisoblanadi. Vizuallashtirishning joriy metodi 3DS Max dasturida satrli algoritmlarni skanerlovchi hisoblanadi. Ayrim kengaytirilgan imkoniyatlar Scanline ga qo‘shilgan. mental ray mental ray vizuallashtirishning yuqori sifatli tizimi bo‘lib ishlab chiqaruv uchun qo‘llash mumkin bo‘lib, Mental Images kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. mental ray 3DS Maxning oxirgi versiyasiga ichki o‘rnatilgan bo‘lib, vizuallashtirishning kuchli uskunasi hisoblanadi. 3ds Maxga o‘rnatilgan mental ray versiyasi uskunalar to‘plami yordamida qo‘yiladi. Uning yordamida ko‘plab turli-hil effektlarni yaratish osongina amalga oshadi. V-Ray

Yuqori sifatli fotorealistik vizuallashtirgich hisoblanadi. 3ds Max uchun plagin sifatida loyihalangan. Rus tilidagi foydalanuvchilar uchun mashhur tashqi vizuallashtirgich bo‘lib, Chaos Group kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Professionalar tomonidan tez-tez qo‘llanilib, ko‘pincha Scanline va mental ray standartlarini o‘rnida ishlatiladi. Shaxsiy materiallar, kameralar, yoritish

manbalari va atmosfera effektlariga ega. SHuningdek unga kunduzgi yoritish tizimi o‘rnatilgan: V-Ray Physical Camera, V-Ray Sky va V-Ray Sun. RenderMan RenderMan konveyriga bog‘lanishning tashqi vositasi. SHuningdek 3DS Max dasturini Renderman vizuallashtirish tizimi bilan integratsiyasini ta‘minlaydi.

3DS Max bilan bog'lanish DoberMan yordamida amalga oshadi.

FinalRender



Cebas kompaniyasining tashqi vizualizatori. Nisbatan to'liq foton-asoslangan vizuallashtirgich hisoblanadi. O'z imkoniyatlari jihatidan faqat mental ray dan ortda qoladi. Video Post (Videomontaj)

Dasturiy modul Video Post – uch ulchamli saxna tasvirlarini kayta ishlash uchun muljallangan bulib, maxsus grafikli effektlarni urnatish imkonini beradi: bir nechta tasvirni birlashtirish yo'li bilan kompozitsiya yaratish; tasvirni filtrlash va turli effektlar bilan boyitish imkoniyatini berib, Effects

(Эффекты) moduli yordamida amalga oshiriladi; animatsiya ichiga kadrlar orasiga turli hil tipdagi o'tishlarni qo'shish; Tasvirlarni qayta ishlash filtrlari turlari:

Contrast filtri — tasvirning kontrasti va yorug'ligini boshqarish imkonini beradi.

Fade filtri — tasvir intensivligini qadamba-qadam nolgacha kamaytirish imkonini yoki aksincha uni noldan maksimumgacha ko'tarish imkonini beradi.

Image Alfa filtri — tasvir alfa-kanalini (Shaffoflik kanali) ayrim qismlarini fayldagi niqob yordamida almashtirish imkonini beradi. Lens Effects oilasi filtrlari: Flare (Блики) — kamera ob’ekti linzasida Shu’lalar hosil qiladi.

Highlight (Сверкание) — yulduzcha ko‘rinishidagi yarqiragan oynali Shu’la yaratadi.

Negative filtri — tasvir rangini sozlash imkonini berib, uning rangli negativlarini Shakllantiradi.

Kompozitsiya filtrlari turlari:

✦ Adobe Premiere Transition filtri — Adobe Premiere ilovasida kadrlar orasidagi o‘tishlarga


videoeffektlarni yaratish imkoniyatini ta’minlaydi.

✦ Alfa Compositor filtri — ikkita rasmdan kompozitsiya yaratish imkonini berib, navbatda birinchi turgan rasmni joylashtirib, ikkinchi navbatda urgan rasmni esa ustiga joylashtiradi.

✦ Cross Fade Transition filtri — suzish effektini yaratish imkonini beradi.

✦ Pseudo Alfa filtri — Shaffoflik kanaliga ega bulmagan ikkita tasvirni birlashtirish imkonini beradi.

Plaginlar



3ds Max dasturi modellashtirishni engillashtiruvchi barcha maxsus effektlarni standart vositalarining yetarlicha keng bazasiga ega. Standart bazadan tashqari qator qo‘shimcha vositalar (plaginlar) mavjudki, ular nafaqat olov, suv, tutun kabi real voqelik effektlaridan, balki modellashtirishning qo‘shimcha uskunalaridan tarkib topgan. Plaginlar tashqi o‘rnatiladigan modullar hisoblanadi. Ular 3ds Max paketidan alohida sotiladi yoki Internet orqali tekinga tarqatiladi. Bunday dasturlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik kompaniyalar yoki oddiy yaratuvchilar tomonidan ishlab chiqiladi. 3ds Max uchun qo‘shimcha modullar Shu darajadla ko‘pki, ular tomonidan tavsiya qilingan uskunalar standart vositalar majmuidan ortib ketadi. Plaginlar ko‘plab topShiriqlarni bajarilishini engillashtiradi — masalan, vizuallashtirishga sarflanadigan vaqtni hisoblashda kam vaqt ishlatishni (yanada takomillashtirilgan vizualizatorlar hisobiga) yoki turli xil modifikatorlar va qo‘shimcha funktsional imkoniyatlar evaziga ob’ektlarni modellashtirishni tezlashtiradi. Particle Flow, Cloth FX, Reactor singari qo‘shimcha modullar — shu darajada mashhurlik oldiki, oxiri oqibatda ularni 3ds Max dasturi tarkibiga qo‘shishga qaror qilindi. Endilikda bular dasturning ajralmas qismi hisoblanadi.

Quyida 3ds Max uchun ayrim plaginlarning ro‘yxat keltirilgan:

- FumeFX — fotorealistik effektlar: alanga, tutun va boshqalar.
- DreamScape — realistik landShaftlar, tog‘lar, osmon, atmosferali effektlar va boshqalar.
- AfterBurn — fotorealistik effektlar: bulutlar, tutun, portlash va boshqalar.
- RealFlow — fotorealistik effektlar: suvlar, chayqalishlar, tuman, ko‘pik,
 - SharSharalar, fontanlar, to‘lqinlar va boshqalar.
 - GrowFX — har qanday ko‘rinishdagi o‘simliklar: palma, liandan sosnagacha, gullardan to keng yaproqli daraxtlargacha va hokazo. Bu plagin yordamida yaratilgan har qanday o‘simlikni erkin harakatlantirish mumkin.
 - MAXScript — bu 3ds Max dasturiga ichki qurilgan makrodasturlash tili hisoblanib, foydalanuvchiga quyidagi ikoniyatlarni ta’minlab beradi:

➤ *.ms tipidagi fayllarda saqlanadigan sahnalarni (skript) yaratish. Geometrik modellarni yaratish, yoritgichlar va kameralarni yaratish, materiallarni belgilash, sahna ob'ektlarini vizuallashtirish va animatsiya;

➤ *.mcr tipidagi fayllarda saqlanadigan makroslarni yaratish imkonini beradi.

Bunday makroslarga tegishli yangi tugmaning xususiyatlari uskunalar panelida aks etadi; to'rsimon qobiq bilan ishlash uchun shaxsiy modullarni yozish OLE mexanizmi vositasida Windowsning boshqa ilovalari bilan ma'lumot almashishni ta'minlab beradi. Foydalanuvchi tomonidan makro buyruqlar ko'rinishida barcha amallarni avtomatik yozib olishni amalga oshiradi.

Har qanday dastur va ayniqsa 3DS MAX singari murakkab tuzilmalangan dastur boshqaruv metodlari, harakatlanish va foydalanuvchi ishchi muhiti - Interfeys ni sozlash imkoniyatlari bilan tanishish bir qancha vaqt talab qiladi. 3DS MAX muhiti interfeysining elementlarining asosiy tiplari bilan tanishib chiqamiz. Bu oyna Windows operatsion tizimining standart oynasi hisoblanib va Shuning uchun u to'liq ekranga yoyilishi, yig'ilishi yoki yopilishi mumkin. Undan tashqari, to'liq ekranmas rejimda uning o'lchamlarini chegarasiga chisqonchani bosish bilan ham o'zgartirish mumkin. Faqatgina menyu to'plami, panellar va boshqaruv tugmalari va boshqalarning aniq va to'liq ishlashi uchun faqatgina Windows Ishchi stoli o'lchami 1152x864 dan kam bo'lmagan to'liq ekranli rejimda bo'lishi kerak. Interfeysning asosiy elementlarini o'rganishdan oldin, ularni tashkil qilgan atributlarga to'xtalamiz:

Кнопка - 3DS MAX muhitida buyruqlarni yoki muloqot oynalarini chaqirish uchun boshqaruv elementi bo'lib, uni bajarish uchun ustida sichqoncha chap tugmasini bosish kerak.

Флажок - relefli o'yiqlik joy kvadrat shakldagi boshqaruv elementi bo'lib, ikkita holatdan birini qabul qilish (tanlash) imkonini beradi: agar u yoqilgan bo'lsa, u holda kvadrat ichida «qushcha» belgisi paydo bo'ladi, agar o'chirilgan bo'lsa, u holda hech qanday belgi bo'lmaydi.

Переключатель - relefli o'yiqliq joy aylana shakldagi boshqaruv elementi bo'lib, odatda ikkita yoki undan ko'p punktlardan tashkil topgan, bir-birini o'zaro inkor etadigan, tanlangani ichida qalin nuqta bilan belgilanadi.

Счетчик - raqamli ma'lumotlar to'plami uchun maydon relefli to'g'ri to'rtburchak shaklidagi boshqaruv elementi. O'ng qismida ikkita tugma-strelkalar joylashgan bo'lib, sichqoncha yordamida hisoblagich qiymatini o'zgartirish mumkin.

Строка - simvulli ma'lumotlarni kiritish uchun ishlatiladigan to'g'ri to'rtburchak yoki yassi maydon shakldagi relefli boshqaruv elementi.

Список - ma'noviy belgilariga ko'ra birlashgan bir nechta qatordan iborat. Qatorlardan har biri, ayrim holatlarda bir nechta qator sichqonchani bosish orqali tanlanishi mumkin.

Группа параметров - mantiqiy birlashtirilgan boshqaruv elementlari to'plami bo'lib, relefli ramkaning menyuu va panellarida joylashgan.

Кнопка-Флажок - relefli tugma bo'lib, uni bosish bilan ishning boshqa rejimiga o'tiladi. Shu paytda tugmada sariq tang tus oladi. Bu harakatni bekor qilish uchun Кнопка-Флажокни sichqoncha chap tugmasi yordamida takror bosish talab qilinadi.

Модальная Кнопка - boshqaruv elementi Кнопке-Флажкуга analogik hisoblanadi. Bu elementni o'chirish uchun boshqa Модальная Кнопкани bosish va tanlash kerak.

Список Кнопок - bu tugmani bosib ushlab turilganda, boshqa tugmalar to'plamidan iborat panel ochiladi. Bu panel tugmalar ro'yxatini aks ettiradi. Elementlardan ixtiyoriy birini tanlash uchun uning asosiy tugma bosilib, ochilgan ro'yxatdan kerakli tugma ustida sichqoncha chap tugmasini bosib tanlangandan keyin qo'yib yuborish kerak.

Свиток - boshqaruv elementlari to'plamidan iborat ochiladigan panel. Bunday elementlar bitta guruhga yoki yakka holda joylashgan bo'ladi. Svitok yig'ilgan holatda ingichka relefli gorizontall tugma () ko'rinishida namoyon bo'lib,


uning boshlanishida «+» belgisi bo'ladi. Svitok yoyilgandan keyin perimetriga ko'ra relefli ramkali panel ko'rinishini oladi. Sarlavhasi boshida esa «-» belgisi paydo bo'ladi. Interfeysning keltirilgan atributlaridan dastur asosiy oynasini belgilaydigan asosiy elementlar tuziladi: Падающее меню - 3DS MAXning buyruqlarning ro'yxatlari asosiy qatori. Asosiy oynaning yuqori qismida joylashgan guruhlar bo'yicha tuzilmalangan. Bu menyuning har bir punkti, sichqoncha chap tugmasi yordamida tanlanadi. Menyu punkti pastga ochiladi va buyruqlar yoki menyuga joylashganlar ro'yxatiga yo'l ochiladi.

Kursor yaqinlashganda tanlanadigan punkt rangi o'zgaradi (yonadi). Uni tanlash uchun ustida sichqoncha chap tugmasini bosish kerak. Agar menyu qatorining o'ng chekka qismida uchburchakli strelka ko'rinishida belgi bo'lsa, u holda kursorni olib borish bilan ichki joylashgan menyu ochiladi. Undan tashqari, menyu punktlariga klaviaturali makros belgilangan bo'lib, u o'zining nomi matnli qatori davomida aks etadi.

Ayrim qatorlar bayroqli hisoblanadi. Ya'ni har bosganda yoqilishi yoki yana qaytadan o'chirilishi mumkin (bir bosganda yonsa, yana bosganda o'chadi). Uchta nuqta "..." bilan tugagan qatorlar esa qo'shimcha rejimni chaqirib, foydalanuvchi tomonidan sichqoncha yordamida tanlash yoki muloqot oynasiga ma'lumotlarni kiritishni talab qiladi.

Диалоговое Окно - foydalanuvchi ma'lumot kiritishini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri. Bunday oyna yagona tahrirlanadigan parametrlardan tarkib topishi (masalan, nomning matn maydoni), Shuningdek ko'plab guruhlangan parametrlar va sozlamalardan iborat bo'lishi mumkin. Muloqot oynasi modal va nomodal bo'lishi mumkin.

Панели Инструментов – yig'ma menyuning alternativ varianti bo'lib unda barcha buyruqlar funktsional tugma ko'rinishida bajaradigan vazifasiga ko'ra kichik guruhlarga bo'lib joylashtiriladi.



Buyruqni berish sichqoncha chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Uskunalar paneli zakladka ko‘rinishida joylashishi mumkin. Bunda zarurini tanlash oddiy bosish (sichqoncha chap tugmasini bir marta) orqali amalga oshadi yoki Floating Panels (Плавающих Панелей) ko‘rinishida, unda panel asosiy oynaning tepa qismining ixtiyoriy qismga joylashishi mumkin.

Uskunalar panellarini ishlatish yangi ish boshlayotganlar uchun uncha murakkab emas. Faqatgina bir marta yaqindan tanishib olingandan keyin bu usul ancha tezkor va qulay hisoblanadi. Undan tashqari, kursorni ixtiyoriy tugmaga olib borish bilan tegishli harakat nomini bildiruvchi ko‘chma eslatma paydo bo‘ladi. Ayrim panellar, tugmadan tashqari qo‘shimcha boshqaruv elementlaridan tarkib topadi. Ularni biz keyinroq ko‘rib chiqamiz.

Панель Команд - ob’ektlarni yaratish va tahrirlash, animatsiya parametrlarini sozlash va 3DS MAX muhiti xizmatchi uskunalari to‘plami majmuidan iborat. Bu panel Shuningdek uskunaning harakat ko‘rinishlariga ko‘ra zakladkalar ko‘rinishida taqdim qilingan: Create (Создание объектов) - ob’ektlarni yaratish.

- ✦ Modify (Модификация объектов) - ob’ektlarni modifikatsiyalash.
- ✦ Hierarchy (Иерерхия) - Ierarxiya.
- ✦ Motion (Управление движением) - harakatni boshqarish. Display (Отображение объектов) - ob’ektlarni tsavirlash (aks ettirish). Utilities (УТИЛИТЫ) - Utilitlar.

Buyruqlar paneli aslida 3DS MAX asosiy oynasining o‘ng qismida joylashgan va ekran bo‘ylab boshqa joyga ko‘chirilmaydi. Faqatgina zarur bo‘lganda uni Floating Panels (Плавающих Панелей) rejimiga o‘tkazish mumkin (yuqorida aytilgandek).

Shundan so‘ng qayerga kerak bo‘lsa ko‘chirib o‘tkazish mumkin.

Видовые Окна - dasturning asosiy ish maydoni hisoblanib, u yerda sahna ob'ektlari geometriyasi, materiallar, teksturali karta va xizmatchi ma'lumotlar ustidagi ishlar amalga oshiriladi. Bu oyna kuzatuvchi nuqtai nazaridan to'plam qo'llashi mumkin. Unda bir nechta sondagi variantlardan tanlanadigan oyna faol yoki passiv bo'lishi mumkin. Faol Выдовое Окно perimetri bo'yicha sariq ramkaga olingan bo'lib, ob'ektlar ustida amallar bajarish uchun qo'llaniladi. Shu vaqtda passiv singari faqat joriy o'zgarishlarni aks ettiradi. Oyna nomi yuqori chap burchakda joylashadi. Uning barcha sozlash ishlari ustida sichqoncha o'ng tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi. Bu holatda kontekstli menyu paydo bo'ladi. Bu boshqaruv elementini endi batafsil ko'rib chiqamiz.

Контекстное Меню - buyruqlar va uskunalar ro'yxatini aks ettirib, odatda sahnaning tahrirlanadigan ob'ekti yoki interfeys elementi ustida sichqoncha chap tugmasini bosish orqali chaqiriladi. bu ro'yxat bir nechta faktorlarga bog'liq va ayni paytdagi ruxsat etilgan amallarga tezkor bog'lanish imkonini beradi.

Строка Состояния va Подсказок - asosiy oynaning xizmatchi maydonlari. 3DS MAX tanlangan ob'ekt haqidagi barcha zarur ma'lumotlarni mos ravishda aks ettiradi. Bunday ma'lumotlarga o'lchamlari, joy o'zgarishidagi o'lchamlari, burilishlar va masShtablash koeffitsientlari, tugunlarning joriy sozlamalari va boshqa ma'lumotlar. Строка Состояния va Подсказок buyruq berilgandan keyin yoki aniq bir ob'ektlarni yaratish va tahrirlash uchun, oynalarni harakatlantirish va boshqalar uchun foydalanuvchiga keyinchalik qanday hatti-harakatlarni amalga oshirishiga bir nechta variantlardan iborat eslatma beradi. Endi, keyinchalik 3DS MAXda ishni boshlash uchun Interfeysni sozlab olish kerak. Interfeysni sozlash

Tasviriy oynalar konfiguratsiyasi

Interfeys ni sozlash juda ko'p amalga oshiriladigan vazifa hisoblanadi. Birinchi marta dastur va boshqalar bilan tanishishda, ishning u yoki bu ko'rinishlarida, tizimni tiklash, yangi versiyaga almashtirish va boshqalar. faqatgina bu aspekt etarlicha muhim, Shuning uchun ham uni batafsil ko'rib chiqamiz. Hammadan avval, tasviriy oyna konfiguratsiyasini o'rnatish talab qilinadi. Bu imkoniyat kuzatuvchi nuqtai nazaridan o'rnatish o'rinli:

- ✓ Top (Вид Сверху) - yuqoridan ko‘rinish
- ✓ Front (Вид Спереди) - oldindan ko‘rinish
- ✓ Left (Вид Слева) - chapdan ko‘rinish
- ✓ Right (Вид Справа) - o‘ngdan ko‘rinish
- ✓ Bottom (Вид Снизу) - pastdan ko‘rinish
- ✓ Back (Вид Сзади) - orqadan ko‘rinish
- ✓ Perspective (Перспектива) - uzoqdan ko‘rinish
- ✓ CameraXX (Вид из Камеры) - kameradan ko‘rinish
- ✓ LightXX (Вид из Источника Света) - yorug‘lik manbaidan ko‘rinish
- ✓ User (Вид Аксонометрический, Пользовательский) - aksonometrik, foydalanuvchi tomonidan ko‘rinishi.

Kerakli ko‘rinishni tanlash uchun tasviriy oyna nomi matni ustida sichqoncha o‘ng tugmasini bosish va uni kontekstli menyudan olish kerak. Tasviriy ekranni konfiguratsiyalarini sozlash uchun Configure (Настроить) punktini chaqirish kerak. Natijada Viewport Configuration

(Конфигурация экранов) muloqot oynasi paydo bo‘ladi. Undan Layout (Компоновка) zakladkasini tanlash kerak. Tasviriy ekranlarning raskladok standart to‘plamidan ishlash uchun eng qulay bitta variantini tanlash kerak. Ko‘pincha o‘lchami bo‘yicha bir hil to‘rttadan tarkib topgan oxirgi tasviriy oynani qo‘llashga to‘g‘ri keladi.

Tasviriy oynalarni boshqarish buyruqlari to‘plami 3DS MAX asosiy oynasining o‘ng pastki qismida joylashib, quyidagi uskunalarni o‘z ichiga oladi:

Zoom (Масштаб Вида) - interfaol yaqinlashish rejimi / sahnadan uzoqlashish. Bu buyruqni tanlangandan keyinko‘rinish masShtabini o‘zgartirish uchun faol tasviriy oynada sichqoncha chap tugmasini bosgan holda ko‘chirish kerak (joyini o‘zgartirish).

Zoom All (Масштаб Вида Всех Окон) – barcha tasviriy oynalarga ta’sir etuvchi, avvalgi rejimga analogik rejim hisoblanadi. Zoom Extents / Extents Selected (Вся Сцена / Весь Выделенный объект) - barcha sahnalarni namoyish

qilish imkonini beradi / faol tasviriy oynada barcha belgilangan ob'ektlarni (yoki guruhlarini). Zoom

Extents All / Extents All Selected (Вся Сцена во Всех Окнах / Весь

Выделенный объект во Всех Окнах) – avvalgi rejimga analog hisoblanib barcha tasviriy oynalarda ta'sir etadi.

Region Zoom (Фрагмент Вида) - ramkani ko'rsatish yordamida faol tasviriy oynada namoyishning fragmentini tanlash.

Pan (Панорама) – faol tasviriy oyna bo'ylab ko'rish oynasini ko'chirish.

Arc Rotate / Rotate Selected / Rotate Sub-Object (Поворот Точки Зрения) – yangi nuqtai nazarni olish imkonini berib, unda faol oyna User (Пользовательский) rejimiga qo'shiladi. Bu buyruqni berilgandan keyin ko'k rangdagi markerli aylana paydo bo'ladi. Bu markerlar kuzatuvchi nuqtai nazaridan burilish rejimini tanlash imkonini beradi.

O'lchov birliklari, Koordinata to'ri, Bog'lamlar 3DS MAX interfeysining navbatdagi muhim sozlamalaridan biri o'z ichiga Единиц Измерения o'lchov birliklarini tanlash, Привязок bog'lam rejimlarini o'rnatish va Сетки Координат parametrlarini sozlash mumkin. O'lchov birligini tanlash uchun Customize (Настроить) yig'ma menyudan Units Setup (Настройка Единиц Измерения) punktini chaqirish kerak. Natijada Shu nomdagi muloqot oynasi paydo bo'lib, unda Metric

(Метрические), US Standard (Американские), Custom (Пользовательские) sistemalaridan birini tanlashga imkon beradigan qayta ulagichlar to'plami bor. Bundan tashqari po umolchaniyu qo'llaniladigan Generic Units (Общие) sistemasi ham mavjud. Aniq bir uch o'lchamli sahna bilan ishlashda talab qilinadigan o'lchov birliklarini uni yaratish vaqtidayoq tanlab olish talab qilinadi. Faqatgina tayyor sahna bir o'lchov birligida boshqasiga konvertatsiyalanishi mumkin.

Bunday jarayon turli o'lchov birliklariga ega bo'lgan sahnalarni birlashtirishda avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Tasviriy oynaning ish maydoni mo'ljal olishni qulaylashtirish uchun va ob'ektlarni yaratish va tahrirlashda o'lchamlarni hisoblashda Сетка Координат

oʻrnatilishi mumkin. Koordinat toʻri oʻzaro bogʻlangan perpendikulyar xizmatchi chiziqlardan iborat. Toʻr kuzatuvchi nuqtai nazaridan oʻzaro perpendikulyar gorizontal va vertikal toʻgʻri chiziqlardan tashkil topgan.

Toʻrning chiziqlari, asosiy va yordamchi qismlarga boʻlinib, bir-biriga nisbatan -

Customize (Настроить) padayutsego menyuning punkti orqali chaqiriladigan Grid and Snap

Setting (Установки Сетки и Привязок) muloqot oynasining Home Grid (Сетка) zakladkasida belgilanadigan Grid Spacing (Шага Сетки) masofada joylashadi.

Сетка yoqilishi (paydo boʻlishi) yoki oʻchirilish (olib tashlanishi) Show Home Grid (Показать Сетку Координат) buyrugʻi bilan amalga oshirish mumkin. Toʻrning asosiy vazifalaridan biri uning chiziqlari va ularning kesishuvi (tugun) Привязки rejimini qoʻllashdan iborat.

Snaps (Привязки) sahna yaratish va tahrirlash uchun moʻljallangan rejim hisoblanadi. Standard (Стандартный) roʻuxati bayroqchalari toʻplami oʻzgaruvchan hisoblanadi va aniq geometriyani qurish uchun har bir muayyan holat uchun sozlanishi mumkin. Clear All (Очистить Все) tugmasi bogʻlam rejimini qayta faollashtirgan holda barcha bayroqchalarni olib tashlaydi. Bogʻlamning fazoviy modelini yoqish (qoʻshish) yoki oʻzgartirish uchun moʻljallangan tugmalarning mos guruhlarini 3DS MAXning asosiy uskunalari panelining oʻng qismida joylashgan:

3D / 2.5D / 2D Snap (Трёхмерная / Полутрёхмерная / Двухмерная Привязка)

- 3DS MAXda qoʻllaniladigan bogʻlamning turli variantlari, uch oʻlchamli fazoda sahna setkasi yoki geometriyasi kursor yordamida elementlarni aniq olish imkonini beradi. 3D Snap (Трёхмерная Привязка) rejimi qoʻllanilib, koʻpchilik holatda kerakli natijani olishni taʼminlaydi.

Angle Snap (Угловая Привязка) - bog'lash rejimi bo'lib, Rotate (Поворота) bir Shakldan boshqasiga o'tishiga ta'sir ko'rsatadi. Uning yoqilishi natijasida burilishning barcha operatsiyalari ortdagi qadam bilan amalga oshadi.

deqanimizni eslang?) Yuqori va pastki ramkalarni juda tor qiling. Agar keyinchalik tarkib ularga mos kelmasa, biz ularni ko'paytiramiz.

Yana bitta ramka yaratish kerak - chapda, bu erda ko'priklar to'plami joylashtiriladi. Biz uni biroz boshqacha shaklda yaratamiz, buning uchun Modify menyusining Frameset pastki menyusidan foydalanamiz.



Ikki gorizontaI ramka




Uchta gorizontaI ramka

Quyidagi narsalar mavjud:

- Split Frame Left - joriy qismning chap tomoniga ramka yaratish;
- Split Frame Right - amaldagidan o'ng tomonga ramka yaratish;
- Split Frame Up - joriy ramkaning yuqori qismida ramka yaratish;
- Split Frame Down - joriy ramkaning ostida ramka hosil qiladi.


Shunday qilib, joriy o'rta freymni yarating va Modify menyusining Frameset pastki menyusidan tanlang ... o'ng, Split Frame Left. Sizga kerak bo'lgan so'nggi ramkani olasiz. Uning kengligini kamaytiring - bu gorizontial ramkalarda bo'lgani kabi amalga oshiriladi. Siz anjirda ko'rsatilgandek o'xshash narsalar bilan yakunlashingiz kerak.



Freymlarning tayyor to'plami

Endi tugallangan sahifani "Ivan I. Ivanov" nomli ramkalar to'plami bilan bering va Fayl menyusidagi Save All bandini tanlab saqlang - bu ham barcha ramkalar tarkibini saqlaydi. Ekranda Windows-da fayllarni saqlash bo'yicha standart dialog oynasi paydo bo'lib, freymlar to'plamini o'zi UntitledFrameset-1.htm sifatida saqlashingizni so'raydi. Uni default.htm sifatida yangi saytning ildiz papkasida saqlang.

Dreamweaver endi to'plamdagi har bir freym tarkibini birma-bir saqlashni talab qiladi (alohida veb-sahifa ramka tarkibini belgilab qo'yishini unutmang). Bunday holda, hozirgi vaqtda tarkibi saqlanib kelinayotgan ramka qalin chiziq bilan belgilanadi, shuning uchun siz Dreamweaver nimani saqlayotganini va qaysi sahifani qanday nomlashini bilasiz.



Qalin chiziq chiziq hozirda tarkibi saqlanayotgan ramkani bildiradi.

Saytning boshqa barcha sahifalarini HTML papkasida saqlang. Mualliflik huquqi sahifasini Copyright.htm deb nomlang. Asosiy sahifada Main.htm standart sahifasini, Nav.htm ko‘prik ro‘yxati sahifasini va Header.htm sayt sarlavhasini nomlang.

Diqqat! Agar mavjud veb-sahifani ramkalar to‘plamiga aylantirsangiz, Dreamweaver ushbu sahifaning tarkibini joriy freymga joylashtiradi. Agar bu sizning saytingizning asosiy sahifasi bo‘lsa (default.htm), unda freymlar to‘plamini yaratishdan oldin uni qayta nomlashingiz kerak bo‘ladi, aks holda siz default.htm nomi ostida sahifani ramka to‘plami bilan saqlay olmaysiz.

Freymlar yaratishning yana bir usuli bor. Endi biz siz bilan birga ko‘rib chiqamiz.

Bizning butun ramkamizni o‘rab turgan qalin kulrang chegaraga e‘tibor bering. Siz ob‘ektlar paneli yoki menyudan foydalanmasdan to‘planning yangi ramkalarini yaratishingiz mumkin, lekin shunchaki sichqoncha yordamida ushbu ramkani ushlab, yangi yaratilgan Freymlar chegarasi joylashgan joyga sudrab boring. Xususan, shu tarzda bitta freymni ikkiga bo‘lishingiz mumkin.

Endi biz qisqa tanaffus qilishimiz mumkin, shundan so‘ng biz ramkalar va Dreamweaver ularni qanday qo‘llab-quvvatlashi haqida bir oz ko‘proq bilib olamiz.

Eslatma! Framesetlar <FRAMESET> teg juftligi yordamida tavsiflanadi, unda atributlardan biri bo‘lishi kerak: ROWS yoki COLS. Nomlangan atributlar

berilgan to'plamdagi barcha freymlarning balandligi (<ROWS> yorlig'i uchun) yoki kengligi (<COLS> uchun) qiymatlari ro'yxatini belgilaydi. Freymlarning o'zi bitta <FRAME> yorlig'i bilan ko'rsatilgan. <FRAMESET> ham, <FRAME> ham ramkalar to'plamining turli xil xususiyatlarini va freymlarning o'zlarini belgilaydigan ko'plab atributlarni qo'llab-quvvatlaydi; bu sifatlarni keyinroq ko'rib chiqamiz.

Xususan, ikkita gorizontal joylashtirilgan freymlar to'plamini belgilaydigan kod, ularning tepasi deraza maydonining 20% ni, ikkinchisi 80% ni egallaydi:

```
<FRAMESET ROWS = "20%, 80%" ...>
```

```
<FRAME ...> <FRAME ...>
```

```
</FRAMESET>
```

Shunga ko'ra, ikkita ichki ramka quyidagicha bo'ladi:

```
<FRAMESET ROWS = "20%, 80%" ...>
```

```
<FRAME ...>
```

```
<FRAMESET COLS = "100, *" ...>
```

```
<FRAME ...> <FRAME ...>
```

```
</FRAMESET>
```

```
</FRAMESET>
```

Diqqat! Freymlar to'plamini tavsiflovchi veb-sahifada <BODY> yorlig'i yoki uning mazmuni bo'lmasligi kerak. Unda faqat ramka to'plamining tavsifi bo'lishi kerak.


Freymlar va ramkalar bilan ishlash

Keling, Dreamweaver ramkalar va bitta ramkalar bilan nima qilishimiz mumkinligini bilib olaylik.

Frameset xususiyatlari

Freymlar va individual Freymlar uchun xususiyatlarni o'rnatish uchun avval ulardan birini tanlash kerak. Bu eng yaxshi ramkalar panelida amalga oshiriladi. Dastlab, u dock-da emas, shuning uchun Window menyusining Others pastki

menyusidan Frames-ni tanlang yoki <Shift> + <F2> tugmalar birikmasini bosing. Frames panelining o‘zi shakl.




Freymlar paneli

Ushbu panelni diqqat bilan ko‘rib chiqing. Bu barcha ramkalarni va butun ramka tuzilishini ko‘rsatadi. Freymlar kulrang to‘rtburchaklar shaklida, ularning ichida ismlari yozilgan (biz ramka nomlari haqida quyida gaplashamiz). "(Nomi yo‘q)" ramkaning nomi yo‘qligini bildiradi. Framesets juft ramkalarni o‘rab turgan qalin, quyuq kulrang chegaralar bilan ifodalanadi. Aslida, bu juda qulay - siz hamma narsani bir vaqtning o‘zida ko‘rishingiz mumkin. Faqatgina qiyinchilik: dastlab sichqonchani ramka to‘plamining qalin ko‘rinadigan chegarasiga kiritish qiyin.

Ha, ramka to‘plamining chegaralarini bosib, birini yoki boshqasini tanlashingiz mumkin. Shuningdek, freymlarni tanlab ularni o‘zlarini bosishingiz mumkin. Keyin xususiyat muharriri tanlangan ramka yoki ramka uchun variantlarni namoyish etadi.

Endi sizga Dreamweaver ramkalar bilan nima qilishimizga imkon berishini aytib berish vaqti keldi. Freymlar panelidagi Freymlar to‘plamini tanlang, masalan, eng chekkasini. Bu holda mulk muharriri ko‘rinishi shakl.



Frameset tanlangan xususiyat muharriri ko‘rinishi

Xususiyatlar muharririning yuqori qismidagi boshqaruv elementlari ramkaning o‘zi uchun parametrlarni o‘rnatishga imkon beradi. Endi ularni sanab o‘tamiz.

Chegaralar ochiladigan ro‘yxati to‘plamdagi ramkalar orasidagi chegaralarning mavjudligini yoki yo‘qligini aniqlashga imkon beradi. Bu erda uchta variant mavjud: Ha - chegaralar mavjud, Yo‘q - chegaralar yo‘q va Default - veb-brauzerga qarab standart qiymat (qoida tariqasida, chegaralar mavjud).

Agar siz Chegaralarni "Ha" yoki "Standart" ga o‘rnatgan bo‘lsangiz, "Chegara kengligi" parametrlarini tekshiring. Border Width kirish maydoni chegara qalinligini piksel bilan belgilashga imkon beradi; agar u nol bo‘lsa, unda chegara ko‘rinmas bo‘ladi. Aksincha, agar siz Chegaralarni Yo‘q-ga o‘rnatgan bo‘lsangiz, Border Width-ni nolga o‘rnatganingiz ma‘qul, aks holda ba‘zi veb-brauzer dasturlarida display muammolari bo‘lishi mumkin. Standart qiymat veb-brauzeringiz va operatsion tizimingizga bog‘liq.

Diqqat! Kichik chegaralar (ikki pikseldan kam) to‘g‘ri ko‘rsatilmaligi yoki umuman ko‘rsatilmaligi mumkin. Freymklar chegaralarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma‘lumot olish uchun HTML elektron qo‘llanmasiga qarang (<FRAMESET> yorlig‘ining BORDER atributi).

Border Color selektori chegara rangini belgilashga imkon beradi. Albatta, ushbu parametr kuchga kirishi uchun to‘plamdagi ramkalar orasidagi chegara ko‘rinishi kerak. Standart veb-brauzerga bog‘liq (odatda 3D effektli kulrang chegara).

Ushbu parametrlar bilan tajriba qilib ko‘ring va nima bo‘lishini ko‘ring. Eksperimentning tozaligi uchun olingan veb-brauzer dasturlarida olingan sahifani ko‘ring.

Umuman olganda, bugungi kunda ko‘rinadigan chegaralari bo‘lgan ramkalar yomon shakl hisoblanadi. Hozir ko‘rinmas yoki juda nozik chegaralari bo‘lgan ramkalar modada. Biz ham buni qilamiz.

Endi mulk muharriri pastki qismiga murojaat qilaylik. U erda joylashgan boshqaruv elementlari tanlangan to‘planning alohida ramkalarining o‘lchamlarini belgilashga imkon beradi.

Xususiyat muharririning o‘ng tomonida siz to‘plam va u tarkibidagi ramkalarining sxematik ko‘rinishini ko‘rasiz. Umuman olganda, siz allaqachon tanish bo‘lgan ramkalar paneliga o‘xshaydi. Sichqonchani oddiy bosish orqali istalgan freymni tanlashingiz mumkin; tanlangan ramka quyuk kul rang bilan to‘ldiriladi. Shunga qaramay, bu Frames paneli emasligini unutmang: tanlangan Freymni oqimga aylantira olmaysiz va uning barcha xususiyatlarini o‘rnatishingiz mumkin emas.

Qiymat kiritish maydoniga ramkaning balandligi yoki kengligini kiriting. Ushbu qiymat piksel yoki foizda ko‘rsatilishi mumkin. Boshqa ramkalardan qolgan bo‘sh joyni ko‘rsatish uchun siz u erga yulduzcha ("*") kiritishingiz mumkin. Dreamweaver uni to‘g‘ri ishlaydi.

Birlik ochiladigan ro‘yxati ramkaning balandligi yoki kengligi uchun o‘lchov birligini belgilaydi. Uchta variant mavjud: Piksellar - piksellar, Foizlar - foizlar va Nisbiy - bo‘shliqning qolgan qismi (qiymat maydoniga yulduzcha kiritish bilan o‘xshash).


Aytishim kerakki, allaqachon ramkalar to‘plamini yaratishda Dreamweaver ularning parametrlari qiymatlarini "aqlli" ravishda almashtiradi. Shuning uchun, ularni umuman o‘zgartirishingiz shart emas. Xo‘sh, ehtimol biroz chimdik ...

Oldindan yaratilgan default.htm sahifasini yuklang (7.12-rasmga qarang), agar u hali yuklanmagan bo‘lsa. Barcha ramkalar to‘plamlarini birma-bir tanlang, ularning parametrlari qiymatlarini tekshiring va agar kerak bo‘lsa, ularni o‘zgartiring. Chegaralar qiymati Yo‘q, Chegara Kengligi nolga, Chegaraning rangi esa bo‘sh bo‘lishi kerak. Yuqori (sarlavha) va pastki (mualliflik huquqi) freymnarining balandliklarini 30 pikselga, chap ramkaning kengligini esa 100

pikselga qo'ying. Agar keyinchalik bu ramkalar kichik bo'lib chiqsa, biz ularni ko'paytiramiz.

Freym xususiyatlari Biz ramkalar bilan ishladik. Ammo ramkalarning o'zi haqida nima deyish mumkin?

Freymlar panelidagi biron bir ramkani tanlang, eng yuqori qismini ayting. Xususiyat muharriri shaklda ko'rsatilgan shaklni oladi.



Tanlangan ramka bilan xususiyat muharriri ko'rinishi

Frame Name kiritish maydoniga ramka nomini kiriting. Dreamweaver sukut bo'yicha avtomatik ravishda yaratilgan nomdan foydalanadi va u ko'pincha juda muvaffaqiyatli bo'lib chiqadi. Ammo ba'zida uni o'zgartirish kerak. Masalan, bizning holatlarimizda, uni sarlavha bilan nomlash, shu bilan u ko'rsatadigan tarkibni belgilash yaxshi bo'lar edi.

Nima uchun ramka nomga muhtoj, keyinroq bilib olamiz. Hozircha aytaylik, kerakli freymga uning nomi bilan murojaat qilishimiz mumkin. Aslida, agar sizga ramkaga murojaat qilish kerak bo'lmasa, uni nomlashingiz shart emas.

Src kiritish maydoni Freymda ko'rsatilgan veb-sahifaning fayl nomini kiritish uchun ishlatiladi. Dreamweaver freymlar sahifasini yaratishda va saqlashda ushbu maydonni o'zi to'ldiradi. Ushbu maydon bo'sh qoldirilishi mumkin; bu holda, Freymda hech narsa ko'rsatilmaydi.

"O'tkazish" ochiladigan ro'yxati ramkada aylantirish satrlarini o'z ichiga oladimi-yo'qligini aniqlaydi. To'rt element mavjud:

- Ha - har doim aylantirish chiziqlari mavjud;
- Yo'q - ramkaning tarkibi unga mos kelmasa ham, aylantirish satrlari yo'q;
- Avtomatik o'tish satrlari faqat kerak bo'lganda paydo bo'ladi (ramka tarkibi unga mos kelmaydi);

➤ Odatiy bo‘lib, veb-brauzeringizga bog‘liq (odatda Avtomatik bilan bir xil).

"O‘lchamlarni o‘zgartirish kerak emas" katagiga foydalanuvchi o‘z chegaralarini tortib, freymlarning o‘lchamlarini o‘zgartirishga imkon bermaydi. Odatda foydalanuvchi freymlarning chegaralarini sudrab, ularning o‘lchamlarini o‘zgartirishi mumkin. Maxsus ma’lumotlarni aks ettiruvchi ramkalar, masalan, ko‘priklar to‘plami yoki sayt sarlavhasi uchun buni o‘chirib qo‘yish yaxshidir, aks holda bunday ramkalar tartibsiz bo‘lib ko‘rinadi. Biroq, Dreamweaver biz uchun bu haqda allaqachon g‘amxo‘rlik qilgan - bu katakchani yoqdi.

Chegaralar ochilishi sizga allaqachon tanish. Biroq, bu faqat ushbu ramkaga tegishli. Shunday qilib, siz individual ramka uchun chegaralarning mavjudligini yoki yo‘qligini belgilashingiz mumkin. Ushbu menyuda "Standart" element ramkalar to‘plami parametrlariga qaytishga imkon beradi.

Border Color selektorida freymning chegara rangini belgilashingiz mumkin.

Margin Width va Margin Height kirish maydonlari mos ravishda ramka chegaralari va uning tarkibidagi gorizonttal va vertikal masofalarni belgilashga imkon beradi. Odatiy bo‘lib 14 piksel.

Nazorat uchun savollar

1. Dreamweaver dasturida web-uzel yaratish?
2. Uzel, Chiziqli va Ierarxik tuzilishi?
3. Bir-biriga bog‘langan strukturasi?
4. Materiallarni taqsimlanishi?
5. SSI texnologiyasi?
6. Mahalliy uzelni yaratish?
7. Masofaviy ma’lumotlar toifasi?
8. FTP masofaviy kirish sozlamalari?
9. Dreamweaver dasturida freymli tuzilma yaratish?
10. Freymnar yorlig‘i tugmachalarining vazifalari?

3.3. CSS QO‘LLAGAN HOLDA WEB-SAYT YARATISH

Asosiy savollar:

1. Css qo‘llagan holda web-sayt yaratish
2. Web-sahifani CSS yordamida formatlash

Tayanch so‘zlar: CSS – JavaScript, background atamasi, Web-sahifani CSS yordamida formatlash, border, HTML teglariga CSS ko‘rinishlarini berishning usullari.

CSS texnologiyasi asosan Web-dizaynerlar tomonidan qo‘llaniladi. Chunki, bu texnologiya saytning dizayni uchun javob beradi. Bu sohani barcha Web-sayt loyihalovchilari bilishi lozim.

Texnologiya sayt ko‘rinishini juda osonlik bilan o‘zgartirish imkonini beradi. CSS - JavaScript bilan birgalikda dinamik HTML- sahifalar yaratish imkoni beradi.

CSS (ing. Cascading Style Sheets - kaskadli ko‘rinishlar jadvali) - biror belgilash tilidan (HTML, XHTML) foydalanib, hujjatning tashqi ko‘rinishini tasvirlash tilidir. Shuningdek, CSS XML- hujjatlarga ham qo‘llanilishi mumkin.

CSSni yaratilishidan asosiy maqsad, Web-sahifaning mantiqiy tuzilishini tavsiflash (HTML yordamida) hamda Web-sahifaning tashqi ko‘rinishini tavsiflashni bir-biridan ajratishdan iborat. Bunday ajratish, hujjatga ko‘proq moslashuvchanlik va tavsiflashni boshqarishda katta imkoniyatlar beradi, dastur kodini takrorlanishini oldini oladi va hujjat tuzilishini soddalashtiradi.

CSS yordamida bitta hujjatni turli usullarida tasvirlash imkoni beradi. Bunday usullarga ekranda chop etish, qog‘ozda chop etish, ovozli o‘qish dasturi yordamida chop etish hamda Brayl (ko‘rlar uchun mo‘ljallangan) shriftlarida chop etishni misol sifatida keltirish mumkin. CSSning yozilish qoidasini quyidagi misol orqali qarab chiqamiz:

```
h1 { color: red; margin-left: 200px; font-size: 20pt; }
```

Misolda “h1”— ajratgich (selector), "color", "margin-left" va "font-size"— uning xususiyatlari, "red", "200px" va "20pt" — uning qiymatlari deyiladi. Ma’nosi <h1> tegning ichidagi ma’lumotlar qizil rangda, 200 piksel chetlanish bilan, 20 pt kattalikda chop etilishini bildiradi.

Xususiyatlar va qiymatlar juda ham ko‘p bo‘lib, ma’lumotlardan foydalanib barchasi bilan tanishib chiqish mumkin. Ajratgichlar ham bir nechta bo‘lib, ular:

- Kontekst ajratgichlari
- ID ajratgichi
- CLASS ajratgichi
- Parametrli ajratgichlar
- Standart ajratgichlar kabi turlarga bo‘linadi.

Biz <h1> standart ajratgichini misolda qarab chiqdik. Yana bir misol:

```
a:visited { color: red;
}
a: link { color: blue;
}
```

HTML teglariga CSS ko‘rinishlarini berishning to‘rt xil usuli mavjud:

- Inline usuli
 - Joriy etish usuli
 - Import qilish usuli
 - Fayldan yuklash usuli
- Inline usuliga doir misol:

```
<p style= "font-size: 150%; text-align: center;">Matn</p>
```

Ushbu misolda “Matn” 150% o‘lchamga o‘zgaradi va markazga tekislanadi.

Joriy etish usuli hujjatning bosh qismida, ya’ni <head> tegida beriladi. Misol:

```
<head> <style> h1 { color: red; margin-top: 100px;
}
</style>
</head>
```

Bu misolda <h1> tegi ichidagi ma’lumotlar qizil rangda va yuqoridan 100 piksel bilan chetlanishga ega bo‘lishi tasvirlangan. Import qilish usuliga doir misol:

```
<head>
<style>
  @import url("misol.css");
</style>
</head>
```

Bu misolga ko‘ra, butun sahifaga “misol.css” faylidagi ko‘rinishlar qo‘llaniladi. Fayldan yuklash usuli ko‘p qo‘llaniladi va hujjatning bosh qismida <link> tegi orqali fayl ulanadi. Misol:

```
<head>
<link rel="stylesheet" type="text/css" href="misol.css"> </head>
```

Bayon etilgan to‘rtta usulning bajarilishi tartibi quyidagicha:

- Fayldan yuklash usuli
- Import qilish usuli
- Joriy etish usuli
- Inline usuli

















Demak, Inline usulining bajarilishi ehtimoli katta. Butun sayt uchun umumiy usul fayldan yuklash usuli hisoblanadi. Web-saytning bir nechta sahifasiga boshqalaridan farq qiladigan alohida ko‘rinish berish uchun Import qilish usuli qo‘llaniladi. Bitta sahifa uchun joriy etish usuli qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Inline usulini sahifa ichidagi biror abzatsni ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llash mumkin.

CSS yordamida hujjat ustida harakatlanuvchi sichqon ko‘rsatgichining (kursor) ko‘rinishlarini o‘zgartirish mumkin. Masalan, odatdagi holatda strelka ko‘rinishida, matn ustida vertikal tayoqcha ko‘rinishida bo‘lishi uchun kursor ko‘rinishlari turlicha ko‘rsatiladi. Kursor ko‘rinishi quyidagicha beriladi.

```
p { cursor: pointer;
}
```

Kursor ko‘rinishlari va uning qiymatlari quyidagi jadvalda berilgan.

1-jadval. Kursor ko‘rinishlari

Kursor ko‘rinishlari	Kursor xossasining qiymatlari
	default
	help
	move
	pointer
	text
	crosshair
	wait
	progress
	n-resize
	e-resize
	w-resize
	s-resize
	ne-resize
	se-resize
	sw-resize
	nw-resize



Rasm ustida sichqon ko‘rsatgichining ko‘rinishi o‘zgarishi uchun quyidagi usullarda berilishi mumkin:

a) `img {`

`cursor: pointer;`

`}`

b)

``

Web-sahifa orqa foni rasmdan iborat bo‘lishi mumkin. Buni ham CSS yordamida berish mumkin. Gorizontaal gradiyent fonga ega Web-sahifaga misol:

`body { background: url("images/bg.jpg") repeat-x #dedede;`

`} bu yerda #dedede- fon rangini bildiradi. Vertikal gradiyent fonga ega Web-sahifaga misol:`

`body { background: url("images/bg.jpg") repeat-y center #dedede;`

```

}
Oddiy rasmdan iborat fonga ega Web- sahifaga misol: body {
background: url("images/bg.jpg") no-repeat #dedede; }

```

Animatsion GIF-fayldan foydalanib ham fon hosil qilish mumkin. Misol: html

```

{
background: url(images/bg.gif) no-repeat; /* GIF-fayl */ height: 100%; /*
sahifa balandligi */
}

```

CSSda bir nechta o'lchov birliklari qo'llaniladi. O'lchov birligi berilishiga doir misol: p { font-size: 14pt;


} pt– o'lchov birligi bo'lib, harf kattaligi 14 punktga teng bo'lishini anglatadi.

Yana quyidagi o'lchov birliklari qo'llanilishi mumkin:

2-jadval. CSS da o'lchov birliklari

BELGISI	TAVSIFI
px	Piksel (nuqta) ekranning eng kichik elementi hisoblanadi
em	em o'lchovi shriftning joriy o'lchamiga bog'liq. Agar 1.5em turgan bo'lsa, bu o'lcham berilgan elementdagi harf o'lchamidan 1,5 marta katta ekanligini anglatadi.
%	em o'lchamining o'xshashi bo'lib, 100%- 12 ptga teng. Turli qurilmalar uchun masshtab o'lchamlarini osonlik bilan o'zgartirish imkonini beradi.
ex	1ex- joriy shriftning kichik harfi "x" ning balandli
pt	1 punkt- 1/72 dyuym=0,3759 mm
sm	santimetr
mm	millimetr
in	1 dyuym= 2,54 sm
pc	1 pika= 12 punkt

Kursor harakalanganda uning ostidagi rasmni almashtirish mumkin. Masalan, tugma ustida sichqon bosilganda tugmaning rangi o'zgaradi.



1-rasm. O'zgaruvchan tugma

Misol qaraymiz. Ikkita bir xil tugmaning rasmi (image1.jpg va image2.jpg) faqat rangi bilan farq qiladi. Sichqon ko'rsatgichi tugma ustiga olib borilganda yangi rasm hosil bo'ladi. Html-kod:

```
<div class="img"></div> CSS-kod: .img {  
    background: url("image_1.jpg") no-repeat; // odatdagi holat rasmini qo'yiladi  
    height: 100px; // rasm balandligi width: 100px; // rasm eni  
}  
.img:hover { background: url("image_2.jpg") no-repeat; // Sichqon  
ko'rsatgichi olib borilganda qo'yiladigan rasm border: 2px solid #f00; // qizil  
ramka height: 120px; // yangi rasm balandligi width: 120px; // yangi rasm eni }
```

CSS yordamida matn kiritiladigan maydon o'lchamlarini o'zgarmaydigan qilib qo'yish mumkin.



Misol:

```
<body>  
<p>  
<textarea name="message" cols="20" rows="10"></textarea>  
</p>  
</body>  
textarea { resize:none;  
}
```

Web-sahifani CSS yordamida formatlash

CSS – bu web-sahifa dizayni bilan ishlash uchun mo`ljallangan kodlar majmuidir. Stillarni HTML elementlariga uch xil usulda qo`shish mumkin:

- Qatorli formatlash – stil atributlarini HTML elementlarida qo`llash yo`li bilan
- Ichki formatlash – HTMLning <head> qismida <style>elementini qo`llagan holda
- Tashqi formatlash – bir yoki undan ortiq tashqi CSS fayllaridan foydalangan holda

Stillarga murojaatning eng ma`qul yo`li – stillarni alohida-alohida CSS fayllarda saqlagan holda ulardan HTMLda foydalanish. Lekin, bu darslikda biz stillarni HTML elementlariga ichki formatlash usulida qo`shishni ko`rib chiqamiz, chunki bu usulda kodlarni ifodalash va terib ko`rish qolganlariga nisbatan osonroq.

Qatorli formatlash usuli faqatgina bitta HTML elementiga alohida fason(stil) berishda ishlatiladi:

- Qatorli formatlashda style atributi ishlatiladi.
- Quyidagi misol <h1> elementi rangini ko`k rangga o`zgartiradi:

Namuna:

```
<h1 style="color:blue;">Bu ko`k rangdagi sarlavha</h1>
```

Faqatgina bitta veb-sahifa dizaynini ifodalashda ichki formatlash usuli ishlatiladi. Ichki formatlash HTMLning <head> qismida, <style> elementi ichida ifodalanadi.

Namuna:

```
<!DOCTYPE html>  
<html>  
<head> <style>  
body {background-color:lightgrey;}  
h1 {color:blue;} p {color:green;}  
</style>  
</head>
```

```
<body>
<h1>Bu sarlavha</h1>
<p>Bu paragraf.</p>
</body> </html>
```

Birdan ortiq veb-sahifalar dizaynini formatlashda tashqi formatlash usulidan foydalanamiz.

Tashqi formatlash usulida bor-yo`g`i bittagina faylni o`zgartirish bilan veb-sahifaning ko`rinishini o`zgartirib yuborish mumkin.

Bu usulda HTMLning <head> qismiga boshqa bir alohida CSS faylga bog`lovchi link qo`shib qo`yish kifoya.

Namuna:

```
<html>
<head>
<link rel="stylesheet" href="styles.css">
</head>
<body>

<h1>Bu sarlavha</h1>
<p>Bu paragraf.</p>
</body>
</html>
```

Tashqi formatlash stilini istalgan matn muharririda yozish mumkin. Fayl hech qaysi bir HTML tegini o`z ichiga olmasligi va .css kengaytmasi bilan saqlanishi kerak. Quyida “styles.css” faylining ko`rinishi keltirilgan **body** {

```
background-color: powderblue;
} h1 {
color: blue;
} p {
color: red; }
```


CSS color xossasidan HTML elementlarida ishlatiladigan matnlarga rang berishda foydalaniladi. CSS font-family xossasidan HTML elementlarida ishlatiladigan matnlarning shriftini o`zgartirishda foydalaniladi. CSS font-size xossasidan HTML elementlarida ishlatiladigan matnlarning o`lchamini ifodalashda foydalaniladi.

Namuna:

```
<html>
<head> <style> h1 { color: blue; font-family: verdana; font-size: 300%;
} p { color: red; font-family: courier; font-size: 160%;
}
</style>
</head>
<body>

<h1>Bu sarlavha</h1>
<p>Bu paragraf.</p>

</body>
</html>
```

CSSda chegaralash xossasidan matnning chegaralariga fon berishda ishlatiladi. Bunda matn to`rt tomondan chegaralangan ko`rinishda bo`ladi. Namuna:

```
p {
border: 1px solid powderblue; padding: 30px; }
```

CSSda hoshiya xossasidan matn va chegara o`rtasida hoshiya oralig`ini qoldirishda foydalaniladi. Namuna:

```
p {
border: 1px solid powderblue;
margin: 50px; }
```

CSSda bo`sh joy qoldirish xossasidan element chegarasidan tashqarida bo`shliq qoldirish uchun ishlatiladi. Namuna:

```
p {  
  border: 1px solid powderblue; margin: 50px; }
```

Alohida bir element uchun stil berishda id xususiyatidan foydalanamiz.

Namuna:

```
<p id="p01">Men o`zgachaman</p>
```

Endi bu id xususiyati “p01” ga teng bo`lgan element uchun alohida stil beramiz

```
#p01 {  
  color: blue; }
```

Eslatma: elementga berilgan id xususiyati web-sahifada yagona bo`lishi kerak, id selektori alohida bir elementga o`zgacha bir stil berish uchun ishlatiladi.

Nazorat uchun savollar

1. CSS qo`llagan holda web-sayt yaratish usullari?
2. HTML teglariga CSS ko`rinishlarini berishning usullari?
3. Web-sahifani CSS yordamida formatlash usullari?

3.4. FLASH DASTURIDA INTERFAOL ANIMATSIYALAR

YARATISH

Asosiy savollar:

1. Flash dasturida oddiy harakatli animatsiyalar
2. Flash dasturida interfaol animatsiyalar yaratish

Tayanch so`zlar: Adobe Flash dasturi tushunchasi, Flash dasturida interfaol animatsiyalar yaratish, Многоугольник uskunasini, Windows Projector (exe).

Adobe Flash dasturi ikki o`lchovli animatsiya yaratishga imkon beradigan vektorli grafika muharriri. Animatsiya- grafik tasvirlarni “jonlantirish”, dinamik


holatga keltirishdan iborat. Ushbu muharrirda yaratilgan animatsion loyiha *.fla formatida saqlanadi. Flash- loyihani tarmoq orqali almashinish uchun ixcham *.swf formatiga eksport qilinadi.

Shuningdek, kichikroq animatsiyalarni o'zida 256 xil rangni saqlovchi *.gif formatiga eksport qilish ham mumkin. Shuningdek, sodda animatsiyalar tayyorlash uchun sodda muharrirlar ham mavjud. Xususan, Ulead GIF Animator dasturi animatsiyali gif fayllar yaratishga imkon beradi. Sodda animatsiyali gif fayllar yaratishga imkon beruvchi onlayn servislar ham mavjud. Shunday servislar qatoriga GifUp ni kiritish mumkin.

Flash animatsiya Internet tarmog'ida keng qo'llaniladi. Flash- animatsiya Internet tarmog'ida o'rgatuvchi dasturlar, o'yinlar, taqdimotlar qurish va joylashtirish imkonini beradi. Web-sahifalarda joylashtiriladigan animatsiyaning aksariyat qismi, onlayn otkritka va taklifnomalar Flash- animatsiyada tayyorlanadi. Buning asosiy sababi vektorli grafikaning xususiyatidir. Ya'ni, vektorli grafikani butun ekranga kattalashtirilganda sifati o'zgarmaganligi sababli Internetda keng ommalashdi. Ikkinchi tomondan Flash- animatsiyaga interfaollik berish mumkin. Boshqaruv tugmalari animatsiyani yanada qizarli bo'lishini ta'minlaydi. Bu tugmalar ActionScript dasturlash vositasida faollashtiriladi.

Internet tarmog'ida saytlarning boshqa ko'rinishi Flash-saytlar ham joylashtirilgan. Flash-saytlar o'zining ixchamligi va tasvir sifatining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Flashsaytlarning kamchiligiga esa sayt tarkibidagi ma'lumotlar qidiruv tizimlari tomonidan e'tiborga olinmasligi, sayt yuklanishi sekin amalga oshishini kiritish mumkin.

Adobe Flash dasturini ishga tushirish orqali quyidagi oynaga ega bo'lamiz. Dastur menyusi eng yuqorida joylashadi.



Uskunalar 1-rasm. Flash dasturi asosiy elementlari paneli

Adobe Flash menyusi quyidagi bandlardan tashkil topadi:

- Fayl (File)
- Tahrirlash (Edit)
- Ko‘rinish (View)
- Qo‘yish (Insert)
- O‘zgartirish (Modify)
- Matn (Text)
- Buyruqlar (Commands)
- Boshqaruv (Manage)
- Xatoliklarni bartaraf etish (Debug)
- Oyna (Window)
- Yordam (Help)


Ekraning chap qismida uskunalar paneli joylashadi. Unda joylashgan vositalar grafik obyektlarni yaratish va tahrirlash uchun qo`llaniladi. Uskunalar paneli to`rt qismga bo`linadi.

- tanlash va chizish vositalari;
- tasvirni ko`zdan kechirish vositalari: "Рукa", "Macштаб";
- obyekt rangi bilan ishlash vositalari;
- uskunalarining qo`shimcha imkoniyatlarini o`rnatish imkonini beradigan elementlar.

Zarur bo'lganida uskunalar paneli ekranning boshqa qismiga o'tkazilishi mumkin. Ishchi soha markazida montaj stoli joylashadi. Montaj stolining o'lchami va rangi kadr o'lchami va rangini aniqlaydi. Ishchi sohada obyekt va amallarning faqat montaj stolida joylashgan qismi yakuniy filmda ko'rinadi. Shuning uchun montaj stolining tashqarisida xohlagancha amal bajarish mumkin.

Ishchi soha yuqori qismida vaqt shkalasi joylashadi. U animatsiya yaratishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Vaqt shkalasi qatlamlarning joylashuvi, kadrlarni o'zgarishi ketma-ketligini ko'rsatadi. Panel ko'plab boshqaruv elementlariga ega. Uning tashqi ko'rinishini o'zgartirishimiz mumkin.

Ishchi soha pastki qismida xususiyatlar paneli joylashadi. Agar ishchi sohada birorta obyekt tanlanmagan bo'lsa hamda "Strelka" vositasi tanlangan bo'lsa, u holda, xususiyatlar panelida filmning umumiy parametrlari aks etadi. Biror obyekt tanlanganda mos ravishda panel ham o'zgaradi.



2-rasm. Xususiyatlar paneli

Ushbu holda quyidagilarni o'zgartirishimiz mumkin: □ "Размер" tugmasi film kadrining joriy o'lchamini ko'rsatadi. Tugmani bosish orqali ushbu o'lchamni o'zgartirish mumkin;


- "Фон" tugmasi film fonini o'zgartirish imkonini beradi;
- "Частота кадров" animatsiyada kadrlar almashinish chastotasini berishga imkon beradi. Bu yerda katta son o'rnatilganida film namoyishi tezlashadi.

Ishchi sohaning o'ng tomonida ishlashda yordam beradigan qo'shimcha panellar joylashadi. Bu panellarni osonlik bilan ko'rinmas holatga keltirish mumkin. Bu panellar asosiy menyuning Window ("Окно") bandidan boshqariladi.

Vektorli grafikada har bir obyekt konturdan va bo`yalgan sohadan tashkil topadi. Ular ustida amal bajarish uchun bir qator vositalar mavjud:


Chiziq "Линия"uskunasi— to`g`ri chiziqlar- konturlar chizadi. Chiziq rangini oldindan berish mumkin.

To`g`ri to`rtburchak "Прямоугольник" uskunasi— to`g`rito`rtburchak – kontur va bo`yalgan soha chizadi. Kvadrat chizish uchun Shift klavishasini bosib turgan holda chizish lozim. To`g`ri to`rtburchak burchaklarini yumaloqlash ham mumkin. Uskuna piktogrammasi ustida sichqonchani bosib tursak qo`shimcha uskunalar hosil bo`ladi.




3-*rasm. Uskunalarning ochiluvchi menyusi*

Oval "Овал" uskunasi— oval – kontur va bo`yalgan soha chizadi. Aylana chizish uchun Shift klavishasini bosib turgan holda chizish lozim. Shuningdek, ushbu uskuna orqali yoy, doira, xalqa, xalqaning bir qismini chizish mumkin.



4-rasm. "Овал" uskunasi chizilgan obyektlar

Кo`pburchak "Многоугольник" uskunasi— ko`pburchak chizadi. Burchaklar soni xususiyatlar panelida beriladi.



5-rasm. "Многоугольник" uskunasi sozlanmalarini o`zgartirish oynasi


Eng ko`p ishlatiladigan uskuna bu qora rangli strelka. Obyektni tanlash uchun ushbu uskuna bilan quyidagi amallar bajariladi:

- obyekt ichida sichqoncha ikki marta bosiladi;
- Obyekt tashqarisida sichqoncha bosib turilgan holda to`rtburchak chiziladi. Bunda obyekt to`rtburchak ishida to`liq joylashishi loizm.

Tanlangan obyekt mayda to`r bilan qoplanadi, konturi esa qalinlashadi. Faqat konturni tanlash uchun sichqoncha ko`rsatkichi obyekt chetiga olib boriladi va bir

marta bosiladi. Agar obyekt ko`pburchak bo`lsa, uning faqat bir qismi tanalanadi. Barcha qismini tanlashda Shift tugmasidan foydalaniladi. Faqat bo`yalgan sohani, ya'ni kontur ichini tanlash uchun "Strelka" uskunasi tanlanadi va obyekt ichida sichqoncha bir marta bosiladi. Tanlashni bekor qilish uchun ishchi sohaning bo`sh qismida sichqoncha tugmasi bir marta bosiladi.

Qalam "Карандаш" uskunasi— kontur chizadi. Bunda unga qo`shimcha parametrlar sozlanadi.




6-rasm. Qalam uskunasi sozlanmalarini o`zgartirish

Qalam ishlatilganida uning qo`shimcha imkoniyatlari quyidagicha yordam beradi:

- "Выпрямление" rejimi chizilgan rasmni yaqinroq bo`lgan geometrik figuraga aylantiradi.
- "Сглаживание" chizmadagi notekisliklarni to`g`rilydi.
- "Краска" – yuqoridagi rejimlarga nisbatan kichikroq ta'sir etadi. Chiziq rangi va qalinligi ham o`zgartiriladi.


Mo`yqalam "Кисть" uskunasi— rassomlar mo`yqalami singari ishlaydi. Chiziq, bitta rang bilan bo`yalgan figuralarni chizadi. Bunda unga qo`shimcha parametrlar sozlanadi. Uskunaning beshta ishlash rejimi mavjud. Rejimni tanlash uchun modikator tugmasidan foydalaniladi. Bu rejimlar quyidagi rasmda ifodalangan:

- joriy rasm (исходное изображение)
- normal bo`yash (Нормальная закраска)
- to`ldirish bo`yash (Закраска заполнением)
- bo`yash (Закраска)
- ichki bo`yash (Внутренняя)



Shuningdek, mo`yqalam o`lchami, shakli va rangi o`zgartirilishi mumkin. Qalam va mo`yqalam o`rtasidagi farqni ko`rish uchun ular yordamida chizilgan chiziqlarni “Qora strelka” uskunasi orqali tahrirlang.

O`chirg`ich "Ластик" uskunasi— rasmni biror qismini o`chiradi, obyekt shaklini tahrirlaydi. Olti xil rejimda ishlaydi. Rejimlarni tanlash uchun "Режим стирания" va "Кран" tugmalaridan foydalaniladi.



7-rasm. O`chirg`ich "Ластик" uskunasi ishchi rejimlari

Pero "Пепо" uskunasi— to`g`ri chiziq, siniq chiziq va egri chiziq segmentini chizish imkonini beradi. Chiziqlar Bezye egri chiziqlari asosida quriladi. Bu uskuna foydalanish uchun murakkab. To`g`ri chiziq chizish uchun boshlang`ich va oxirgi nuqta ko`rsatiladi. Chizishni yakunlash uchun Esc klavishi bosilishi lozim. Ushbu to`g`ri chiziqni egri chiziqqa aylantirish juda ham oson.

Maxsus tanlash "Спецвыделение" ("Белая стрелка") uskunasi ikkita xususiyatga ega:


- obyekt tanlanganida konturi va bo`yalgan qismi bir-biridan ajralmasdan bir butun obyekt sifatida qaraladi;
- ishlash tartibi Bezye egri chiziqlarini tahrirlashga asoslangan. Obyektни tanlash quyidagicha:

- obyekt to'rtburchakli soha ichiga olinadi ("Стрелка" uskunasiga o'xshash); □ obyekt konturi ustiga sichqoncha bosiladi.

Erkin shakl almashtirish "Свободное преобразование" uskunasi va "Преобразование" paneli yordamida obyektning shaklini osonlik bilan o'zgartirish mumkin. Obyekt ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin:


- transformatsiya nuqtasi joylashuvini o'zgartirish;
- masshtablash; □ burish va aylantirish; □ transformatsiya.

"Преобразование" panelini faollashtirish uchun Ctrl+T klavishalari bosiladi.



8-rasm. "Свободное преобразование" uskunasi imkoniyatlari

Obyektlarni tekislash ikki yoki undan ortiq obyektlarni montaj stolida bir-biriga nisbatan joylashuvini o'rnatadi. Buning uchun "Выровнять" panelidan foydalanish mumkin.




9-rasm. "Выравнивание" paneli

Flash dasturida interfaol animatsiyalar yaratish

Animatsiyani biror "tuynuk" (masalan, kinokamera obyektivi) orqali tomosha qilish effektini hosil qilish uchun niqob-qatlamdan (maxsus qatlam) foydalaniladi.

Agar niqob qatlamning kalit kadrida biror bo`yalgan obyekt mavjud bo`lsa, bu obyekt niqob- qatlam pastki qismida joylashgan qatlamlaridagi obyektlarni tomosha qilish darchasi vazifasini bajaradi. Bu effektни masalan, qorong`i xonani fonar orqali yoritishni namoyish etishda qo`llash mumkin. Oddiy qatlamni niqob-qatlamga aylantirish uchun qatlam kontekst menyusidan "Маска" bandi tanlanadi.


Bitta faylda bir nechta niqob qatlam bo`lishi mumkin. Ularning har biri bir nechta qatlamni niqoblashi mumkin. Agar qatlam sichqoncha yordamida sudralib niqob qatlamdan pastga tushirilsa, bu qatlam niqoblangan qatlam bo`ladi.



1-rasm. Niqob- qatlam hosil qilish


Animatsiya tovush qo`shish uni yanada qiziqarli bo`lishini ta'minlaydi. Flashda tovush hosil qilish imkoniyati ko`zda tutilmagan. Biroq, turli formatdagi tovushli fayllarni import qilish va o`zgartirish imkoniyati mavjud. Ko`pincha WAV, AIFF, MP3 formatlari qo`llaniladi. Tovush ham rastri tasvirlar qatori kutubxonada saqlanadi. Filmga tovush qo`shish uchun quyidagi qadamlar bajariladi:

- Filmga bir yoki bir nechta tovushli fayl import qilinadi.
- Vaqt shkalasiga yangi qatlam (lar) qo`shiladi.
- yangi tovush qatlamida kalit kadr tanlanadi.
- tovushli fayl kutubxonadan montaj stoliga sichqoncha yordamida sudraladi. Yoki xususiyatlar panelining "Звук" ro`yxatidan talab qilinadigan tovush fayli nomi tanlanadi.



2-rasm. Tovush o`rnatishda xususiyatlar paneli

Flash-filmni tahrirlash .fla kengaytmali faylda amalga oshiriladi. Film tugallangandan so`ng, kompilyatsiyalanadi. Flash- filmlarni Flash- pleyerda namoyish etish imkonini beruvchiformat .swf formatidir. Bu format filmning barcha interfaol imkoniyatlarini quvvatlaydi. Shuningdek, HTML- hujjat formatidan ham foydalanish mumkin. swf formatida “ishlatishga tayyor animatsiya” hosil qilish uchun "Файл" menyusidagi "Опубликовать" bandi tanlanadi. Animatsiyani videoformatda saqlash uchun "Файл" menyusidagi "Экспорт" bandi tanlanadi.




3-rasm. Animatsiyani eksport qilish formatlari

Ba`zi tafsilotlarga to`xtalamiz:

- AVI (Microsoft Video) formatiga eksport qilishda hosil bo`ladigan videoning sifati tanlanadigan kodekka bog`liq. Kutubxona simvollarini harakatlanmaydi.
- video formatga eksport qilishda Quick Time formati sifatli hisoblanadi.

Shuningdek, animatsiyani keyinchalik tahrirlash uchun ham bu format qo`l keladi.



4-rasm. SWF formatida chop etish imkoniyatlarini sozlash

Filmni Windows Projector (exe) formatida chop etish orqali o`zi bajariladigan .exe kengaytmali fayl hosil bo`ladi va o`z ichiga SWF-fayl hamda Flash-pleyerni oladi. Bu faylni istalgan joyda va istalgan vaqtda ishga tushirish mumkin bo`ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Flash dasturida oddiy harakatli animatsiyalar va bannerlar yaratish?
2. Adobe Flash dasturini ishga tushurish
3. Oval "Овал" uskunasi avzalliklari?
4. Maxsus tanlash "Спецвыделение" ("Белая стрелка") uskunasi xususiyati?
5. "Многоугольник" uskunasi sozlanmalari?
6. Flash dasturida interfaol animatsiyalar yaratish usullari?
7. Animatsiyani eksport qilish formatlari?
8. SWF formatida chop etish imkoniyatlarini sozlash turlari?
9. Animatsiyada kadrlar almashinish chastotalari?

3.5. DINAMIK SAYTLAR HOSIL QILISH. WEB SERVERLAR

Asosiy savollar:


1. Dinamik saytlar hosil qilish
2. Web serverlar
3. Ma'lumotlar bazasi.

Tayanch so'zlar: Dinamik sayt, PHP, 404, CMS tizimi, PHP Nuke, Drupal, Joomla!, Slaed CMS, Web serverlar, Apache Web, Apache HTTP, XAMPP, Denver, PHPMyAdmin, MySQL MBBT.

HTML da yozilgan sayt statik holda bo'lsa, zamonaviy saytlar dinamik ko'rinishga ega. Oddiy sayt qanday prinsip asosida ishlashini ko'rib chiqamiz. Foydalanuvchi biror-bir, masalan, page.html sahifasiga murojaat qildi deylik. Veb-server o'zidagi veb-sahifalar katalogini ko'rib chiqadi va agar page.html bo'lsa, foydalanuvchiga uni ko'rsatadi, aks holda esa – 404-chi xabarni (“Fayl topilmadi”) yetkazadi. Dinamik sayt esa biroz boshqacha ishlaydi. Foydalanuvchi biror sahifaga murojaat qiladi, biroq bu murojaat diskdagi aniq bir faylga emas, balki sayt dvijokiga (agar dvijok PHP tilida yozilgan bo'lsa, odatda bu fayl index.php bo'ladi) qaratilgan bo'ladi. Dvijok foydalanuvchiga kerakli ma'lumotni biror manbadan (masalan, ma'lumotlar bazasi yoki diskdagi fayldan) oladi, uni HTML-sahifaga aylantiradi va veb-serverga uzatadi, u esa o'z navbatida, foydalanuvchi brauzeriga jo'natadi.

Unda yana bir savol tug'iladi: agar bitta faylnigina so'rab, uni brauzerga uzatish mumkin bo'lsa, buncha murakkablashtirishning o'zi nimaga kerak? Shuning uchunki, bu saytni boshqarish qulay bo'lsin. Aytaylik, siz 100 sahifalik (bu unchalik ko'p emas) oddiy sayt yaratdingiz. Ertami-kech siz bu sayt dizaynini, ko'rinishini o'zgartirmoqchi bo'lasiz. U holda esa siz shu 100 sahifani qo'lda o'zgartirib chiqishingizga to'g'ri keladi. Ustiga-ustak, siz avvaliga bu 100 sahifani kompyuteringizdagi lokal serverga yuklab olishingiz, undan so'ng tahrirlab,


kerakli o'zgartirishlarni kiritishingiz va oxirida yana serverga yuklashingiz kerak bo'ladi.



Veb-serverning CMS siz holda qanday ishlashi

Ana endi dinamik sayt qanday ishlashini ko'rib chiqaylik. Asosiy voqea – “HTML-sahifani yaratish”. Ya'ni dvijok kontentni – matnli ma'lumotni (u rasm va jadvallar bilan ham bo'lishi mumkin) oladi va uni dizaynga “kiyintiradi”. Demak, saytning dizaynini o'zgartirish uchun siz faqatgina tayyor grafik mavzuni o'rnatishingiz yoki bir-ikkita faylni – sayt shabloni fayllarini o'zgartirishingiz kerak.

CMS tizimi sahifalarni dinamik ko'rinishga keltiradi: ular foydalanuvchi sahifani ko'rmoqchi bo'lgandagina amalda yaratiladi. Bu degani, sahifalar foydalanuvchi tomonidan bevosita ko'rilayotganda yangilanishi yoki o'zgartirilishi mumkin.



Veb-serverning CMS bilan qanday ishlashi

CMS afzalliklari

Bu tizimlarning asosiy jihati shundaki, dinamik veb-sahifalarni oson yarata olish va ularni turli xil axborot bilan to'ldirish imkoniyatini berishdir. CMS tizimlari odatda murakkab bo'lib, ular o'z ichiga xabarlarni tarqatish xizmatlari (RSS), forumlar va internet-do'konilarni oladi. Shu bilan birga, ularni o'zgartirish ham oson.

CMS nafaqat saytdagi turli ma'lumotlarni boshqarishni avtomatlashtiradi, balki shu bilan birga, sayt tuzilishining texnik tomonlari bilan tanish bo'lmaganlar, ya'ni yozuvchi va jurnalistlarga saytda o'z materiallarini bevosita foydalanuvchi interfeysi orqali qo'shish imkoniyatini beradi. Shu narsa tushunarli bo'ldiki, endi foydalanuvchilarga saytda o'z materiallarini ko'rish uchun HTML ni ham, saytdagi ma'lumotlar yangilanishining texnologiyasini ham bilishi shart emas.

CMS tizimi, shuningdek, veb-sayt yaratishni turli xil mutaxassislar orasida taqsimlab chiqish imkoniyatini beradi. Shunga ko'ra, veb-dizayner o'z diqqatini saytning ko'rinishiga (dizaynni mukammallashtirish va shablonlarni o'rnatishga) qaratsa, texnik yo'nalishda bo'lmagan mutaxassislar uni ma'lumotlar (matn, tasvir va animatsiyalar) bilan to'ldirishga harakat qiladi.

Bu ham hammasi emas. Ma'lumki, dvijok – CMS ning bir qismi xolos. U dizayn shabloni asosida sayt ma'lumotlarini chiqarib beradi. Bundan tashqari,

CMS da saytdagi ma'lumotlarni boshqarish (ular sayt bo'limlarini va kategoriyalarini yaratishga va ma'lumotlarni ular orasida bo'lib chiqishga imkon beradi) va bu ma'lumotlarni tahrirlash vositalari ham mavjud. Shu bilan birga, foydalanuvchi sayt ma'lumotlari aynan qayerda (ma'lumotlar bazasida, diskda HTML-fayl ko'rinishida yoki umuman tashqi serverda) saqlanayotganini bilishi shart emas.

CMS qo'llanilishi bilan ko'pgina qiyinchiliklar bartaraf etilishi mumkin. Yuqorida misol sifatida ko'rilgan sayt xaritasi ham avtomatik ravishda tuziladi, buning uchun foydalanuvchidan hech qanday mehnat talab etilmaydi. Shu bilan birga, CMS saytdagi qo'shimcha funksiyalarni, masalan, suratlar galereyasi yoki ro'yxatdan o'tish oynasini qo'llash imkonini beradi – shu kabi funksiyalar CMS kengaytmalari orqali amalga oshiriladi. Faqatgina u yoki bu kengaytmani o'rnatish kerak xolos.

CMS ga o'tishning o'ziga xos qiyinchiliklari

Xo'sh, CMS larning shuncha afzalliklari bo'lganda nima uchun barcha sayt egalari Joomla! yoki Drupal kabi CMS larga otishga intilmayapti? Bunga bir qancha sabablarni ko'rsatish mumkin.

Birinchi sabab, inertsiya bo'yicha ketish yoki boshqacha aytganda, o'zi bilgan narsaga o'rganib qolish. Inson HTML ni ishlatishga o'rganib qoladi va CMS ga o'tish saytni boshqarishni avtomatlashtirish bo'yicha qancha qulayliklar keltirmasin, biror narsani o'zgartirishni xohlamaydi. HTML dan CMS ga o'tish-yillar ichida amalga oshishi mumkin.

Ikkinchi sabab, mavjud minglab HTML-sahifalarni CMS ma'lumotlar bazasiga moslab o'zgartirish kerak bo'ladi. Aksariyat hollarda buni qo'lda bajarish kerak bo'ladi. Katta sayt uchun bu jarayon ancha ko'p vaqtni oladi, bu esa saytni vaqtinchalik faoliyatining to'xtashiga va balki, kompaniya tomonidan ko'riladigan moliyaviy zararga olib keladi. Albatta, CMS ga o'tish saytni boshqarish bo'yicha ancha vaqt tejalishini hisobga olsa, kelajakda bu o'zini oqlaydi.

Endi, CMS ga o'tishga halaqit beruvchi faqatgina bitta to'siq qoladi – texnik holat. Deyarli barcha zamonaviy CMS ishlashi uchun xostingda PHP interpretatori

va MySQL ma'lumotlar bazasi serveri bo'lishi kerak. Besh-olti-yil avval shu kabi funksiyalarni taqdim etuvchi xosting-provayderlar kam edi.

Hozirga kelib, vaziyat yaxshi tarafga o'zgardi va PHP hamda MySQL ni qollaydigan xostingni O'zbekistonning o'zida topish qiyinchilik tug'dirmaydi.

Qaysi CMS dan foydalangan ma'qul?

Hozirgi davrga kelib, CMS asosiga qurilgan bir qancha tizimlar yaratilgan. Ularga misol qilib, Drupal, PHP-Nuke, WebDirector, Joomla!, NetCat, Slaed, Microsoft CMS, WordPress, PHPShop kabilarni keltirish mumkin. Bu tizimlarning ba'zilari umuman tekin bo'lsa, ba'zilaridan esa haqqini to'labgina foydalanish mumkin. CMS ni tanlash bir tomondan oson va jo'ndek ko'rinsada, bu juda jiddiy masala. Internetda ularning turli yo'nalishdagi o'nlab (agar yuzlab bo'lmasa): yuz dollarlab turadiganidan to ochiq kodli bepul turigacha, ma'lum bir sohagagina taalluqlisidan ixtiyoriy murakkablikdagi sayt qurish imkonini beradiganigacha, oson boshqariladiganidan administrator uchun katta qiyinchiliklar keltiradiganigacha turini topishingiz mumkin. Xullas, agar CMS lar bilan ishlash bo'yicha hech qanday tajribangiz bo'lmasa, keraklisini tanlash qiyinlashib ketishi tayin.

Dastlab keling, pullik CMS larni ishlatmaslikka harakat qilamiz. Axir katta pul to'lab, CMS ni ishlatishdan besamara foydalanishga naxojat. Shu yerda bir narsani aytib o'tish kerak: bu bilan o'zimizga qiyin qilamiz. Boshqa tarafdan esa, qanchalik murakkab bo'lsa, shunchalik qiziq bo'lishi aniq, shunday emasmi?

Endi CMS larga yana bir talab qo'yamiz: universallik. Bu degani, biz ishlatmoqchi bo'lgan CMS ixtiyoriy konfiguratsiyadagi kompyuterlarda ham ishlay olishidir. Shuningdek, saytni lokal serverdan haqiqiy serverga ko'chirganimizda yoki bevosita serverning o'zida yaratayotganimizda CMS bilan hech qanday qiyinchiliklar tug'ilmasligi kerak. Bu talabga esa, afsuski, ko'pchilik bepul CMS lar javob bera olmaydi.

Barcha dasturiy ta'minotlarga qo'yiladigan talablardan yana biri – xavfsizlik (axir siz haftalab-oylab yaratgan saytingizni shunchaki qiziqish uchun bir kunda

buzishlarini xohlamasangiz kerak?). Shuning uchun CMS larning xavfsizlik darajalari doimiy yangilanib turishi shart.

Natijada, talablarimizga deyarli to‘liq javob beradigan quyidagi: **PHP Nuke, Drupal, Joomla!, Slaed CMS** tizimlarigina qoladi. Endi ana shu CMS larni batafsilroq ko‘rib chiqamiz va o‘zimizga kerakli ba’zi xulosalar chiqaramiz.

PHP Nuke. Eng birinchi CMS lardan biri bo‘lib, afsuski, ancha vaqtlardan buyon yangilanmay kelmoqda. Biroq, uning kodi ko‘plab adashlari uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda (masalan, DotNetNuke, PostNuke). Bu bir-biriga nom jihatdan yaqin bo‘lgan tizimlar foydalanuvchi diqqatiga navbatma-navbat chiqib turadi. Funkzionallik jihatidan tizim ancha mukammal bo‘lib, uning uchun ko‘plab qo‘shimcha modullar yaratilgan. Masalan, xabarlar lentasi, forum, maqolalar, so‘rovlar tashkil qilish, statistika olib borish va boshqalar. Ammo, saytlarning tuzilishi jihatidan bir xillik kuzatiladi. Shu bilan birga, bu tizim yuklanishi qiyin bo‘ladi, ya’ni qo‘shimcha modullar sahifa yuklanishini sekinlashtiradi. Bu esa ko‘plab foydalanuvchilarga yoqmasligi tayin. Yuklanish nafaqat sahifaga, shuningdek, serverga ham tushadi, bu esa xosting xizmatini taqdim etuvchilarga yoqmaydi. Agar sizni shunday vaziyat qoniqtirsa, aynan shu CMS ni tanlashingiz mumkin. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.nukefiles.ru

Drupal. Turli xil o‘zgartirishlar orqali o‘zimizga moslab olish bo‘yicha eng mukammal CMS deb aytish mumkin. Shu yerda shuni aytish kerakki, “Tomchi” (bu tizim nomi ingliz tilidan aynan shunday tarjima qilinadi) aslida, CMS emas, balki “CMS ni tuzuvchi tizim”. Uning yordamida siz tayyor bloklardan kerakli CMS ni yig‘asiz. Shuni aytish mumkinki, funkzionallik va dizayn jihatidan o‘zingizni qanoatlantiruvchi CMS ni hosil qilasiz. Standart modullar to‘plamiga blog, forum, xabarlar lentasi, fayllarni yuklash, ovoz berish, qidiruv kabilar kiradi. Bunda ko‘rinadigan kamchilik bitta: PHP va MySQL ni mukammal bilish lozim. Agar bu qisqartmalarni tushunmagan bo‘lsangiz, keyingi CMS ga o‘tavering, aks holda esa bu tizimga jiddiyroq e’tibor bering. Rasmiy sayti: www.drupal.org. Texnik yordamni www.drupal.ru saytidan ham olishingiz mumkin.

Slaed CMS. Bugungi kunda ancha ommabop CMS bo'lib, turli xil saytlarda ishlatiladi. Ikki xil varianti mavjud: pullik va tekin (OpenSlaed). Ikkovi ham bitta yadroda qurilgan (bu degani xavfsizlik darajasi bir xil) va faqatgina funkcionalligiga ta'sir qiluvchi modullar soni bilan farqlanadi. Bepul variantida biror mavzudagi nisbatan kichik portalni yaratishingiz mumkin. Ammo, bundan ortig'ini emas. Dizayni ham unchalik katta qiyinchiliklarsiz o'zgartirilishi mumkin. Tizim aslida Rossiyada yaratilgani uchun rus tilidagi yordam (slaed.net) haqida qayg'urmasa ham bo'ladi.

Joomla! Bugungi kunda eng mukammal dvijoklardan biri (agar bepullari ichida eng mukammali bo'lmasa) bo'lib, uning uchun shunchalik ko'p qo'shimcha modullar yaratilganki, ular yordamida o'zingizning saytingizga deyarli ixtiyoriy funkcionallikni berishingiz mumkin. Bu dizaynga ham tegishli bo'lib, uni o'zgartirish uchun ham juda ko'p shablonlar mavjud. Biroq, bu yerda bir kamchilik ham bor: shablonlar tizimi shunday tuzilganki, sahifalarni yaratish va to'ldirish jarayonida sayt bo'limchalari kichik-kichik qismlar bo'lib, ajralib qolishi mumkin. Ya'ni, bu qismlar jadvallar asosida yaratilgan. Bu esa saytingizga o'z shaxsiy ko'rinish berishingizda bir qator noqulayliklar tug'diradi: yuqorida tilga olingan qismchalar kutilmagan joyda chiqib qolib, jahlingizni chiqaradi, shuningdek, ularni yo'qotish uchun vaqtingiz ketadi. Umuman olganda, agar sizni tayyor shablonlar qoniqtirsa (ular esa juda ko'p va xilma-xil), u holda bu tizim sizga juda mos keladi. Agar siz Joomla! ni tanlab o'ziga xos original sayt yaratmoqchi bo'lsangiz ozgina terlashingizga to'g'ri keladi. Rasmiy yordam sayti: joomla.org. Shuningdek, ruscha yordamni norasmiy bo'lsada, ancha yaxshi bo'lgan joomlaportal.ru va joom.ru saytlaridan ham olishingiz mumkin. Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida siz o'z saytingizni tez va oson ravishda yaratishingiz mumkin. Ammo hech qaysi CMS sizga tayyor holdagi saytni taqdim etmaydi. Buning uchun sizdan harakat va mehnat talab etiladi. Yaratayotgan saytingiz boshqalarnikiga o'xshamasligi, dizayn jihatdan takrorlanmas va original bo'lishi uchun esa shaxsiy fantaziyangiz va qobiliyatingizni ishga solishingiz kerak.

Web serverlar.

Web-server - mijozlardan (Web-brauzer) HTTP-so'rovlarni qabul qilib, HTML sahifa bilan birgalikda rasm, fayl, media oqim va boshqa ma'lumotlarni HTTP-javob sifatida qaytaruvchi serverdir. Web-server Jahon o'rgimchak to'rining (WWW) asosi hisoblanadi. Web-server funksiyasini bajaruvchi dasturiy ta'minotni ham, bu dasturiy ta'minot ishlayotgan kompyuterni ham Web-server deb ataladi.

Mijoz (odatda, Web-brauzer) Web-serverga URL-adreslar bilan ajratilgan resurslarni olish uchun so'rovlar jo'natadi. Resurslar-mijoz uzun zarur bo'lgan HTML-sahifalar, rasm, fayl, media oqim yoki boshqa ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Web-server javob sifatida kerakli ma'lumotlarni qaytaradi. Bunday almashinuv HTTP qoidalari asosida olib boriladi. Web-serverlar yana qo'shimcha vazifalarni ham bajaradi:

- Web-sahifalarni avtomatlashtirish;
- Resurslarga murojaatlar qaydnomasini yuritish;
- Foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish (autenfikatsiya va avtorizatsiya);
- Dinamik hosil qilinuvchi sahifalarni quvvatlash;
- Mijozlar bilan himoyalangan ulanishlar uchun HTTPSni (Hypertext Transfer Protocol Secure — shifrlangan HTTP) quvvatlash.

Ko'pincha kompyuterlarga Web-server bilan birgalikda pochta serveri (Mail server) ham o'rnatiladi. Shaxsiy kompyuterni Web-serverga aylantirish uchun unga zarur dasturiy ta'minot o'rnatiladi. Buning uchun IIS (Internet Information Server), nginx, lighttpd, Google Web Server, Resin, Cherokee,

Rootage, THTTPD, PWS (Personal Web Server), Apache HTTP Server, Ascet HTTPd, CERN httpd, HTTP File Server, XSP, Jetty, Apache Tomcat, TinyWeb, Tornado, Inproc WebServer, Small HTTP Server, Samba Server kabi dasturlardan biri o'rnatiladi. Apache HTTP Server Web-serveri eng keng tarqalgan Web-server hisoblanadi. Biroq bu Web-serverda administrator paneli qulay standart interfeysga ega emas.

Mijozlar Web-serverga yagona resurs ko'rsatuvchisi–URL-adres bo'yicha kerakli Web-sahifaga yoki serverda joylashgan boshqa resursga kirish huquqini oladi. Yagona resurslar ko'rsatuvchisi (ing. URL- Uniform Resource Locator)-Web-resursning yagona lokatori (joylashuvini aniqlovchisi)dir. Dastlab URL Internetdagi resurslarni (qo'shimcha fayllar) joylashuvini belgilash uchun mo'ljallangan. Hozir URL Internetda qariyb barcha resurslarini belgilash uchun qo'laniladi. URL standarti RFC 1738 hujjatida qayd etilgan.

Apache HTTP-serveri (ing. a patchy server) - ko'pplatformali, tekin tarqatiladigan Web-server bo'lib, Linux, BSD, Mac OS, Microsoft Windows, Novell NetWare, BeOS operatsion sistemalarini quvvatlaydi.

Internet olamida hozirgi vaqtda 390 milliondan ortiq Web - serverlar faoliyat yuritmoqda. Ular ichida Apache kompaniyasining Apache http – serveri va MS IIS keng ommalashgan.

Apache HTTP- serverining paydo bo'lishi Internet tarmog'ining taraqqiyotida asosiy vosita hisoblanadi. Apache- Netscape Communications (hozirgi vaqtda SUN JAVA system Web- server) firmasining Web-serveriga muqobil bepul tarqatiladigan, birinchi Web- server hisoblanadi. Dastur ko'plab platformalar: Unix, FreeBSD, Linux, Solaris, Novell Netware, Mac OS X, MS Windows va boshqalarda ishlaydi. Apache ochiq dastur kodi bilan bepul tarqatiladigan dasturiy ta'minot bo'lib, jahonning turli burchaklaridagi dastur tuzuvchilarning dasturni yaxshilash jarayonida qatnashishini va qo'shimcha ustqurma ishlab chiqaruvchilar va ular yordamida aniq bir maqsad uchun mo'ljallangan maxsus funktsiyani bajarish imkonini beradi.

Apachening asosiy yutuqlariga ishonchlilik va moslashuvchanligini ko'rsatish mumkin. Unga ma'lumotlarni tasvirlash uchun tashqi modullar qo'shish mumkin, foydalanuvchilarni ro'yxatga olish uchun MBBTni qo'llash va sh.o'. ko'pgina imkoniyatlar beradi. IPv6 ni quvvatlaydi.

Dasturning birinchi versiyasi 1994- yilda Robert Makkul tomonidan chiqarilgan. U Apache

Group jamoasini ham tashkil qiladi. Ikkinchi versiyasi (2002- yil) birinchisidan sezilarli farq qiladi. Modulli tuzilishga egaligi, dasturchilar uchun yangi API, IPv6ni quvvatlashi va boshqa (masalan, Windows) platformalarni quvvatlash yaxshilanganligi sababli, Internet tarmog'idagi eng ko'p ishlatiladigan httpd- serverga aylandi. Hozirgi vaqtda 2.2.8 (2008- yil) versiyasi so'nggi versiyasi hisoblanadi.

Apache Web- serveri yadrosi modulli strukturaga ega bo'lib, dasturlovchiga loyiha maqsadini aniqlagangan so'ng, o'zi ishlatish uchun rejalashtirgan dastur vositalarini ishlatish bilan bir qatorda boshqalarini o'chirib qo'yishi mumkin. Yadroning bunday arxitekturasi dasturiy mahsulotni yanada xavfsiz tez bajarilishini ta'minlaydi. Web-server interpretatorlarning turli modullarini quvvatlaydi. Bundan tashqari, Web-dasturchi xavfsizlik va kriptografiya modullaridan foydalanish mumkin. Apachega aytenfikatsiyani quvvatlash sozlangan, SSL shifrlash protokoli ishlangan, proksi- modul va hisobot yaratuvchi modul mavjud.

Apache HTTP Serveri uchun turli vazifalarni bajarishga mo'ljallangan 500 dan ortiq modul yaratilgan. Jumladan, Apachega turli dasturlash tillarini quvvatlash imkonini beradigan modullar ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- PHP (mod_php);
- Python (mod_python, mod_wsgi);
- Ruby (apache-ruby);
- Perl (mod_perl); □ ASP (apache-asp); □ Tcl (rivet).

Bundan tashqari, Apache CGI va FastCGI mexanizmlarini quvvatlash orqali barcha dasturlash tillari, xususan, C, C++, Java kabi dasturlash tillari dasturlarini ishga tushirish imkonini beradi.

Apacheni sozlash tizimi matnli sozlash fayllariga asoslangan. Uchta shartli sozlanmaga ega:

- Serverni sozlash (httpd.conf);

- Virtual xostni sozlash (2.2 versiyasidan boshlab httpd.conf, extra/httpd-vhosts.conf); □ Bo‘lim(direktoriya)larni sozlash (.htaccess).

Qulay konfiguratsiya, bir vaqtning o‘zida bir nechta tugunlarga xizmat ko‘rsatish uchun bir nechta Web-serverdan foydalanish imkoniyati administratorga qulaylik tug‘diradi. Hozirgi vaqtda Apache turli to‘plamlar tarkibiga kiradi. Masalan, Novell NetWareda IBM Web-serveri mavjud. Apache yana turli murakkablikdagi boshqa masalalarni hal etish uchun ham qo‘llaniladi. 1996- yil aprelida Apache jahon tarmog‘idagi eng ommaviy HTTP- serveri maqomiga ega bo‘ldi. 2008-yil Apache Web-serverida ishlovchi tugunlar barcha tugunlarning 52% ini tashkil qildi. Apache Web-serverini o‘rnatish hozirgi vaqtda Denver, XAMPP kabi vositalar yordamida avtomatlashtirilgan.

MS Internet Information Server ommaviyligiga ko‘ra ikkinchi hisoblanadi. NetCraft kompaniyasi tomonidan to‘plangan ma’lumotlariga ko‘ra, IIS Web-serveri jami tugunlarning 35% iga xizmat qiladi. IIS (ing. Internet Information Server) - Microsoft kompaniyasi tomonidan yaratilgan va MS Windows

Yana bir yangilik serverda Silverlight, Silverlight2, Silverlight3 yangi texnologiyalarini

quvvatlash moslanganligidir. Bu yangi texnologiya Internetda ma’lumotlarni turli platformalarda ishga tushirish imkonini beradi.

PWS (ing. Personal Web- Server) - Windows 95, Windows 98 va Windows NT operatsion tizimlarida ishlash uchun mo‘ljallangan. PWSni Web-serveri eskirgan va xavfsizlik tomonidan talabga javob bermaydi.

XAMPP bir nechta platforma (Windows, Linux, Mac OS X, Solaris)da ishlay oladigan Webserver bo‘lib, o‘z tarkibiga Apache, MySQL, PHP, Perl va qo‘shimcha kutubxonalarni jamlagan. Windows platformasida WAMPP (Windows, Apache, MySQL, PHP, Perl), Linux platformasida LAMPP deb ataladigan ko‘rinishlari qo‘llaniladi. Ya’ni birinchi simvol platforma bog‘liq ravishda qo‘llaniladi.

Denver to'plami (ruscha ДЖЕНТЛЬМЕНСКИЙ набор Web-разработчика, qisqacha «Д.Н.В.Р»). «ДЕНВЕР» deb o'qish qabul qilingan)— Dmitriy Koterov rahbarligida yaratilgan. Denver- distributivlar

(Apache, PHP, MySQL, Perl va boshqalar) jamlanmasi va Windows operatsion sistemasi asosida ishlovchi lokal kompyuterda Internet tarmog'iga ulanmasdan turib sayt qurishga mo'ljallangan qobiq dasturdan iborat. Ya'ni dastlab sayt kompyuterda yaratiladi, so'ngra serverga joylashtiriladi.

PHPMyAdmin

PHPMyAdmin vositasi ma'lumotlar bazasi bilan qulay ishlash uchun foydalaniladi.

PHPMyAdminning asosiy imkoniyatlari quyidagilar:

1. Ko'zdan kechirish, yaratish va o'chirish;
2. Foydalanuvchilarni; o Ma'lumotlar bazasini; o Ma'lumotlar bazasidagi jadvallarni; o Ma'lumotlar bazasi jadvallaridagi yozuvlarni.
3. Ma'lumotlar bazasini, jadvallarni va undagi yozuvlarni import va eksport qilish;
4. Qidiruvni amalga oshirishda qulaylik yaratish;
5. Ma'lumotlar bazasini boshqarishda qulaylik yaratish.

PHPMyAdmin, imkoniyatlarining bir qismi yuqorida qayd etilganlardan iborat. Bundan tashqari PHPMyAdminda bajarilgan har bir amal mos ravishda SQL-so'rov tarzida yozib boriladi. Mana shu yozuvlar asosida SQL tilini o'rganib olish mumkin. Masalan, tugma yordamida yangi jadval qo'shilishi bilan jadval yaratishda mos ravishda SQL-so'rov ham yoziladi. PHPMyAdmin - XAMPP yoki Denver to'plamlari tarkibida avtomatik ravishda o'rnatiladi.

Denverda uni brauzerning adreslar satrida: <http://localhost/tools/phpmyadmin> buyrug'i orqali ishga tushirish mumkin.

PHPMyAdmin foydalanuvchilarini boshqarish deganda quyidagilar tushuniladi:

1. PHPMyAdminda yangi foydalanuvchi yaratish;
2. PHPMyAdminda foydalanuvchini tahrirlash;

3. PHPMyAdmin'da foydalanuvchini o'chirish.

Yangi foydalanuvchi yaratish uchun quyidagi qadamlar bajariladi:

1. PHPMyAdmin bosh sahifasiga o'tiladi
2. "Привилегии" bandi tanlanadi.
3. "Добавить нового пользователя" bandi tanlanadi.
4. Yangi foydalanuvchi parametrlari sozlanadi va "Пошёл" ("GO")

tugmasi bosiladi.

Yangi foydalanuvchi parametrlari haqida batafsil to'xtalamiz:

- Foydalanuvchi nomi (Имя пользователя)- bu yerda biror ism yoziladi yoki ochiluvchi ro'yxatdan "Ихтиёрий foydalanuvchi"ni ("Любой пользователь") tanlanadi.

- Host (Хост)-ushbu nomdagi foydalanuvchi bog'lana oladigan adres ko'rsatiladi. Odatda, "localhost" yoziladi.

- Maxfiy so'z (Пароль)-maxfiy so'z kiritiladi. Maxfiy so'z ishlatilmaydigan holatda ochiluvchi ro'yxatdan "Без пароля" bandi tanlanadi.

- Tasdiqlash (Подтверждение)- Maxfiy so'z takroran kiritiladi.

PHPMyAdmin'da foydalanuvchini tahrirlash va o'chirish ham shunga o'xshash tartibda amalga oshiriladi.

PHPMyAdmin'da ma'lumotlar bazasi ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

1. yangi baza hosil qilish.
2. bazani tahrirlash.
3. bazani o'chirish.

PHPMyAdmin'da ma'lumotlar bazasini yaratish quyidagi qadamlardan iborat:

1. PHPMyAdmin asosiy sahifasiga o'tiladi.
2. ma'lumotlar bazasi nomi yoziladi, kodlar jadvali tanlanadi va "Создать" tugmasi bosiladi. Saytda kirill va lotin harflari ishlatilganda ruscha kodlar jadvali (cp1251_general_ci), ko'ptilli sayt uchun unicode (utf8_general_ci) kodlar jadvali tanlanadi.

PHPMыAdminda ma'lumotlar bazasini tahrirlash uchun quyidagi amallar bajariladi:

1. PHPMыAdmin asosiy sahifasiga kiriladi.
2. ma'lumotlar bazasi nomi tanlanadi
3. "Операции" bandiga o'tiladi.
4. ma'lumotlar bazasi tahrirlanadi, har bir amaldan so'ng, "Пошёл" tugmasi bosiladi.

PHPMыAdminda ma'lumotlar bazasini o'chirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. PHPMыAdmin asosiy sahifasiga kiriladi.
2. O'chirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar bazasi nomi tanlanadi.
3. "УНИЧТОЖИТЬ" bandiga o'tiladi.
4. ma'lumotlar bazasini o'chirish tasdiqlanadi (OK tugmasi).

PHPMыAdminda ma'lumotlar bazasini boshqarish yuqorida ko'rib chiqildi.

PHPMыAdminda jadvallarni boshqarish uchun asosiy sahifada jadval nomi tanlanadi hamda satr va ustunlar ustida amallar bajariladi. Quyida bazada yangi jadval yaratishni qarab chiqamiz:

1. PHPMыAdmin asosiy sahifasiga kiriladi.
2. yangi jadval qo'shiladigan ma'lumotlar bazasi nomi tanlanadi.
3. yangi jadval nomi kiritiladi hamda maydon (ustunlar) soni ko'rsatiladi "Пошёл" tugmasi bosiladi.

4. har bir maydon va jadval uchun mos sozlashlarni bajariladi va "Пошёл" tugmasi bosiladi.

Uyerda jadval maydonlari sozlanmalari quyidagicha bo'lishi mumkin:

- Имя— maydon nomi.
- Тип. Maydon turi beriladi. Maydon turlarini berish "MySQLda maydon turlari" mavzusida to'liq yoritilgan.
- Длины/значения. O'zgaruvchilarning qiymati (uzunligi) beriladi.
- Кодировка. Satrli ma'lumotlar turi uchun kodlar jadvali ko'rsatiladi.

- Атрибуты. Faqat sonlarga tegishli. Faqat musbat sonlar ishlatilganda "UNSIGNED" ko'rsatgichi yoqib qo'yiladi.
- Ноль. "null" qiymatini ishlatish imkonini beradi.
- По умолчанию. Odatiy aks etadigan qiymatni beradi.
- Дополнительно. "auto_increment" qiymatini beradi. Har bir yangi yozuv qo'shilganda bu maydonning qiymati avtomatik ravishda 1 birlikka ortadi.
- Комментарии. Bu maydonda izohlar kiritiladi. Foydalanuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda to'ldiriladi.
- MIME-тип. Biror o'ziga xos qiymat (masalan, rasm) saqlanganda bu maydon to'ldirilishi zarur.

Shuningdek, jadval sozlanmalarini o'zgartirish, jadvalni o'chirish, jadval maydonlarini o'chirish kabi amallarni bajarish mumkin.

Ma'lumotlar bazasini tashkil etuvchi ma'lumotlar— yozuvlar deb ataladi. PHPMyAdmin vositasida yozuvlar ustida quyidagi amallarni bajarish mumkin:

- Jadvalga yozuv qo'shish;
- Jadvaldagi yozuvlarni tahrirlash;
- Jadvaldagi yozuvlarni o'chirish.

Sayt qurish - dastlab, lokal serverda amalga oshiriladi. Sayt tayyor bo'lgandan so'ng, uni olisdagi serverga ko'chiriladi. Olisdagi serverga saytni ko'chirish uchun faqat fayllarni nusxalash bilan ish bitmaydi. Sayt ishlashi uchun ma'lumotlar bazasini ham ko'chirish lozim. Ma'lumotlar bazasini ko'chirish uchun uni eksport, import qilish amallari bajariladi. Bu amallarni bajarish uchun quyidagi qadamlarni bajarish zarur:

Birinchi navbatda ma'lumotlar bazasi eksport qilinadi:

1. PHPMyAdmin asosiy sahifasiga kiriladi.
2. Zarur ma'lumotlar bazasi tanlanadi:
3. Yuqoridagi menyudan "Экспорт" buyrug'i tanlanadi:
4. Yangi sahifada "SQL" ni tanlanadi va "Пошël" tugmasini bosiladi:
5. Navbatdagi sahifada hosil bo'lgan butun SQL-kod tanlanadi buferga nusxalanadi:

Shundan soʻng, olisdagi serverga maʼlumotlar bazasi import qilinadi. Buning uchun olisdagi serverda PHPMyAdmin dasturi ishga tushiriladi va yuqorida buferga nusxalangan SQL- soʻrov bajariladi:

1. PHPMyAdmin asosiy sahifasiga kiriladi.
2. Zarur maʼlumotlar bazasi tanlanadi:
3. Yuqoridagi menyudan "SQL" buyrugʻi tanlanadi:
4. Matnli maydonga buferdan SQL- soʻrov qoʻyiladi va "Поиск" tugmasi bosiladi:

Natijada barcha jadvallar yozuvlari bilan yangi serverda hosil qilinadi. Xuddi shu usul bilan maʼlumotlar bazasining bitta jadvalini import qilish ham mumkin.

MySQL MBBT

Maʼlumotlar bazasi - biror axborotni oʻzida saqlayotgan, bogʻlangan ikki oʻlchovli jadvallar toʻplamidir. Maʼlumotlar bazasini boshqarish (yangi maʼlumotlar bazasi va jadvallar yaratish, oldin yaratilgan axborotlar ustida amallar bajarish) uchun moʻljallangan dasturiy taʼminot maʼlumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT) deb ataladi. Maʼlumotlar bazasini boshqarish tizimlariga misol sifatida MS Access, FoxPro, MySQL, SQLite, Oracle, Sybase kabi dasturiy taʼminotlarni keltirish mumkin.

MySQL (MBBT) dasturiy taʼminoti tezkor, koʻp oqimli, koʻp foydalanuvchili, ishonchli maʼlumotlar bazasi SQL-serveri hisoblanadi. MySQL-server koʻp ish bajarishga moʻljallangan hamda ommaviy tarqatiladigan dasturiy taʼminot tarkibiga kiritilgan. MySQL - erkin maʼlumotlar bazasini boshqarish tizimi boʻlib, Oracle korporatsiyasi mahsuloti hisoblanadi. WAMP, AppServ, LAMP, ДЕНВЕР, XAMPP kabi Web-server toʻplamlari tarkibiga kiradi. Odatda, MySQL lokal va olislashgan mijozlar murojaat qiladigan server sifatida qoʻllaniladi. Distributiv tarkibiga ichki server kutubxonasi kiradi va MySQLni avtonom dasturga ulash imkonini beradi. MySQL dasturiy mahsuloti GNU General Public License (GPL) litsenziyasi asosida tekin yoki MySQL AB standart litsenziyasi asosida pullik tarqatiladi.

MySQL kichik va oʻrtacha kattalikdagi dasturlarda qoʻllaniladi

MySQL ishlab chiqaruvchi shved firmasi TeX firmasi oʻz mahsulotining imkoniyatini oshirish maqsadida yordamchi utilita-dasturlar bilan birgalikda tarqatadi. Biroq begona dastur ishlab chiqaruvchi firmalar tomonidan ham MySQL imkoniyatini oshirish maqsadida koʻplab yordamchi dasturlar ishlab chiqarilmqda.

mysql – ma'lumotlar bazasi serveriga to'g'ridan- to'g'ri bog'lanishni hosil qiladi va so'rovlarni bevosita kirish imkonini beradi. mysqlaccess - MySQLga murojaat qilish huquqlarini boshqarish va ularni o'qishda qulaylik yaratadi.

mysqladmin – boshqaruv funksiyasini bajaradi. Bu utilita yordamida yaxlit ma'lumotlar bazasini qo'shish va o'chirish hamda server ishini to'xtatish mumkin.

PHPda MySQL ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish bir necha usullarda amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda obyektga yo'naltirilgan bog'lanish qo'llanilmoqda. Bu usul bilan bog'lanishni qarab chiqamiz. Bog'lanish algoritmi quyidagicha bo'ladi:

1. Bog'lanish;
2. So'rov yuborish va natija olish;
3. Bog'lanishni yopish.

1-qadam bog'lanish quyidagicha amalga oshiriladi:

```
<?php
```

```
Mysql= new mysqli('localhost', 'Admin', 'pass', 'mybase'); ?>
```

Ushbu kodning bajarilishi natijasida MySQLi obyektini yaratamiz va unga quyidagi parametrlarni taqdim etamiz:

1. MySQL ishlayotgan xostning nomi;
2. Foydalanuvchi nomi;
3. Maxfiy so'z;
4. ma'lumotlar bazasining nomi.

Agar biror ma'lumot xato kiritilgan bo'lsa, bog'lanish amalga oshmaydi. Bog'lanishda xatolik yuz bersada, skriptning bajarilishi to'xtamaydi. To'xtatish uchun skriptga o'zgartirish kiritish zarur:

```
<?php
```

```
$mysqli= @new mysqli('localhost', 'Admin', 'pass', 'mybase'); if (mysqli_connect_errno()) {
```

```
echo "Bog'lanish mumkin emas: ".mysqli_connect_error(); }
```

```
?>
```

Ma'lumotlar bazasi bilan bog'langandan so'ng, unga so'rov jo'natib natija olish mumkin. So'rovni PHP yordamida berish mumkin. So'rov berish uchun SQL tilini bilish zarur. Masalan:

```
<?php
```

```

    $mysqli = @new mysqli('localhost', 'Admin', 'pass', 'mybase'); if
(mysqli_connect_errno()) {
    echo " Bo'g'lanish mumkin emas: ".mysqli_connect_error();
    }
    $mysqli->query('INSERT INTO mytable (name, email) VALUES ("Xolida",
    "txolida@qarshidu.uz)');
    $mysqli->close();
    ?>

```

SQL maxsus relyatsion ma'lumotlar bazasi bilan ishlashga, ya'ni ma'lumotlar bazasini boshqarish uchun mo'ljallangan so'rovlar tilidir. SQL tili MySQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi hisoblanadi. SQL maxsus relyatsion ma'lumotlar bazasi bilan ishlashga, ya'ni ma'lumotlar bazasini boshqarish uchun mo'ljallangan so'rovlar tilidir. SQL tili MySQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar

1. Dinamik saytlar hosil qilish?
2. CMS afzalliklari?
3. PHP Nuke, Drupal, Joomla!, Slaed CMS tizimlari ma'nosi?
4. Web serverlar. ma'lumotlar bazasi?
5. Apache HTTP-serveri tushunchasi?
6. XAMPP, Denver, PHP my Admin tushunchalri?
7. MySQL MBBT da ishlash?
8. PHPda MySQL ma'lumotlar bazasida ishlash?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.E.Mamarajabov, S.Q.Tursunov, L.M.Nabiulina “Kompyuter grafikasi va web dizayn” darslik. Toshkent, 2013
2. U.Yuldashev, M.E.Mamarajabov, S.Q.Tursunov “Web dizayn” uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2007
3. M.M.Aripov, F.A.Kabiljanova, Z.X.Yuldashev. Informatsionnie texnologii. T., 2004.
4. M. Aripov. «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari». Toshkent,2001.
5. M.Aripov. «Internet va elektron pochta asoslari». Toshkent, 2000.
6. S.Simonovichidr. Spetsialnaya informatika. Uchebnoe posobie. M., 2003.
7. S. S. G‘ulomov, A. T. Shermuhammedov, B. A. Begalov «Iqtisodiy informatika» T., «O‘zbekiston», 1999.
8. S.S.G‘ulomov va boshqalar «Axborot tizimlari va texnologiyalari» T. «Sharq», 2000.
9. A.R.Maraximov, S.I.Rahmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari», T., 2001.
10. A.A.Abdugodirov, A.G‘.Hayitov, R.R.Shodiyev «Axborot texnologiyalari» T., “O‘qituvchi”, 2002.
11. D.E.Toshtemirov, «Informatika va axborot texnologiyalari», o‘quv qo‘llanma, Guliston, GulDU, 2007.
12. M.Aripov, Yu.Pudovchenko, K.Aripov. «Osnovi Internet» T.: O‘zMU 2002.
13. V.E.Figurnov. «IBM dlya polzovatelya». M.1997.
14. S.I.Rahmonqulova. «IBM PC shaxsiy kompyuterida ishlash» T. NMK, «ShARQ», INSTAR 1996.
15. T. X. Xolmatov, N. I. Taylaqov, U. A. Nazarov. «Informatika va hisoblash texnikasi» T., «O‘zb.M.E.», 2001. 345
16. T.A.Nurmuxammedov. «IBM PC va MS DOS bilan tanishuv» T., «Mehnat»,1994.
17. <https://www.computer-pdf.com/web-programming> - Web programming tutorials in PDF.
18. <http://www.webnav.ru/books/dreamweaver/> - [Учебник по Macromedia Dreamweaver MX](#)
19. <https://www.nuu.uz> - Informatika o‘qitish metodikasi kursidan distantsion kurs. O‘zbekiston Milliy univrsiteti.
20. <https://www.bitpro.ru/ITO/index.html> -«Informatsionnie texnologii vobrazovaniy» konferentsiya sayti.
21. <https://www.tepkom.ru/users/ddt/articles> - Avtorlar maqolasi.
22. <https://www.inf.1september.ru> - Informatika gazetasi sayti.
23. <https://www.vspu.ru/~tmepi/texts/methods/html> - Uchebno-metodicheskie materialy po kursu.
24. <https://www.ugatu.ac.ru> – turli fanlardan elektron darsliklar, informatika fanidan test savollar majmuasi va boshqalar.
25. <https://www.infomicer.net> – Elektron darsliklar, entsiklopediyalar, multimedia materiallari va boshqalar.

26. <https://www.istedod.uz> – Respublika Prezidenti huzuridagi “Iste’dod” jamg‘armasi portali.
27. <https://www.e-darslar.net> - O‘zbek Internet foydalanuvchilari uchun onlayn, elektron darslar portali.
28. <https://www.Intuit.ru> - Rossiya Axborot Texnologiyalari Internet universitetining bepul o‘qish kurslari.
29. www.gduportal.uz – Guliston davlat universiteti ichki ta’lim portali.
30. <https://www.ziyonet.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Axborot-ta’lim tarmog‘i.

GLOSSARIY

<!---....---> - izoh. Shu belgi orasiga joylashtirilgan ixtiyoriy matn izoh deb qaraladi.

<A>... - hujjatga giperaloqani o`rnatish. Ushbu giperaloqaga olib boruvchi URL ta'riflovchisi, HRIF atributiga **HREF=http://www.goantipast.html**. A</> ko`rinishidagi giperaloqa sifatida tasvirlanuvchi ixtiyoriy so`zlar.

<ABBR>...</ABBR> - o`z matnini abbreviatura (qisqartma) sifatida aniqlaydi.

<ACRONYM>...</ACRONYM> - abbreviaturalarni belgilash uchun ishlatiladi. U orqali akronimlarni (abbreviaturalardan iborat so`zlarni) belgilash tavsiya etiladi.

<ADDRESS>...</ADDRESS> - hujjat muallifini belgilash va adresini ko`rsatish uchun ishlatiladi.

... - matnni qalinlashtirilgan shrift bilan tasvirlaydi.

<BASEFONT>...</BASEFONT> - hujjatda avvaldan qabul qilingan shriftni o`lchami, turi va rangini ko`rsatish.

<BIG>...</BIG> - katta o`lchamdagi matnni ko`rsatadi.

<BLINK>...</BLINK> - o`chib-yonib turuvchi matnni tasvirlaydi.

<BODY>...</BODY> - Web varaqni to`ldiruvchi matn, deskriptorlar va boshqa ma'lumotlarni aniqlaydi.

<CAPTION ALIGN=(TOP yoki BOTTOM)>...<CAPTION> - jadval sarlavhasi tegi.

<CITE>...</CITE> - kitob nomlari yoki sitatalar va maqolalarda boshqa manbalarga murojaat va h.z.larni belgilash uchun ishlatiladi.

<CODE>...</CODE> - o`z matnini programma kodining katta bo`lmagan qismi sifatida aniqlaydi.

... - o`z matnini o`chirilgan sifatida aniqlaydi.

<DFN>...</DFN> - o`z matn qismini ta'rif sifatida aniqlaydi.

<DL>...</DL> - ta'riflar ro`yxatini ko`rsatadi. Ichida <DT> teg orqali aniqlanayotgan termin, <DD> teg bilan esa abzats o`z ta'rifi bilan aniqlanadi.

... - matnning zarur qismlarini ajratish uchun ishlatiladi. Odatda bu qo`lyozmali ko`rinishlardir.

... - shrift parametrlarini ko`rsatadi. Parametrlar: FACE (shrift turi), SIZE (shrift o`lchami) va COLOR (shrift rangi).

<H1>...</H1> - birinchi pog`ona sarlavhalari. Eng kattalari.

<H2>...</H2> - ikkinchi pog`ona sarlavhalari. Umuman, olti xil sarlavhalar mavjuddir. Ularning qolgan to`rttasi quyida berilgan.

<H3>...</H3> - uchinchi pog`ona sarlavhalari.

<H4>...</H4> - to`rtinchi pog`ona sarlavhalari.

<H5>...</H5> - beshinchi pog`ona sarlavhalari.

<H6>...</H6> - oltinchi pog`ona sarlavhalari.

<HEAD>...</HEAD> - sarlavhani aniqlaydi, hujjat haqidagi ma'lumotni ko`rsatadi.

<HR> - gorizontaal chiziq (chizg`ich) qo`yadi.

<HTML>...</HTML> - sizning hujjatingizni kodlashtirishda ishlatish uchun tilni aniqlaydi. Ochuvchi hujjatni boshida, yopuvchi esa oxirida joylashtiriladi.

<I>...</I> - matnni qo`lyozma shrift bilan tasvirlaydi.

 - rasm joylashtiradi. Masalan: , bu erda Must – sizning Web varag`ingizdagi fayl bilan bitta katalogda turgan rasm nomi.

<INS>...</INS> - o`z matnini orasiga joylashtirish kabi aniqlaydi.

<KBD>...</KBD> - matnni foydalanuvchi tomonidan klaviatura orqali kiritilgan kabi aniqlaydi. Odatda monoshirin shrift bilan tasvirlanadi.

...() – ro`yxatdagi har bir element boshlanishini aniqlaydi.

... - to`liq tartiblangan ro`yxatni aniqlaydi. LI – uning elementlari.

<P>...(</P>) – bitta abzatsning boshlanishini aniqlaydi.

<PRE>...</PRE> - oldindan formatlangan matnni aniqlaydi.

<Q>...</Q> - qisqa sitatalarni matn satrida belgilaydi. Odatda qo`lyozma shaklida tasvirlanadi.

<SAMP>...</SAMP> - matnni namuna sifatida belgilaydi.

<SMALL>...</SMALL> - kichik o`lchamdagi matnni ko`rsatadi.

... - matn qismining xossalarini bekor qilish zarur bo`lganda ishlatiladi (<DIV> ga qarang).

... - matnning muhim qismlarini ajratish uchun odatda qalinroq shrift ko`rinishida bo`ladi.

<TABLE BORDER = - ramka qalinligi.

<CELLSPACING = - qo`shni yacheykalar orasidagi masofa.

</TABLE> - jadvalni aniqlaydi (<TR>, <TD>, <TH> ga qarang).

<TD>...</TD> - jadval satrida alohida yacheykani ramkaga oladi.

<TH>...</TH> - jadval sarlavha yacheykasi uchun ishlatiladi.

<TITLE>...</TITLE> - sarlavhani tashkil etadi.

<HEAD>...</HEAD> - disklar ichida joylashadi.

<TR>...</TR> - jadvalda satrning boshi va oxiri.

<U>...</U> - matnni ostki qismi chizilgan holda tasvirlaydi.

... - to`la tartiblanmagan ro`yxatni aniqlaydi.

<VAR>...</VAR> - programma o`zgaruvchilari nomlarini belgilaydi.
Odatda ko`rsiv ko`rinishda bo`ladi.

Hujjat asosiy qismining atributlari.

<body bgcolor=?> RRGGBB ko`rinishida rang qiymatini qo`llab hujjat foni rangini o`rnatadi. Misol: FF0000 – qizil rang.

<body text=?> Rang qiymatini RRGGBB ko`rinishida qo`llab hujjatdagi matn rangini o`rnatadi. Misol: 000000 – qora rang.

<body link=?> Rang qiymatini RRGGBB ko`rinishida qo`llab hujjatdagi gipermurojaat rangini o`rnatadi. Misol: 00FF00 - yashil rang.

<body vlink=?> Rang qiymatini RRGGBB ko`rinishida qo`llab hujjatdagi foydalanilgan gipermurojaat rangini o`rnatadi.

Misol: 333333 – kulrang rang.

<body alink=?> Gipermurojaatning bosilayotgandagi rangini o`rnatadi.

Matnni formatlashda ishlatiladigan teglar.

<pre></pre> Oldindan formatlangan matnni tasvirlaydi.

<h1></h1> ENG KATTA sarlavha hosil qiladi.

<h6></h6> Eng kichik sarlavha hosil qiladi.

 Qalin shrift hosil qiladi.

<i></i> Qiya shrift hosil qiladi.

<tt></tt> Yozuv mashinkasirikiga o`xshash shrift hosil qiladi.

<cite></cite> Sitata uchun ishlatiladigan shrift hosil qiladi. Odatda qiya yozilgan shrift ishlatiladi.

 matndagi so`zni alohida ajratib ko`rsatadi. (qiya yoki qalin matn)

 matnning muhim qismlarini belgilashda ishlatiladi. (qiya yoki qalin matn).

 0 dan 7 gacha bo`lgan oraliqda matn o`lchamini o`rnatadi.

**** Rang qiymatini RRGGBB ko'rinishida qo'llab hujjatdagi matn rangini o'rnatadi.

Gipermurojaatlar.

**** Boshqa bir Web hujjatga yoki joriy hujjatning biror bir qismiga gipermurojaat hosil qiladi.

**** Elektron xat yozish uchun ishlatiladigan dasturga murojaatni hosil qiladi.

**** Hujjatdagi matn qismini gipermurojaat qilish maqsadida belgilaydi.

**** Joriy hujjatning qismiga gipermurojaat hosil qilish.

Formatlash

<p> Yangi abzats hosil qiladi.

<p align=?> **left**, **right**, yoki **center** qiymatlarni qo'llab abzatsni tekislash.

**
** Yangi satrdan boshlash.

<blockquote></blockquote> Matnning ikkala tomonidan bo'sh joy ajratadi.

<dl></dl> Aniqlovchi ro'yxat hosil qiladi.

<dt> Ro'yxatdagi har bir termini aniqlaydi.

<dd> Ro'yxat bandiga izoh berish.

**** Raqamli ro'yxat hosil qiladi.

**** Ro'yxatdagi har bir elementni aniqlaydi va tartib raqam beradi.

**** Raqamlanmagan ro'yxat beradi.

**** Ro'yxatdagi har bir elementni aniqlaydi.

<div align=?> HTML hujjatlarda matnli bloklarni formatlash.

Grafik elementlar.

**** HTML hujjatga grafik tasvir qo'shish.

**** **left**, **right**, **center**; **bottom**, **top**, **middle** qiymatlarini qo'llab tasvirni hujjatning biror tomoniga tekislash.

**** Tasvir atrofi ramkasi qalinligini o'rnatadi.

<hr> HTML hujjatga gorizontaal chiziq qo'shish.

<hr size=?> Chiziqning qalinligini o'rnatish.

<hr width=?> Chiziq enini piksel yoki protsentlarda o'rnatish.
<hr noshade> Chiziq soyasini yo'qotish.
<hr color=?> Chiziqqa ma'lum bir rang berish. Qiymati RRGGBB.

Jadvallar.

<table></table> Jadval hosil qilish.
<tr></tr> Jadvaldagi satrlarni aniqlash.
<td></td> Jadvaldagi alohida yacheykani aniqlash.
<th></th> Jadval sarlavhasini aniqlash.

Jadval atributlari

<table border=#> Jadval ramkasi qalinligini berish.
<table cellspacing=#> Jadval yacheykalari orasidagi masofani berish.
<table cellpadding=#> Jadval qiymatlari va ramkasi orasidagi masofani berish.
<table width=#> Jadval enini piksellarda yoki hujjat eniga nisbatan foizlarda berish.
<tr align=?> yoki **<td align=?>** left, center, yoki right qiymatlarini qo'llab jadvalda yacheykalarni tekislash.
<tr valign=?> yoki **<td valign=?>** top, middle, yoki bottom qiymatlarini qo'llab jadval yacheykalarini vertikal bo'yicha tekislash.
<td colspan=#> Bitta yacheykaga birlashgan ustunlar sonini ko'rsatish. (Qo'zg'almaslik bo'yicha =1)
<td rowspan=#> Bitta yacheykaga birlashgan satrlar sonini ko'rsatish. (Qo'zg'almaslik bo'yicha =1)
<td nowrap> Brauzerga jadval yacheykasidagi satrni ko'chirishni taqiqlaydi.

Freymlar.

<frameset></frameset> Hujjatda freym yaratish.
<frameset rows="value,value"> Freymning gorizontal bo'yicha o'lchamlar nisbati.
<frameset cols="value,value"> Freymning vertikal bo'yicha o'lchamlar nisbati.
<frame> Freymda hosil qilinadigan ob'ektni aniqlaydi.

<noframes></noframes> Bu teglar orasida yozilgan ma'lumot brauzer tomonidan freym texnologiyasi tushunilmagan holatda ekranda paydo bo'ladi.

Freym atributlari.

<frame src="URL"> Freymda tasvirlanishi kerak bo'lgan HTML hujjatni aniqlash.

<frame name="name"> Freym nomini aniqlash.

<frame marginwidth=#> Freymning o'ng va chap tomonlaridan bo'sh joy qoldirish.

<frame marginheight=#> Freymning yuqori va quyi tomonlaridan bo'sh joy qoldirish.

<frame scrolling=VALUE> Foydalanuvchiga freymdagi o'tkazish yo'lakchasi (lineyka prokrutki)ni boshqarish imkonini berish.

<frame noresize> Freym o'lchamlarining o'zgarmasligini ta'minlash.

CSS - qisq.: Cascading Style Sheets Stillarning kaskadli jadvallari. HTML-hujjatni aks ettirish haqidagi axborotni yozish usulini tavsiflovchi W3C standarti. Faqat aks ettirishga javobgar ko'rsatmalarni ayrim faylga ajratadi va ularni xar xil HTML-hujjatlarga tatbiq qilishga imkon beradi. CSS ning asosiy maqsadi hujjatni tuzilmasini uning rasmiylashtirilishidan ajratib olishdir va mazmunning u yo bu elementi qanday bo'lishini sahifa muallifiga havola qilishdir. CSS u yo bu teglarni (masalan, sarlavhalarni yarim qalin qilib chizish) faqatgina «majburiy» formatlashdan ozod qilibgina qolmay, balki, oldin orzu qilinmagan yangi erkin harakat pog'onalarini ham kiritadi (masalan, o'zgartirish imkoni). Odatda CSS stillar kutubxonasini yaratish uchun ishlatiladi, ular keyin ko'pchilik HTMLsahifalarda ko'p marotaba ishlatiladi. Buning evaziga, butun veb-saytning stillarini o'zgartirish uchun birgina CSS faylida o'zgartirish kiritish yetarli.

JavaScript tili - ingl.: JavaScript language rus.: язык JavaScript SUN Microsystems va Netscape kompaniyalari tomonidan o'zaro faol veb-saytlarni yaratish uchun ishlab chiqilgan Skriptlar tili. Soddaligi va foydalanilayotgan maslaklarga nisbatan mustaqilligi bu tilning ustunliklaridir. jarayon Nomlarining o'xshashligiga qaramay Java va JavaScript bir biridan sezilarli darajada farqlanadi. Agar Java – to'la funksional obyektga-yo'naltirilgan me'moriy tuzilmali dasturlash tili bo'lsa, JavaScript esa, gipermatnli markerlash tillariga yaqinroq. JavaScript tili HTML kodi bilan o'zaro ishlashi mumkin va barcha asosiy brauzerlar tomonidan quvvatlanadi, shu jumladan Netscape Navigator va Microsoft I nternet Explorer tomonidan ham.

JTS - qisq.: Java Transaction Service Java tranzaksiyalarining xizmati. Java ni kengaytmasi. Java tilida OMG OTS ni amalga oshiradi, JTA bilan uyg'unlashuvni quvvatlaydi.

CSS va CSS-P: CSS (Cascading Style Sheets) - bu HTML ning cheklangan uslub xususiyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan nisbatan yangi til. O'rganish va amalga oshirish oson, CSS - bu sizning saytingiz uslubini, masalan, o'lcham, rang va shrift kabi matn uslublarini boshqarishning eng yaxshi usuli.

CSS HTML-sahifaning ichiga yoki alohida fayllarga joylashtirilishi mumkin. Bitta CSS faylida butun saytingiz uchun barcha uslubiy xususiyatlarga ega bo'lishning haqiqiy afzalligi shundaki, siz har bir HTML faylini birma-bir ko'rib chiqishingizga emas, balki butun faylni o'zgartirishingiz uchun ushbu bitta faylni tahrirlashingiz mumkin. Shu sababli, ehtimol bu eng foydali veb-texnologiya va, albatta, mening sevimlilarimdan biri.

CSS-P (CSS-Positioning) CSS ning quyi to'plami bo'lib, asosan HTML-sahifalaringiz tartibi bilan bog'liq. Bu veb-dizaynerga har qanday elementni (matn, grafik va hokazolarni) pikselga qadar o'zlari xohlagan joyda ekranda joylashtirishga imkon beradi.

DOM: DOM (Document Object Model) dizaynerga HTML-sahifadagi rasm, qatlam yoki jadval kabi har qanday elementga kirish huquqini beradi. Masalan, uni aniqlash uchun har bir elementga o'ziga xos "id" nomi berilishi mumkin

Frontend bu – veb-saytning foydalanuvchi o'z ekranida ko'rishi va o'zaro aloqada bo'lishi mumkin bo'lgan barcha qismlarini anglatadi.

Backend esa Frontedga qarama-qarshi tomonga ishora qiladi. Bu veb-sahifa funksiyasini bajaradigan maxfiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Oddiy foydalanuvchi odatda orqa tomonda nima sodir bo'lishini bilmaydi

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
1-BOB.	KOMPYUTER GRAFIKASI VA DIZAYN.....	4
1.1.	Kompyuter grafikasi haqida tushuncha.	4
1.2.	Kompyuter grafikasida ranglarning sxemalari. Gafikasi fayllar formatlari	9
1.3	Grafik axborotlar bilan ishlash texnologiyasi.	14
1.4	CorelDraw dasturiy paketi. CorelDraw dasdturiga kirish.	34
1.5	CorelDraw dasturi o‘ziga xos hususiyatlari va uni imkoniyatlari	48
1.6	3DS-MAX dasturiga kirish.	61
1.7	3DS-MAX daturining qo‘shimcha imkoniyatlari.	69
2-BOB.	HTML TILIDA WEB SAHIFA YARATISH	104
2.1.	Web texnologiyalarning asosiy tushunchalari..	104
2.2.	Saytning texnik topshirig‘ini ishlash chiqish loyihalash bosqichlari.	110
2.3.	HTML tiliga kirish, uning asosiy elementlari. Teg tushunchasi...	117
2.4.	HTML tilida jadval va rasmlar hosil qilish.	129
2.5.	HTML tilida gipermatn va freymmlar joylashtirish teglari.....	158
2.6.	Formalar tashkil qilish va ularni qayta ishlash.	176
3-BOB.	WEB-SAYTLAR YARATISHNING QO‘SHIMCHA DASTURIY TA’MINOTI	190
3.1.	Dreamweaver dasturning asosiy oynalari, menyusi, komponentlari. Web-sahifa yaratish.	190
3.2.	Dreamweaver dasturida web-uzel yaratish. Freymli tuzilma.	208
3.3	CSS qo‘llagan holda web-sayt yaratish.	237
3.4	Flash dasturida interfaol animatsiyalar yaratish.	246
3.5	Dinamik saytlar hosil qilish. Web serverlar.	258
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	275
	GLOSSARIY	277

СОДЕРЖАНИЕ

	ВВЕДЕНИЕ	3
ГЛАВА 1	КОМПЬЮТЕРНАЯ ГРАФИКА И ДИЗАЙН	4
1.1.	Компьютер графика о понимание	4
1.2.	Компьютер на графике цветов схемы . Гафикаси файлы форматы	9
1.3.	Графика Информация с спектакль технология	14
1.4.	Программное обеспечение CorelDraw пакет . Программное обеспечение CorelDraw логин _	34
1.5.	Программное обеспечение CorelDraw _ конкретный характеристики и университет опции	48
1.6.	ПО 3DS-MAX логин _	61
1.7.	3DS-MAX фотошоп дополнительный __ варианты	69
ГЛАВА 2 .	СОЗДАНИЕ ВЕБ-СТРАНИЦЫ В HTML	104
2.1.	Базовые концепции веб-технологий.....	104
2.2.	Этапы разработки и проектирования сайта	110
2.3.	Введение в HTML, его основные элементы. Понятие тэга..	117
2.4.	Создавайте изображения таблиц в HTML	129
2.5.	Теги гипертекста и размещения фреймов в HTML	158
2.6.	Организация форм и их обработка	176
ГЛАВА 3 .	ДОПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРОГРАММНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ДЛЯ СОЗДАНИЯ ВЕБ-САЙТОВ	190
3.1.	Главное окно, меню, компоненты программы Dreamweaver. Создание веб-страницы	190
3.2.	Создание веб-узла в программе Dreamweaver. Создание структуры фрейма.	208
3.3	Создание веб-сайта с использованием CSS	237
3.4	Создание интерактивной анимации в программе Flash	246
3,5	Создание динамических сайтов. Веб- серверы	258
	РЕКОМЕНДАЦИИ	275
	ГЛОССАРИЙ.....	277

CONTENTS

	INTRODUCTION	3
CHAPTER 1.	COMPUTER GRAPHICS AND DESIGN	4
1.1.	Computer graphics about understanding	4
1.2.	Computer in the graph of colors schemes . Gafikasi files formats	9
1.3	Graphic information with performance technology	14
1.4	CorelDraw software package . CorelDraw software login ..	34
1.5	CorelDraw software _ specific properties and uni options..	48
1.6	3DS-MAX software login _	61
1.7	3DS-MAX dadturing additional _ _ options	69
CHAPTER 2.	CREATING A WEB PAGE IN HTML	104
2.1.	Basic concepts of web technologies.	104
2.2.	Stages of site development and design	110
2.3.	Introduction to HTML, its main elements. The concept of a tag	117
2.4.	Create table images in HTML	129
2.5.	Hypertext and frame placement tags in HTML	158
2.6.	Organizing forms and processing them	176
CHAPTER 3.	ADDITIONAL WEBSITE CREATION SOFTWARE..	190
3.1.	Main windows, menu, components of Dreamweaver programme. Creating a Web page	190
3.2.	Creating a web node in Dreamweaver . Frame structure . ..	208
3.3	Creating a website using CSS	237
3.4	Creating interactive animations in Flash	246
3.5	Creating dynamic sites. Web servers	258
	REFERENCES	275
	GLOSSARY	277